

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi

**MILLIY IQTISODIYOTNI KLASTER
MODELLARI ASOSIDA
RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI
(AGROSANOAT MAJMU'I MISOLIDA)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi

**MILLIY IQTISODIYOTNI KLASSTER MODELLARI ASOSIDA
RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI
(AGROSANOAT MAJMUI MISOLIDA)**

Monografiya

Toshkent – 2024

КБК 89.53
М-365
УДК 436.329.45

Maxmasobirova N.U. Milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasi (agrosanoat majmui misolida)
Monografiya. Toshkent: «OLTIN QALAM» nashriyoti, 2024. – 171 b.

Mas’ul tahrirchi:

T.S.Rasulov – iqtisod fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

R.R.Xasanov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.J.Ermamatov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur monografiyada milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi (AQSH, Yevropa mamlakatlari va XXR misolida) va klasterlarni shakllantirish milliy modellarning o‘ziga xosligi nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etilib, O‘zbekiston uchun milliy iqtisodiyotni klasterlashtirishning hozirgi bosqichida “dirijist” klaster boshqaruv tizimi mos ekanligi asoslab berilgan, O‘zbekistonda tashkil etilayotgan agrosanoat klasterlarining sxematik ko‘rinishi tasvirlanib, ularning faoliyatini samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim salbiy tendensiyalarni davlat va xususiy sektor sherikchiligining optimal darajasini ta’minlash orqali bartaraf etishga qaratilgan takliflar asoslangan, O‘zbekistonda viloyatlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha joylashuv koeffitsienti (Location quotient)ni hisoblash orqali mazkur yo‘nalishlarda agrosanoat klasterlarini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan, O‘zbekistonda agrosanoat klasterini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosatning samaradorligini oshirishga qaratilgan 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan 3 bosqichli dasturning konseptual asoslari ishlab chiqilgan.

ISBN: 978-9910-750-94-6

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashi tomonidan 2024-yil 30-sentabr kuni muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan. (Bayonnoma №8-2024)

@ Maxmasobirova N.U.2024 y

@ “OLTIN QALAM NASHRIYOTI” 2024 y

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, klaster yondoshuvi uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotga investisiyalar jalb etish bo'yicha davlat siyosati samaradorligini oshirish, fan-ta'lim-ishlab chiqarish uchburchagining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida muhim omillardan hisoblanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) klasterlarga agrosanoatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi muhim strategiyalardan biri sifatida qarab, ularning agro oziq-ovqat zanjiri ishtirokchilariga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarga katta foyda keltirishi hamda barqaror raqobatbardoshlikka erishish uchun qulay biznes muhitini yaratishini ta'kidlaydi¹. Shuningdek, agrosanoat klasterlari BMTning 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim dastaklardan sanaladi². Ayni vaqtda jahon iqtisodiyotida turli noaniqliklarning vujudga kelishi, konyunkturaviy o'zgarishlar, raqobat kurashining kuchayishi agroklasterni rivojlantirish strategiyalari va unga bo'lgan ilmiy yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida (AQSh, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Skandinaviya mamlakatlari, Chili, Xitoy, Hindiston, Rossiya) agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ularning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirish kabi strategik maqsadlarni ko'zda tutadigan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Agrosanoat klasterlarining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlash, qishloq aholisining bandligini oshirish, nisbatan sekin rivojlanayotgan hududlar va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarni hal etishdagi³ rolini oshirish, uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, innovatsion faoliyatni yuksaltirish, ayniqsa agrosanoat majmuini rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, qishloq xo'jaligi milliy

¹ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – 118 p.

² <https://sdgs.un.org/>

³ European Commission, Directorate-General for Research and Innovation. Horizon Europe, pillar II - Global challenges and European industrial competitiveness. – Publications Office, 2021 (<https://data.europa.eu/doi/10.2777/886065>)

iqtisodiyotimizning muhim tarmog‘i sifatida qishloq aholisining daromadlarini ko‘paytirish, bandlik va milliy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirish vositasi sanalib, so‘nggi yillarda mamlakatimiz agrosanoat majmuida klasterlashtirish jarayoni jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish” asosiy masalalardan biri sifatida belgilangan⁴. Mazkur maqsadga erishish uchun agrosanoat majmuida klasterlarni rivojlantirish, bu sohada jahon tajribasini chuqur o‘rgangan holda undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish, mamlakatimizda agroklasterlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammo va istiqbollarni tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son, 2019-yil 25-sentabrdagi “Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 806-son, 2020-yil 19-fevraldagi “Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklarini hamda meva-sabzavot klasterlarini qo‘shimcha moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-son Qarorlari va agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan boshqa rasmiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotning agrosanoat majmuini klaster modellari orqali rivojlantirishning xorij tajribasini tahliliy o‘rgangan holda O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarni shakllantirish va

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni (<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>)

takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Unda iqtisodiy klasterlarning, xususan agrosanoat klasterlarining mohiyati, iqtisodiy ahamiyati, shakllanish xususiyatlari, iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning tashkiliy modellari, agrosanoat klasterlari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tahlili, iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy modellarining o‘ziga xos xususiyatlari, xorijiy mamlakatlarda raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosatining asosiy yo‘nalishlari; O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning hozirgi holati tahlili; O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning muammo va istiqbollarini kabi masalalar qamrab olinib, mamlakatimizda raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqilgandir.

I BOB. IQTISODIY KLASSTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1-§. Klasterlarning iqtisodiy mohiyati va ularni rivojlantirishning obyektiv zarurati

Raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalisharidan hisoblanadi. Agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda integratsiyalashgan tarmoq va hududiy tuzilmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ana shunday tuzilmalardan biri klasterlar hisoblanadi.

Klaster so'zi bugungi kunda fanning turli xil sohalarida keng qo'llaniladi va so'zning asl ma'nosiga qaralsa, u inglizcha "cluster" – "turli xil tashkilotlar yoki odamlarning guruhi, birlashmasi"⁵ degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiyotda esa klaster deganda "bir geografik hududdagi ishlab chiqarish kompaniyalari, xom-ashyo yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatish korxonalari, tegishli sohalardagi firma va jamoat institutlari (tadqiqot institutlari, ta'lim maskanlari va standartlashtirish institutlari)ning zich tarmog'i"⁶ tushuniladi.

Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari xorijlik iqtisodchi olimlar – M.Porter, S.Ketels, Ö.Sölvell, G.Lindqvist, E.Bergman, E.Ferser, C.Boj tomonidan, agroklastlar rivojlanishining jahon tajribasi L.Kiminami, A.Kiminami, S.Sharma, E.Nogales, F.Theus, R.Rama, M.Yu, L.Erling, R.Mueller, A.Jankoviak tomonidan chuqur tadqiq etilgan⁷.

⁵ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/cluster>

⁶ Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. // Harvard Business Review. 1990, March/April. – P. 73-91.

⁷ Porter M. The Competitive Advantage of Nations. // Harvard Business Review. – Brighton, 1990. – March/April. – P. 73-91; Porter M. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. – Brighton, 1998. – Nov/Dec. – Vol.76, Issue 6. – P. 77-90; Porter M., Ketels C. Clusters and Industrial Districts: Common Roots, Different Perspectives // A Handbook of Industrial Districts. – Northampton: "Edward Elgar Publishing", 2009; Ketels C. Clusters, Cluster Policy, and Swedish Competitiveness in the Global Economy. – Stockholm, 2009. – 66 p.; Sölvell Ö., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative Greenbook. – Stockholm: "Ivory Tower", 2003. – 92 p.; Bergman E., Feser E. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – Morgantown: "Regional Research Institute, West Virginia University", 1999. – 92 p.; Kiminami L., Kiminami A. (2009). Agricultural Clusters in China // International Association of Agricultural Economists Conference. – Beijing, 2009. – 22 p.; Catalin B. Clusters Models, Factors and Characteristics // International Journal of Economic Practices and Theories, 2011. – Vol.1, No.1. – P.34-43; Sunil Sh. Agro-based Clusters: A Tool for Competitiveness of Indian Agriculture in the ERA of Globalisation // Global Journal of Finance and Management, 2014. – V.6, No.8. – P. 713-718.; Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – 118 p.; Theus F., Zeng D. Agricultural clusters // Agricultural Innovation Systems: An Investment Sourcebook. – Washington DC: World Bank, 2012; Rama R. Innovation in the food industry // IV congreso internacional de horticultura mediterránea. – Almería: Universidad de Almería, 2005. –P. 139–145; Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development:

Milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning nazariy-konseptual asoslari, xorijiy tajriba, agrosanoat klasterlarining iqtisodiy ahamiyati kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Dorjiev, L.Markov, L.Shukina, Y.Limetti, V.Kundus, R.Xikmatov kabilarning ilmiy izlanishlarida qisman o‘z aksini topgan⁸.

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Jo‘rayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduvaliev, N.Xolmatov, R.Ro‘ziev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov kabilar mazkur yo‘nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan⁹. Xususan, R.Alimov, D.Kurbanova, M.Kamilova mamlakatimizda

The cluster model in China // *Agricultural Sciences*. – Rome, 2013. – P.33-39; Li E., Coates K., Li X., Ye X., Leipnik M. Analyzing Agricultural Agglomeration in China // *Sustainability*. – Basel, 2017. – №9(2), 313. – 19 p.; Li E. The Formation, Evolution and Innovative Development of Agricultural Clusters in China: Case of the Cluster Nature of "Shouguang Model // *SCIENTIA GEOGRAPHICA SINICA*. – Cahnchung, 2020, №. 40(4): – P. 617-627; Mueller R., Sumner D., Lapsley J. Clusters of grapes and wine // *International Wine Business Research Conference*. – Montpellier, 2006. – 19 p.; Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // *Research papers of Wrocław university of economics*. – Wrocław, 2017. – No. 486. – P. 71-79.

⁸Доржиева Е. Формирование и развитие конкурентоспособных агропромышленных кластеров на мезоуровне экономики. – СПб.: “Изд-во Санкт-Петербург. ун-та управления и экономики”, 2012. – 168 с.; Доржиева Е. Формирование агропромышленных кластеров как условие инновационного развития региональных систем // *Известия ИГЭА*, – 2011. – № 4(78). – С. 64-69; Марков Л. Экономические кластеры: понятия и характерные черты // *Актуальные проблемы социально-экономического развития: взгляд молодых ученых*. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2005. – Разд. 1. – С. 105-108; Щукина Л. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // *Экономика и управление народным хозяйством*, 2014. – С.1-8.; Леметти Ю., Келебай Р. Кластерная политика как инструмент государственного регулирования агропродовольственного сектора экономики // *Современные проблемы науки и образования*. – 2015. – № 2.2; Kundius V., Kovaleva I., Semina L., Voronkova O. Sannikova I., Bobrovskaya T. Functioning of the Agro-Industrial Cluster in Terms of Development of Innovative-Investment Activity // *International Business Management*, 2017. – №11 (12), – С. 2097-2103; Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // *Актуальные проблемы экономики и права*, 2009. – №1(9). – С. 125-136.

⁹ Алимов Р., Курбанова Д., Расулов А. Развитие хлопкового комплекса – важное направление кластерной экономической политики в Узбекистане // *Общество и Экономика*. – Москва, 2005. – № 7-8.; Алимов Р., Камиллова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. Теория и практика. – Т.: «Patent-press», 2005. – 53 с.; Курбанова Д., Каримов С. Формирование кластера в легкой промышленности Узбекистана // *Рынок, деньги и кредит*. – Ташкент, 2016. – №1; M.Rakhmatov (ed.). *Cotton-textile cluster – locomotive of economic development*. LAP LAMBERT Academic Publishing, 2021.; Жўраев Т., Хамидов М. Ўзбекистонда агросаноат кластерларининг ривожланиши ва уларнинг кишлок ҳўжалиги тараққиётида тутган ўрни // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. Тошкент, 2019. – № 2, Апрель. – 9 б.; Камиллова М., Мусаева Р. Кластерная концепция экономического развития // *Экономическое обозрение*, 2021. – № 12 (264). – С. 78-84; Камиллова М. Кластеры в эволюции // *Экономическое обозрение*, 2022. – № 1 (265). – С. 2-10; Alimov A. Innovatsion rivojlanish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda klaster mexanizmining ahamiyati // *Milliy innovatsiya tizimi shakllanishining ilmiy-konseptual va amaliy jihatlari: xorijiy tajriba va undan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari*. – Toshkent, 2016. – B. 38-41; Абдувалиев А. Кластер – миллий иқтисодиётнинг инновацион ривожланишидаги ўрни ва roli. Рисола. – Т.: “Lesson Press”, 2017 й. – 68 б.; Холматов Н. Саноатлашув жараёнида агросаноат кластерлари институционал ривожланишининг тенденциялари // “Агроиқтисодиёт” илмий-амалий иқтисодий журнал. – Тошкент, 2020. – №1. – Б.87-90; Холматов Н. Иқтисодиётни кластерлаш саноатлашув жараёнида жадаллаштириш йўналишларидан бири сифатида (Хитой модели) // “Бизнес-эксперт” илмий-амалий журнали. – Тошкент, 2020 й. – №4. – Б. 44-54. Рузиев Р. Кластер в концепции инновационной системы // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2014. – № 6, ноябрь-декабрь. – 6 с.; Хусаинов М., Солиев И. Возможности использования кластерной модели развития бизнеса в Узбекистане // *Молодой ученый*. – 2015. – №17. – С. 472-475; Захидов Г. Факторы формирования кластерного производства // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2015. – № 3, май-июнь. – 6 с. Бэ Я.С. Упларление развитием текстильной промышленности на основе стратегии формирования кластеров (на материалах Республики Корея и Республики Узбекистан). Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.13/ Бэ Янг Сонг – Ташкент, 2008. – 139 с., Д.М.Мирзахалилова. Повышение конкуренто способности текстильной промышленности текстильной промышленности Узбекистана на основе кластеризации. Дис. ... канд. экон. наук:08.00.03/Мирзахалилова

paxta sanoati klasterlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, Y.S.Be, D.M.Mirzaxalilova hamda G.E.Zahidov O'zbekiston yengil sanoatida klasterlarni rivojlantirish masalalarini o'rgangan. A.Abduvaliev esa monografik tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari, hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasi, mamlakatimizda klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tahlil etgan.

Klasterga beriladigan eng sodda ta'rifga ko'ra klaster sanoat guruhi, yaqinlik hamda faoliyat umumiylikiga ega kompaniyalar guruhidir¹⁰. Bugungi kunda klaster atamasining ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, ularning ichida klasterlarni lokal iqtisodiy aglomeratsiya, industrial hududlar, hududiy ishlab chiqarish komplekslari, yangi sanoat joylari, neommarshall tugunlari, innovatsion muhit, tarmoq hududlari degan ta'riflari ham uchraydi. Klasterlar doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning klasterga bergan turlicha ta'riflari mazkur tadqiqotning 1-ilovasida keltirilgandir.

Iqtisodiy klasterlar yuzasidan ko'plab yirik tadqiqotlar olib borgan M.Porter 1990-yili nashrdan chiqqan "The competitive advantage of nations" asarida "sanoat klasteri" degan atamani muomalaga kiritib, unga "xaridor yoki yetkazib beruvchi sifatida o'zaro ta'sir qiladigan birlashgan tarmoqlar, shuningdek umumiy texnologiyalar, xarid kanallari yoki umumiy mehnat birlashmalari" deya ta'rif bergan. Feser esa "Old and new theories of industry clusters" (1998) tadqiqotida "Iqtisodiy klasterlar bu – o'zaro bog'liq va aloqador tarmoqlar, institutlar bo'lib, shu aloqadorlik orqali raqobatbardoshlik ta'minlanadi" deb ta'kidlagan bo'lsa, IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, OECD) tomonidan 2002-yilda chop etilgan "World Congress on local clusters, regional clusters in Europe" nomli maxsus nashrda "Hududiy klasterlar bu – geografik jihatdan chegaralangan va o'zaro bog'liq bo'lgan firmalar" deb ta'riflangandir.

Marosini "Industrial Clusters, Knowledge Integration and Performance" (2004) tadqiqot ishida klasterlarning ijtimoiy ahamiyati haqida to'xtalib, "Klaster –ma'lum bir geografik mintaqada joylashlashgan odamlarning ijtimoiy birligi va iqtisodiy agentlarning soni bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-iqtisodiy obyektidir" deb ta'kidlagan. M.Delgado va M.Porter (2021) esa "klasterlar – mintaqada faoliyat yurituvchi bir-biri

Дамира Миннисалиховна. – Ташкент, 2012. –150 с. Захидов Г. Э. Ўзбекистон енгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги. Иқтисодиёт фан. фалсафа докт... дис.: 08.00.13/ Захидов Гафурджан Эркинович. – Т., 2017. –162 б.

¹⁰www.dictionary-economics.ru/cluster

bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlari guruhi”¹¹ deya ta’rif bergan.

1.1.1-jadval

Ilmiy maktablar nuqtai nazariga ko‘ra klasterlaning asosiy xususiyatlari¹²

Ilmiy maktab	Xususiyatlari
Sanoat hududlari	Masshatb samarasi, kompaniyalar o‘rtasida o‘zaro ishonch va kooperatsiya qilish uchun muhitning mavjudligi orqali innovatsiyalar yaralishi
Kaliforniya maktabi	Vertikal dizintegratsiya, tranzaksion xarajatlarning kamayishi, ixtisoslashgan mehnat bozori, kompaniyalarning yaqin hamkorligiga olib keluvchi o‘ziga xos qadriyatlar, noformal qoidalar
Porterning sanoat klasteri	Miqyos samarasi, mahalliy raqobat, korxonalarning raqobatbardoshligining oshishi, mahalliy ishlab chiqarish va tarqatish zanjirini rivojlantirish uchun yangi loyihaviy kompaniyalarning shakllantirilishi, omillarga soddalashtirilgan kirish imkoniyati
Skandinaviya maktabi	Innovatsiya ta’lim olishdir, ta’lim olish esa turli xil kompaniyalarning o‘zaro hamkorligi natijasida bilimlarning, amaliy ma’lumotlarning almashinuvi asosida yuzaga keladi

Olimlarning klasterga bergan ta’riflaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, klaster hududiy rivojlanish va geografik jihatdan bir yerga to‘planish, raqobatbardoshlik bilan bog‘liq bo‘lib, bir faoliyat sohasidagi firmalarning o‘zaro hamkorligi va o‘z o‘rnida raqobatlashishini anglatadi. Bundan kelib chiqib esa, klaster tushunchasiga: “Iqtisodiy klaster – geografik jihatdan yaqin joylashgan va ixtisoslashgan sektorlar (ishlab chiqarish sektori, ilm-fan sektori, boshqaruv sektori (mahalliy hokimiyatlar) va to‘ldiruvchi sektor (bank, sug‘urta, logistika, uyushmalar)ning o‘zaro hamkorligi va raqobatidan yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidir” deya ta’rif berish mumkindir.

¹¹ Delgado M., Porter M. Clusters and the great recession. – 2021. – P.1. (available on https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3819293)

¹² Богославец Д.М. Эволюция понятия «кластер» различных научных школ // Transport business in Russia. – Москва, 2015. – №2. – С.36.

Turli xil iqtisodiy maktablarning klasterning mohiyatiga yondoshuvi har xil bo‘lib, 1.1.1-jadvalda ilmiy maktablarning klaster atamasiga ta’rifi aks ettirilgan^{13,14}.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, sanoat hududlari ilmiy yo‘nalishi klasterlarni ta’riflashda masshtab samarasi, innovatsiyalarning vujudga kelishini ta’kidlasa, Kaliforniya maktabi vertikal dizintegratsiya, noformal qoidalarga, Porterning sanoat klasteri yo‘nalishi vakillari esa miqyos samarasi, o‘zaro raqobatga, Skandinaviya maktabi esa innovatsiyalar va ta’limga urg‘u beradi. Aytish mumkinki, ilmiy maktablar klaster mohiyatiga turlicha yondoshuvga ega bo‘lsa-da, ular klaster raqobatbardoshlikni oshirishi, masshtab samarasi yuzaga kelishi, klaster rivojida firmalarning o‘zaro kooperatsiyasi va bilim yotishini ta’kidlaydilar.

Klasterlar nazariyasining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, klasterli nazariya iqtisodiy geografiya asosida rivojlanishni boshlagan bo‘lib, klasterning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan ixtisoslashuvning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri bo‘yicha dastlabki qarashlarni A.Smit ishlarida kuzatish mumkindir. Xususan, olimning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot (1776) nomli asarida ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti ishlab chiqarishning o‘rishini ta’minlovchi asosiy faktorlar ekanligini asoslab berilgan¹⁵. Shuningdek, D.Rikardo tomonidan XIX asrning boshida yaratilgan “nisbiy ustunlik” nazariyasida ham klasterli yondoshuvning ilk xususiyatlarini ko‘rish mumkindir”¹⁶.

Ko‘pgina iqtisodchilar zamonaviy klasterlar nazariya asosida A.Marshallning “sanoat hududlari” (industrial tumanlar) nazariyasi yotadi deb hisoblaydi¹⁷. A.Marshallning 1890-yilda nashrga chiqqan “Iqtisodiyot tamoyillari” (Principles of Economics) nomli kitobida “sanoat hududlari” atamasi ishlatilgan bo‘lib, bu o‘xshash sanoat korxonalarining hududiy joylashuvini anglatadi. Marshall o‘z tadqiqotlarida korxonalarning geografik kontsentratsiyasidan olingan ijobiy ta’sirlar, ya’ni bilim va innovatsiya almashinuvi, mehnat resurslarini taqsimlashning samarasi va yetkazib beruvchilarga (sotuvchi-xaridor zanjiri) erkin kirish ta’sirini

¹³ Марков Л. Экономические кластеры: понятия и характерные черты // Актуальные проблемы социально_экономического развития: взгляд молодых ученых. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2005. – Разд. 1. – С. 105


¹⁴ Bergman E., Feser E. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – Morgantown: “Regional Research Institute, West Virginia University”, 1999. – 92 p.

¹⁵Международные экономические отношения: Учебник / Под ред. И.П. Фаминского. — М.: “Юристъ”, 2001. — 847 с.

¹⁶ Фатеев В.С. Кластеры, кластерный подход и его использование как инструмента регулирования развития национальной и региональной экономики // Веснік ГрДУ імя Янкі Купалы. – Гродно, 2012. – № 2(131). – С.40.

¹⁷Bergman E., Feser E. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – Morgantown: “Regional Research Institute, West Virginia University”, 1999. – 92 p.

tushuntirib, bu kabi tashqi ta'sirlar kichik korxonalarning iqtisodiy aglomeratsiya orqali barqarorlikka erishishi mumkinligini ko'rsatib bergan¹⁸. Natijada, Marshall ta'limoti raqobat afzalligi g'oyasiga asoslangan M.Porterning klaster konsepsiyasi va M.Enraytning mintaqaviy klaster tushunchasi uchun asos bo'ldi.



1.1.1-rasm. Klaster nazariyasining rivojlanish evolyutsiyasi¹⁹

Enraytning "mintaqaviy klaster" konsepsiyasiga ko'ra "klasterlarning roqabati mahalliy harakatlantiruvchi kuchlar asosida shakllanib, "globalizatsiya-lokalizatsiya" paradoksiga asoslanadi"²⁰, shuningdek, klaster milliy darajada emas, balki aynan mintaqaviy (mahalliy) darajada raqobat ustunliklariga olib keladi. Maykl Porterning nazariyasi esa "raqobatbardoshlik rombi"ga asoslanib, uning fikricha "klaster – bu bir vaqtning o'zida o'zaro raqobatlashuvchi, ammo shu bilan birga hamkorlikda ishlovchi, geografik jihatdan bir yerga to'plangan, o'zaro birbiriga bog'liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ma'lum tarmoqlardagi firmalar va ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar (universitetlar, standartlashtirish agentliklari, savdo uyushmalari)ning birlashgan guruhidir"²¹.

Marshall (1890) o'z tadqiqotlarida monopol bozor tuzilmalari aglomeratsiya doirasida o'zaro tarqalishni osonlashtiradi deb hisoblasa, Porter (1990) aksincha, klasterlar doirasida raqobatning muhimligini ta'kidlaydi²². Shuningdek, "Marshall nazariyasi" klaster a'zolari o'rtasidagi

¹⁸ Marshall A. Principles of Economics. – London: Palgrave Macmillan UK, 1890. – 731 p.

¹⁹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

²⁰ Т.Онипко. Кластеры в исследованиях американской научной школы теорий конкурентоспособности // Вестник КЭУ: экономика, философия, педагогика, юриспруденция. – Караганда, 2017. (<https://articlekz.com/article/27774>)

²¹ Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. // Harvard Business Review. 1990, March/April. – P.73-91.

²² Kiminami L., Kiminami A. Agricultural Clusters in China // International Association of Agricultural Economists Conference. – Beijing, 2009. – P 3. (<https://EconPapers.repec.org/RePEc:ags:iaae09:51471>).

ijtimoiy munosabatlarni hisobga olmaganligi bilan farqlanadi²³. Shunday qilib, aytish mumkinki, klasterlarga oid tadqiqotlar Garvard universiteti professori M.Porterning milliy raqobat ustunliklari haqidagi tadqiqotlari nashr etilgach va “klasterli yondashuv” atamasi taklif etilgandan so‘ng yanada rivojlandi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Klasterli yondoshuvning ustunligi va yangiligi shundaki, u iqtisodiy rivojlanishning mikroiqtisodiy elementlari hamda hududiy va ijtimoiy jihatlariga katta e‘tibor qaratadi. Ushbu yondoshuv hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi va natijada aholi bandligi oshadi, byudjet daromadlari ortadi hamda hududiy ishlab chiqarish tizimlarining raqobatbardoshligi mustahkamlanadi²⁴.

Klasterning nazariy asoslarini tizimlashtirgan iqtisodchilar klasterlar rivojlanishiga iqtisodiy yondashuv, masofaviy yaqinlik, mahalliy ta’sir o‘tkazish va raqobatbardoshlik manbalarining ahamiyatini ko‘rsatib o‘tganlar. Xususan, J.Humfrey va H.Shmitz klasterlar nazariyasining rivojlanishiga yangi iqtisodiy geografiya, firmalarning biznes faolligini tadqiq qilish, mintaqashunoslik hamda innovatika bilim sohalarining ta’sirini ta’kidlaydi²⁵. Yangi iqtisodiy geografiya (A.Marshall, P.Krugman, E.Venables) ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi hamda mahalliylashuviga olib keluvchi miqyos samarasiga asoslansa, firmalarning biznes faolligini tadqiq qilish (M.Porter) nazariyasining asosida raqobatbardoshlik bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bir vaqtning o‘zida raqobat va hamkorlikka jalb qilingan hududiy kontsentratsiyasi orqali ta’minaladi. Mintaqashunoslikda (B.Bekkatini, S.Brusko, D.Mayya) innovatsiyalarni jalb qilish nuqtasi sifatida mintaqaning alohida roli asosiy g‘oya sifatida qaralgan bir sharoitda, innovatikaning asosiy (B.Lundvall, S.Frimen, H.Lasters) g‘oyasi o‘zaro hamkorlik hamda bilimlar o‘qib o‘tishi orqali rivojlanish sanaladi.

E.Bergman va E.Fezer “Sanoat va mintaqaviy klasterlar” (1999) nomli tadqiqotida klaster nazariyasini tashkil etuvchi beshta asosiy konsepsiyaga e‘tibor qaratib, eksternaliya, innovatsion qurshov, hamkorlikdagi raqobat, kompaniyalar o‘rtasidagi kurash va tanlangan yo‘lining bog‘liqligini o‘rgangan bo‘lsalar²⁶, T.Anderson va boshqalar o‘z tadqiqotlarida klasterlarni tavsiflovchi asosiy elementlardan geografik konsentratsiya,

²³ Catalin B. Clusters Models, Factors and Characteristics // International Journal of Economic Practices and Theories. – Vol.1, No.1, 2011. – P.35

²⁴Марков Л.С. Кластеры: формализация взаимосвязей в неформализованных производственных структурах / Л. С. Марков, М. А. Ягольницер. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2006. – С. 4

²⁵ Humphrey J., Schmitz H. Governance and upgrading: linking industrial clusters and global value chain research. IDS Working Paper 120. – Sussex: Institute of Development Studies, 2000. – P. 6-7

²⁶ Бэ Я.С. Упларление развитием текстильной промышленности на основе стратегии формирования кластеров (на материалах Республики Корея и Республики Узбекистан). Дис. ... канд. экон. наук:08.00.13/ Бэ Янг Сонг – Ташкент, 2008. – С. 20-21

ixtisoslashuv, klaster a'zolarining xilma-xilligi, hamkorlikdagi raqobat, kritik massa, klasterning hayotiylik sikli hamda innovatsiyani tahlil qilgan²⁷. Grashof va Foshnal esa klasterning iqtisodiy mohiyatini yoritishda makonga aloqadorlik, o'xshash, to'ldiruvchi tarmoqlar, qiymat zanjiri hamda ixtisoslikning o'zaro tematik bog'liqligi hamda klaster turli xil aktarlari o'zaro aloqadorlik va formal, noformal institutlar, munosabatlarning ahamiyatini tahlil qilgan²⁸. Bu masalada M.Porter esa, "kompaniyalar va turli xil institutlarning klaster sifatida talqin qilinishi raqobatni yo'qotmasdan turib o'zaro bog'liq sohalarni boshqarish va rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi deb ta'kidlaydi²⁹". Iqtisodiy klasterlarning bu kabi xususiyatlarining keng talqin qilinishini boshqa olimlar hamda turli xil xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin.

Iqtisodiy klasterlarning tuzilishiga ko'ra geografik (iqtisodiy faollikning hududiy klasterlari); gorizontal (kattaroq klasterga birlashgan bir nechta sanoatlar, misol uchun agrosanoat klasteri); vertikal (klasterlar ishlab chiqarish jarayoning turli bosqichlarida ishtirok etishlari mumkin); texnologik (bir xil texnologiyalardan foydalanuvchi sanoatlar yig'indisi); fokus klasterlar (bir markaz atrofidagi klaster tashkilotlari (tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari)) kabi turlari farqlanadi³⁰. Bilim va fan bilan bog'liqligiga ko'ra esa yuqori texnologik klasterlar, tarixan nou-xauga asoslangan klasterlar, omil asosidagi klasterlar, ishlab chiqarish xarajatlari past bo'lgan klasterlar, bilim xizmatlarini ko'rsatuvchi klasterlar tasniflanadi.

Klasterda 3 turdagi bog'lanish bo'lib, vertikal bog'lanish ishlab chiqarish liniyasi bo'ylab yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi aloqani, gorizontal bog'lanish to'ldiruvchi tovarlar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, institutsional aloqa esa kompaniyalar va davlat idoralari o'rtasidagi aloqani anglatadi³¹.

Klaster strategiyalari mamlakatning raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan birga uning innovatsion salohiyatini oshiradi, ilmiy

²⁷ Andersson T., Schwaag-Serger S., Sorvik J., Hansson E. The Cluster Policies Whitebook. – Malmö: IKED, 2004. – P.28-29.

²⁸ Grashof, N., Foshnal, D. To be or not to be" located in a cluster?—A descriptive meta-analysis of the firm-specific cluster effect // Ann Reg Sci, 2021. – P 541–591 (<https://doi.org/10.1007/s00168-021-01057-y>)

²⁹ Porter M. Location, Competition, and Economic Development; Local Clusters in a Теория и практика управления Global Economy // Economic Development Quarterly. – Vol 14, Issue 1, 2000. – P. 15-34. (https://econpapers.repec.org/article/saeecdequ/v_3a14_3ay_3a2000_3ai_3a1_3ap_3a15-34.htm)

³⁰ Kundius V., Kovaleva I., Semina L., Voronkova O. Sannikova I., Bobrovska T. Functioning of the Agro-Industrial Cluster in Terms of Development of Innovative-Investment Activity // International Business Management, 2017. – №11 (12), – C. 2099.

³¹ Porter M.E. On Competition. – Boston, MA: Harvard Business School Press, 1998. –P. 204.

tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shu sababli ham klasterlashtirish dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida kuzatiladi. Misol uchun Shimoliy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti butunlay klasterlar bilan qoplangan bo'lib, ular orasida o'rmon-qog'ozchilik, biotexnologik, farmatsevtika va kommunikatsiyalar klasterlari yetakchilik qiladi. Buyuk Britaniya hamda Germaniyada biotexnologiya klasterlari rivojlangan bo'lsa, Italiyada sanoatda band aholining deyarli yarmi aynan klasterlar doirasida faoliyat yuritadi, Fransiyada esa iste'mol tovarlari hamda kosmetikalar ishlab chiqarish bo'yicha klasterlar yetakchilik qiladi.

Klasterlashtirish keng tarqalgan sohalardan biri agrosanoat majmui, qishloq xo'jaligi sohasi sanaladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida agrosanoat tarmog'ini klasterlashtirish qo'llab-quvvatlanishining asosiy sababi shundaki, bu kabi klasterlar doirasida faoliyat olib borayotgan korxonalar ko'proq iqtisodiy samaradorlikka erishadi va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, korxonalar sonining ko'payishi va klasterlarga birlashishi agrosanoat tarmog'ining innovatsion faolligining oshishi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchilar, mahsulotni qayta ishlovchi sanoat tarmog'i korxonalari, tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi (kimyoviy, veterenariya, urug'chilik, naslchilik, fan va h.k.) sohalar, pirovard mahsulot sotishni amalga oshiruvchi tijorat muassasalari hamda turli boshqa iqtisodiy infratuzilma obyektlarini qamrab oladi³². Agrosanoat klasterlari tijorat manfaatlarining umumiyligi bilan o'zaro bog'langan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, qayta ishlovchilar guruhi sanaladi³³. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish siyosati mahalliy qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida vertikal va gorizontaal aloqalarni o'rnatish orqali innovatsiyalarning tarqalishiga va muhim mahalliy tashqi omillarni yaratishga yordam berishi³⁴ tufayli bugungi kunda agrosanoat majmuini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Agrosanoat klasterlari shuningdek agroklastlar

³² Жўраев Т., Ҳамидов М. Ўзбекистонда агросаноат кластерларининг ривожланиши ва уларнинг қишлоқ хўжалиги тарақиётида тутган ўрни // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2019. – № 2, Апрель. – Б.3

³³ Сижажева С., Мирзоева Ж., Кумышева М., Абанокова Э. Агропромышленные кластеры как условие инновационного развития однотипных региональных экономик // Региональная экономика. – УЭКС, 2018. – №11. (<http://uecs.ru/uecs-117-112018/item/5186-2018-11-08-06-43-13>)

³⁴ Sharma S., Anupam. Agro-based Clusters: A Tool for Competitiveness of Indian Agriculture in the ERA of Globalisation // Global Journal of Finance and Management. – Delhi, 2014. – Volume 6, Number 8. – P. 715. (<http://www.ripublication.com>)

deb ham atalib, ilmiy adabiyotlarda “qishloq xo‘jaligi klasteri” atamasiga bir nechta izohlar berilgan:

- Agro klaster – qishloq xo‘jaligida, agrosanoat sohasida faoliyat yuritadigan, aloqa tarmoqlarini shakllantiradigan, umumiy muammolarni yechish va imkoniyatlarga erishishda qadriyatlarni yaratadigan ishlab chiqaruvchilar, agrobiznes va institutlarning konsentratsiyasi³⁵.

- Agro klaster – hokimiyat ko‘magi bilan tashkil etilgan, o‘zaro munosabatlari sinergetik ta’sirga olib keladigan, qulay ishbilarmonlik muhitida agro-oziq-ovqat va boshqa bozorlarda faoliyat yuritadigan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, oziq-ovqat sanoati korxonalari, shuningdek ularga xizmat ko‘rsatadigan infratuzilma tashkilotlarining muhim massasi bo‘lib, hududning raqobatbardoshligi va barqarorligini oshiradi³⁶.

- Agro klaster – bu davlat idoralari va ilmiy-ma’rifiy markazlar bilan sheriklik munosabatlari asosida tashkil etilgan, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, mintaqalar va umuman mamlakatning raqobatbardosh rivojlanishi uchun yaratilgan barqaror uzoq muddatli hududiy tarmoqlar birlashmasi³⁷.

- Mintaqaviy agrar klaster – ma’lum bir mintaqadagi korxona va tashkilotlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli (tarmoq tarkibi)³⁸.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning klaster shakli bir nechta muhim xususiyatlar bilan xarakterlanadi³⁹: geografik lokalizatsiya (qishloq xo‘jaligi korxonalarining bir hududda joylashganligi) va konsentratsiya (kadrlar, ilmiy, innovatsion va ishlab chiqarish salohiyatining to‘planishi), qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy tashkilotlar va davlat tuzilmalari o‘rtasida gorizontaal va vertikal aloqalar, ishtirok etuvchi tashkilotlarning rivojlanish dinamikasini ta’minlaydigan raqobat, klaster ishtirokchilarining raqobatbardoshligi va rivojlanish

³⁵ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – P.x;

³⁶ Доржиева Е. Формирование и развитие конкурентоспособных агропромышленных кластеров на мезоуровне экономики. – СПб.: “Изд-во Санкт-Петербург. ун-та управления и экономики”, 2012. – С.156;

³⁷ Щукина Л. В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Экономика и управление народным хозяйством. – Москва, 2014. – С.3. (<https://cyberleninka.ru/article/n/agroklastery-kak-instrument-obespecheniya-ustoychivogo-innovatsionnogo-razvitiya-selskogo-hozyaystva-regiona>);

³⁸ Леметти Ю., Келебай Р. Кластерная политика как инструмент государственного регулирования агропродовольственного сектора экономики // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2 (часть 2) (<https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=21481>)

³⁹ Щукина Л. В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Экономика и управление народным хозяйством. – Москва, 2014. – С.5. <https://cyberleninka.ru/article/n/agroklastery-kak-instrument-obespecheniya-ustoychivogo-innovatsionnogo-razvitiya-selskogo-hozyaystva-regiona>

barqarorligini oshirish maqsadida ixtiyoriy shartnoma asosida shakllantirilgan tashkilotlar o'rtasidagi barqaror uzoq muddatli iqtisodiy aloqalarning mavjudligi, klaster ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatiga innovatsion yondashuv kabilarni kiritish mumkindir.



1.1.2.-rasm. Agrosanoat klasterining tashkiliy tuzilmasi⁴⁰

Demak, yuqoridagi ta'riflardan hamda agrosanoat klasterlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, agrosanoat klasterining eng sodda tashkiliy tuzulmasini yuqoridagicha (1.1.2-rasm) shakllantirish mumkindir. Ammo, ta'kidlash lozimki, zamonaviy agrosanoat klasterlarining tuzilmasi ancha murakkab bo'lib, tarkibi jihatidan xilma-xildir, chunki klaster ishtirokchilar tarkibi 15-20 korxonalar bilan cheklanishi yoki ishtirokchilar soni ancha ko'p bo'lishi mumkin (masalan, Xitoyda agrosanoat klasteriga 7000 ta korxona kirishi mumkin).

Agrobiznesning klasterdagi yaxshi rivojlangan konsentratsiyasi ixtisoslashtirilgan resurslar, ma'lumot olish, sinergiya va jamoat mahsulotlariga kirish, qo'shma tadqiqotlar va tezkor innovatsiyalar orqali samaradorlikni oshiradi. Raqobat, talab va investorlarni jalb qilish natijasida

⁴⁰ Muallif tomonidan shakllantirildi.

yangi biznes shakllanib, bu o'z navbatida innovatsiyalarga turtki beradi⁴¹. Fermerlar, kichik va o'rta agrobizneslar esa agrosanoat klasteri doirasida miqyos samarasiga erishish, ta'lim olish, malaka oshirish, axborot almashish, texnologiyalarni sertifikatlash va qo'llash bilan bog'liq xarajatlarni taqsimlash orqali ham ijtimoiy ham iqtisodiy foyda oladi. Shuningdek, agroklastlarda ishtirok etish fermer xo'jaliklarini boshqarish, yangi texnologiyalar va ekologik amaliyotni joriy etish va kichik fermerlarning bozorlarga kirishiga ijobiy ta'sir qiladi⁴². Bu o'rinda, agrosanoat klasterlari o'sib boruvchi raqobat sharoitida global maydonda mintaqa yoki mamlakatning brendini shakllantirishda ham muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tish mumkindir.

Agroklast ishlab chiqarish, fan va ta'lim sektori hamda qishloq xo'jaligini boshqaruvchi mahalliy organlar kabi 3 ta asosiy subyektdan iborat bo'lib, ularning vazifalari quyidagi jadvalda keltirilgandir. Ta'kidlash kerakki, agrosanoat klasterlarida yangi korxonalar raqobat, xizmatlarga bo'lgan talab va investorlarni jalb qilish natijasida shakllanib, "mahalliy qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida vertikal va gorizontaal aloqalarni rivojlantirish, ular o'rtasidagi aloqalarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va NNTlarning mavjudligi klasterlar doirasida innovatsiyalarning tarqalishiga (diffuziyasi), shuningdek muhim mahalliy ishlab chiqarish kuchlarini yaratishga yordam beradi⁴³".

Klasterlarning samarali faoliyatida moliyaviy xizmatlar (banklar va boshqa moliyaviy institutlar), ilmiy-tadqiqot institutlari va biznesni rivojlantirish xizmatlari, universitetlar, ilmiy markazlar yoki ishlab chiqaruvchilar birlashmalari va kooperativlar tomonidan taqdim etilayotgan texnologiyalarni kengaytirish bo'yicha xizmatlar ko'rinishidagi institutsional qo'llab-quvvatlash ham katta rol o'ynaydi⁴⁴. Agrosanoat majmuasida talab katta ahamiyatga ega bo'lib, u yerda qiymat zanjiri bo'ylab g'oyalar ishlab chiqariladi⁴⁵. Bu kabi klasterlar mashinasozlik yoki qadoqlash mahsulotlarini yetkazib beruvchilardan nafaqat innovatsiya

⁴¹ Theus F., Zeng D. Agricultural clusters // *Agricultural Innovation Systems: An Investment Sourcebook*. – Washington DC: World Bank, 2012 (<http://siteresources.worldbank.org/INTARD/Resources/335807-1330620492317/8478371-1330712171692/Module5-TN4.pdf>)

⁴² Felzensztein C., Huemer L., Gimmon E. The effects of co-location on marketing externalities in the salmon-farming industry // *Journal of Business & Industrial Marketing*. – Bingley: "Emerald Publishing Limited", 2009. – Vol. 25(1). – P. 77.

⁴³ Sharma S., Anupam. Agro-based Clusters: A Tool for Competitiveness of Indian Agriculture in the ERA of Globalisation // *Global Journal of Finance and Management*. – Delhi, 2014. – V.6, No.8. – P. 715. (<http://www.ripublication.com>)

⁴⁴ Giuliani E., Pietrobelli C., Rabelotti R. Upgrading in global value chains: lessons from Latin American clusters // *World development*. – Amsterdam: "Elsevier", 2005. – Vol. 33, Issue 4. – P. 549-573

⁴⁵ Rama R. Innovation in the food industry // *IV congreso internacional de horticultura mediterránea*. – Almería: Universidad de Almería, 2005. – P. 139-145.

manbai sifatida, shuningdek, mijoz va tarqatish zanjirlari sifatida ham foydalanadi⁴⁶.

1.1.2-jadval

Agroklaster asosiy tarmoqlarining vazifalari⁴⁷

Ishlab chiqarish	Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish; o'zaro ma'lumot almashish va kommersalizatsiya orqali innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini oshirish; bandlik; xodimlarning malakasini oshirish maqsadida qo'shma o'quv dasturlarini amalga oshirish; iste'molchilar talablarini qondirish
Fan va ta'lim	Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi orqali ilmiy ishlanmalardan amaliy foydalanish imkoniyatini ta'minlash; olingan bilimlarni amalda sinab ko'rish asosida talabalarni o'qitish sifatini oshirish; mintaqaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash; bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash; qishloq xo'jaligi klasterlarini yaratish va ularning faoliyati sohasida ilmiy izlanishlar olib borish; innovatsiyalardan amaliy foydalanish uchun texnologiyalarni uzatish markazlarini yaratish
Qishloq xo'jaligini boshqaruvchi mahalliy organlar	Tashkilotlarni izlash, sherikchilik va integratsiyaga jalb qilish; yagona axborot bazasini yaratish; mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish; uyushma a'zolarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish; qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanishni ta'minlash; innovatsion va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish; klasterni rivojlantirish modeli g'oyasini ommalashtirish va targ'ib qilish

Klaster tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi subyektlarining innovativligi va samaradorligi ularning qo'llab-quvvatlovchi institutlar hamda taklif zanjiring boshqa aktorlari bilan aloqaga kirishganida ro'y beradi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, boshqaruv kompetensiyasi va ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli, qishloq xo'jaligidagi klasterlarning tabiiy ravishda rivojlanishi qiyindir. Bundan tashqari, fermerlarning nobarqaror umumiy moliyaviy ahvoli hamda tavakkal qilish yoki innovatsiyalarni jalb qilishdan saqlanishi, tashqi kuchlarning ta'sirisiz agrosanoat klasterlarini shakllantirish qiyinligini ko'rsatadi. Tashqi aktorlar sifatida esa hukumat, yirik mahalliy firmalar va xalqaro sarmoyadorlar (tashqi investitsiyalar) yoki ushbu uch turdagi subyektlarning yig'indisi bo'lgan tashqi agent ta'sir qilishi kerak⁴⁸.

⁴⁶ Christensen J., Rama R., von Tunzelmann N. Study on innovation in the European Food Products and Beverages industry. – Luxembourg: European Innovation Monitoring System, EIMS Publication, 35. European Commission, Directorate General XIII, 1996.

⁴⁷ Щукина Л. В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Экономика и управление народным хозяйством. – Москва, 2014. – С.4. (<https://cyberleninka.ru/article/n/agroklasteriy-kak-instrument-obespecheniya-ustoychivogo-innovatsionnogo-razvitiya-selskogo-hozyaystva-regiona>)

⁴⁸ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – P. 92.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster shaklidan foydalanish turli darajalarda namoyon bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklarga egadir (1.1.3-jadval). Agrosanoat klasterlari milliy darajada umuman qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining barqarorligi va innovatsionligini oshirishga xizmat qilsa, mintaqaviy darajada mintaqaning innovatsion salohiyati va raqobatdoshligini kuchaytirishda ishtirok etadi hamda ixtisoslashgan sohaning samaradorligini oshirib, tadbirkorlikning yangi yo'nalishlarini shakllanishiga maydon yaratadi.

Agrosanoat klasteri obyektiv, ya'ni ma'lum hududdagi agrosanoatning jadal rivojlanishi natijasida yoki subyektiv tarzda, davlat va mahalliy hokimiyatlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki jamoat tashkilotlarining maqsadli ta'siri asosida tashkil etilishi mumkin⁴⁹. Umuman olganda, agrosanoat klasterini shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, nafaqat qisqa, balki uzoq muddatli istiqbolda mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi.

Bu kabi klasterlar XXI asrda qishloq xo'jaligining globalizatsiya jarayonlariga moslashishi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar yaratish, yetkazib berish, qadoqlash innovatsiyalarini rivojlantirishga turtki beradi, chunki zamonaviy bosqichda qishloq xo'jaligiga mavjud yangicha talablarni qondirish uchun zamonaviy vositalar kerakdir.

Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ham klasterlarni agrobiznes va agrosanoatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalardan biri sifatida qaramoqda. Chunki, agroklastlar qishloq xo'jaligini va agrosanoatni rivojlantirish va barqarorlashtirish hamda agrobiznes, ayniqsa kichik va o'rta korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradigan muhitni yaratishning samarali usuli sifatida tan olinib, agro oziq-ovqat zanjiri ishtirokchilariga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarga katta foyda keltiradi hamda barqaror raqobatbardoshlik uchun siyosat, institutlar va xizmatlar olib boradigan qulay biznes muhitini yaratadi.

Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligidagi qiymat zanjiri qishloq xo'jaligi mahsulotini fermer xo'jaligidan pirovard foydalanishga va undan tashqariga yetkazish bo'yicha barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi va agrobiznes faoliyatining globallasuvi dunyo miqyosida standartlashtirish, konsentratsiya va muvofiqlashtirishga e'tiborni talab qiladi. Shu nuqtai

⁴⁹ Сижажева С., Мирзоева Ж., Кумышева М., Абанокова Э. Агропромышленные кластеры как условие инновационного развития однотипных региональных экономик // Региональная экономика. – УЭК, 2018. – №11. (<http://uecs.ru/uecs-117-112018/item/5186-2018-11-08-06-43-13>)

nazardan, mahalliy qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va klasterlar haqida gapirish, bir qarashda dolzarb emasdek ko‘rinsada, globallashuv kuchlari va raqobatning kuchayishi sababli global qiymat zanjirida raqobatlashish uchun agrobiznes tarmog‘ini mahalliy yoki ichki darajada qo‘llab-quvvatlash muhim sanaladi.

1.1.3-jadval.

Agro klasterlarning afzalliklari⁵⁰

Darajalar	Agroklasterning afzalliklari mazmuni
Milliy	– qishloq joylarining rivojlanish salohiyati va ularda faoliyat yurituvchi subyektlarning manfaatlarini hisobga olgan holda kompleks davlat agrar siyosatini shakllantirishda ishtirok etish – to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va innovatsion rivojlanishning o‘sishi, mamlakat qishloq xo‘jaligining barqarorligi va raqobatdoshligiga erishish uchun sharoit yaratish – raqobatdosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini qo‘shni va jahon bozorlariga eksportini oshirish – qishloq xo‘jaligining barqarorligi va innovativligini oshirish
Mintaqaviy	Klaster subyektlari hamda hududiy qishloq xo‘jaligining rivojlanishida muhim bo‘lgan davlat tuzilmalari o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish mintaqaviy va mintaqalararo iqtisodiyotni diversifikatsiyalashni kuchaytirish qishloq joylarida bandlikni oshirish, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan yangi ish o‘rinlarini yaratish mintaqaning innovatsion salohiyati va raqobatdoshligini kuchaytirish
Sohaviy	turdosh tarmoqlar korxonalari o‘rtasida yangi (yo‘qolgan) sherikchilik aloqalarini o‘rnatish bir xil tarmoq korxonalarini yangi darajadagi texnologiyalar bilan ta‘minlash orqali tashkilot darajasida hamda, umumiy sanoat miqyosida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishga yordam berish
Tadbirkorlik	qishloq xo‘jaligi korxonalarining ilmiy tadqiqotlar natijalariga va ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-amaliy markazlarning tavsiyalariga kirishini soddalashtirish axborot oqimini va axborot-logistika operatsiyalarini boshqarishning yagona markazini shakllantirish tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari va bog‘liqligi muammolarini tizimli hal etishda asos bo‘lish ishlab chiqarish omillariga kirishni kengaytirish va klaster ishtirokchilarining moliyaviy holatini yaxshilash ishchilar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ish haqi va turmush sifatini oshirishda muhim o‘rin tutish

Shunga ko‘ra, klaster globallashuvga mahalliy javob sifatida, qishloq xo‘jaligining raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan yondoshuvi sifatida ko‘riladi. Ammo Nogalesaning tadqiqotlariga ko‘ra, kam rivojlangan mintaqalarda agro-oziq-ovqat klasterlarini yaratish ancha qiyin bo‘lib, bu

⁵⁰ Щукина Л. В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Экономика и управление народным хозяйством. 2014. – С.3-4.

sektorda kichik ishlab chiqaruvchilar ustunlik qiladi va ular norasmiy tarzda tashkil etilib, tadqiqotlar va innovatsiyalardan yiroqda bo'ladi. Bu esa klasterlarni shakllantirishda zarur bo'lgan kritik massani hosil qilishda qiyinchilik yaratadi⁵¹.

Shunday qilib, aytish mumkinki, agrosanoat klasterlari ishtirokchilar va tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish shakli sifatida muayyan hududda qishloq xo'jaligi va sanoatni samarali rivojlantirish uchun qulay muhit, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun imkoniyat yaratadi va mintaqada iqtisodiy faollikni oshiradi. Agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishdan tortib, uni yig'ib olish, qayta ishlash, ishlov berish va tayyor mahsulot shaklida ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish amallarini bajaradilar. Bundan tashqari, klasterlarda nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki butun klasterni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan ilmiy markazlar va universitetlar ham faol ishtirok etib, agrosanoat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari va ishlanmalari amaliyotga keng joriy etiladi.

1.2-§. Iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning tashkiliy modellari

Bugungi kunda agrosanoat klasterlari agrobiznes va agrosanoatni rivojlantirish hamda rag'batlantirish uchun katta imkoniyatga ega bo'lib, agro oziq-ovqat zanjiri ishtirokchilariga, ayniqsa hududiy iqtisodiyot rivojiga katta foyda keltirib, barqaror raqobatbardoshlikka erishish, qulay biznes muhitini yaratishda muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Bu o'rinda esa, iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning vositalari, shart-sharoitlarini, klasterlarning tashkiliy modellarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Klasterli rivojlanish konsepsiyasi hududdagi korporativ strukturalar, investitsion, ilmiy, ta'limiy, jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Klasterli yondoshuvning mohiyati hududning iqtisodiy salohiyatidan maksimal darajada foydalanish va uni oshirish hisoblanib⁵², klasterlarning rivojlanishi xarajatlarning kamayishi va ishtirokchi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshishi, innovatsion

⁵¹ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – P.24.

⁵² Асаул Л. Строительный кластер – новая региональная производственная система [Электронный ресурс] // Экономика строительства. – Москва, 2004. – № 6. (<http://www.mbrk.ru>)

faoliyat uchun kapitalning shakllanishi hamda faoliyat olib borishning yangi sharoitlari vujudga kelishi bilan o'ziga xos sanaladi⁵³.

1.2.1-jadval

Klasterlarni shakllantirishning shart-sharoitlari va vositalari⁵⁴

Hududda iqtisodiy klasterlarni yaratish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar	Klasterlarni rivojlantirish vositalari
- o'z sanoat bazasida yirik masshtabdagi innovatsion loyihalarni amalga oshira oladigan yirik korxonalarning mavjudligi; - klasterning barcha ishtirokchilari innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun hududiy shart-sharoitlarning mavjudligi; - kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun innovatsion infratuzilmani yaratish va yirik kichik va o'rta biznes bilan hamkorligini ta'minlash; - innovatsion g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqish uchun fundamental ilmiy asosni ta'minlaydigan tadqiqot va ishlab chiqarish markazining mavjudligi; - klaster korxonalari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlaydigan universitet mavjudligi; - barcha klaster ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi uchun mavjud bo'lgan transport-logistika tizimini yaratish va foydalanish imkoniyati; - mintaqaviy agrar va innovatsiya siyosati doirasida hududdagi korxonalar o'rtasida savdo munosabatlari an'analari va o'zaro hamkorlik tajribasining borligi; - klaster korxonalarining innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabini oshirish, shuningdek hududda va undan tashqarida innovatsion mahsulotlarni sotishni rag'batlantirish bo'yicha hududiy innovatsion siyosat; - mavjud va potentsial klasterlarni mintqa iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlaydigan yagona tizimga birlashtirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish	klasterlarni yaratish uchun klasterlarni rivojlantirish vositalarini shakllantirish; qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani yaratish; klasterlarni rivojlantirish monitoring, metodologiyasini ishlab chiqish va klasterdagi korxonalarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish tizimini belgilash; tarmoqlarni rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni uzatish uchun yordam; ixtisoslashgan korxonalarni shakllantirishga ko'maklashish; innovatsion xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini shakllantirish; brendingni rivojlantirish; korxonalarni texnologik qayta jihozlashga ko'maklashish; mintaqalararo va xalqaro innovatsiyalar almashuvini rivojlantirish; markazlashtirilgan investitsiyalarni jalb qilishni tashkil etish va innovatsion loyihalarni subsidiyalash


Klaster doirasida foyda barcha aloqa yo'nalishlari bo'ylab tarqalishi tufayli boshqa tarmoqlardan kelgan yangi ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatini tezlashtiradi, rivojlanadi hamda yangi strategiyalar qo'llagan holda ilmiy-innovatsion rivojlanish-ga o'z xissasini qo'shadi, erkin ma'lumot almashish yo'lga qo'yilib, yangiliklarni aloqa kanallari bo'ylab

⁵³Шапф А. Кластерная политика как элемент инновационной экономики // Экономика и менеджмент инновационных технологий. – Москва, 2015. – № 1. (<http://ekonomika.snauka.ru/2015/01/7226>)

⁵⁴Четырбок Н. Кластерная политика как метод активизации инновационных процессов в регионах // Белорус. ин-т систем. анализа и информ. обеспечения научной сферы. – — Мн.: ГУ «БелИСА», 2005. (Режим доступа: http://www.belisa.org.by/ru/izd/other/Gr2005/r33_gr2005.html asosida muallif tomonidan shakllantirildi)

tarqalishi tezlashadi. Natijada esa klaster ichidagi o‘zaro raqobat kuchayib, inson kapitali hamda g‘oyalar yangi ko‘rinishlarni oladi⁵⁵.

Iqtisodiy klasterning uzoq muddatli muvaffaqiyati klaster siyosatini ishlab chiquvchilar hamda tashkilotchilarning klasterda tajribalar olib borish uchun shart-sharoit yaratishiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, klasterlarni shakllantirishdan avval hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani yaratish, ta‘lim, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va asosiysi klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, dasturini ishlab chiqish lozim. Bu kabi tadbirlarning barchasi esa iqtisodiy klasterlarni shakllantirish sxemasidan o‘rin oladi.




1.2.1-rasm. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirish sxemasi⁵⁶

⁵⁵Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления. – Киев, 2003. – № 5. (http://www.subcontract.ru/docum/documshow_documid_168.html)

⁵⁶ Бородин М.А. Формирование экономических кластеров в регионе // Вестник Пермского университета. – Пермь, 2010. – №2 (5). – С.41. asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Agrosanoat klasterlari masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, odatda agrosanoat klasterlari hukumat tashabbusi yoki to'g'ridan-to'g'ri yordami orqali tashkil etiladi⁵⁷. Agrosanoat klasterlarida bilimlarni raqobatga o'tkazish uchun ikkita muhim kanal mavjud bo'lib, ularga yordamchi sanoat tashkil etgan ko'pmillatli kompaniyalar va chakana savdo tarmog'idagi talab kiradi⁵⁸. Ko'pmillatli kompaniyalar, huddi talab va yordamchi sanoat singari, innovatsion harakatlantiruvchi kuch sifatida muhim rol o'ynaydi.



1.2.2-rasm. Agrosanoat klasterlarini shakllantirish bosqichlari⁵⁹

Klasterlarni shakllantirishning jahon tajribasini o'rganib, agrosanoat klasterini yaratish jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin: 1. Dastlabki bosqich; 2. Asosiy bosqich; 3. Yakuniy bosqich. Birinchi bosqichda yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni, ikkinchi bosqichda agrokorxonalar va fermer xo'jaliklarini, yakuniy bosqichda esa qayta ishlash sanoatini tashkil qilish va chakana savdoni rivojlantirish amalga oshiriladi. Shuningdek, oxirgi bosqichda klasterning faoliyati hududning agrosanoat majmuasining iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Ushbu natijalarga ko'ra klasterni rivojlantirish dasturiga tuzatishlar, zarur o'zgartirishlar kiritiladi. Umuman olganda, agrosanoat sohasini klasterlashtirish mexanizmi quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi⁶⁰:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish darajasini aniqlash asosida agrosanoat klasterining resurs sektorini tanlash;


⁵⁷ Горетов И.Н. Финансовый механизм управления региональными птицеводческими кластерами: автореф. дис. ... докт.экон.наук: 08.00.05, 08.00.10. Горетов Игорь Николаевич. Йошкар-Ола, 2010. – 44 с.

⁵⁸ Pérez-Mesa J.C., Galdeano-Gómez E. Agrifood cluster and transfer of technology in the the Spanish vegetables exporting sector: the role of multinational enterprises // Agric. Econ. – czEch, 2010. – 56, (10). – P. 486

⁵⁹ Сижажева С., Мирзоева Ж., Кумышева М., Абанокова Э. Агропромышленные кластеры как условие инновационного развития однотипных региональных экономик // Региональная экономика. – УЭК, 2018. – №11. (<http://uecs.ru/uecs-117-112018/item/5186-2018-11-08-06-43-13>)

⁶⁰ Ч. Муродов. Перспективы развития агрокластеров в Узбекистане. – Ташкент: ИМПИ., 2014. – С.5. <http://ifc.uz/upload/iblock/2e5/2e57b3324b4aa6094652ec6f78094640.pdf>

- matritsali tahlil yordamida klasterning asosiy sektorini tanlash;
- iqtisodiy sektorning raqobatbardoshligini hisoblash asosida klaster ixtisoslashuvini asoslash;
- agrosanoat klasteri modelini shakllantirish va biznes jarayonlarini boshqarish metodologiyasi asosida uning ishlash mexanizmini ishlab chiqish.




1.2.3-rasm. Hududiy agroklasterni tashkil etish sxemasi⁶¹

Umuman olganda, klaster a'zolari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa xususiyatlariga ko'ra klasterlarning 4 ta modeli ajratib ko'rsatish mumkindir:

Marshall klaster modeli – kichik firmalar raqobatlashadi, o'zaro oldi-sotdi jarayonini olib boradi, hech qaysi firma bozorga ta'sir qila oladigan darajada katta hajmga ega emas, umumiy bozor va klaster dinamikasi uning shakli va rivojlanishini belgilaydi.

Hub and spoke (radial, yulduzsimon, yelpig'ichsimon) – klaster yadrosini bir nechta dominant firmalar tashkil etadi, ular klaster doirasidagi aloqalar va uning dinamikasini belgilab beradi. Yirik firmalar asosan xom-ashyo yekazib beruvchilar, tashqi maxsus xizmatlarni bajaruvchilar kabi korxonalar bo'ladi. Kichik firmalar yirik firmalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqadi ammo ularning xaridorlar strategiyasiga bog'liq bo'ladi.

⁶¹ Ковалева И. Инвестиционная привлекательность молочнопродуктового подкомплекса АПК (теория, методология, практика) : диссертация ... доктора экономических наук : 08.00.05 / Ковалева Ирина Валериевна; – Москва, 2008. – С.37



1.2.4-rasm. Klaster modellari⁶²

Satellite platform cluster model (yo'ldosh platformali klaster modeli) – hududdagi hukumat imtiyozlari, past narxlar yoki arzon ishchi kuchidan foydalanish uchun tashqarida joylashgan ko'p tarmoqli firmalar faoliyatining bir qismi mazkur hududda joylashtiriladi. Bu modelning o'ziga xos xususiyati shundaki, yo'ldosh firmalar o'rtasida hech qanday aloqa yo'q va ular butunlay masofadan turib, ona firma tomonidan boshqariladi.

Hukumat tomonidan boshqariladigan model – hub&spoke modeliga o'xshab ketadi, ammo klaster markazida jamoat, hukumat tashkiloti yoki NNT turishi mumkin. Bunda kichik va o'rta biznes vakillari davlat-xususiy sherikchiligidan foyda ko'radi.


Klasterlarning determinantlariga ko'ra esa, ularni 5 modelga bo'lish mumkin⁶³:

⁶² Catalin B. Clusters Models, Factors and Characteristics // International Journal of Economic Practices and Theories. – Vol.1, No.1, 2011. – P.36-37.

⁶³ O'sha manba.

- **“Triple-Helix” (uch spiral) modeli** – ta’lim va tadqiqot, biznes muhiti, hukumat va davlat boshqaruvi o’rtasidagi aloqa bo’lib, buning asosida fan-ishlab chiqarish-davlat o’rtasidagi munosabatlar rivojlanadi⁶⁴.

- **Klaster tashabbusini amalga oshirish modeli** (The Cluster Initiative Performance Model (CIPM)) – klaster tashabbuslari ishlab chiqishda e’tiborga qaratilishi lozim bo’lgan omillarni o’z ichiga oladi hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muhit, tashabbuslarni rivojlantirish maqsadlari, klasterni rivojlantirish jarayonlarining xususiyatlarini qamrab oladi⁶⁵.



1.2.5- Porterning “raqobatbardoshlik rombi”⁶⁶

- **Porterning raqobatbardoshlik rombi** – strategiya va raqobat, talab va bozor holati, turdosh va qo’llab-quvvatlovchi tarmoqlar, tashqi omillarning o’zaro aloqasiga asoslanuvchi model⁶⁷.

- **Klaster omillari modeli** – klasterni rivojlanishida muhim bo’lgan omillar: ta’lim va tadqiqot, media, biznes muhiti, davlat va jamoat tuzilmalari, moliyaviy tizim, qo’llab-quvvatlovchi va hamkorlik qiluvchi tashkilotlar (NNT)larni ko‘rib chiqadi⁶⁸.


⁶⁴ Etzkowitz H. The Triple Helix of University-Industry-Government: Implications for Policy and Evaluation. Working Paper. – Stockholm: Science Policy Institute, 2002. – P.2.

⁶⁵ Sölvell Ö., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative Greenbook. – Stockholm: “Ivory Tower”, 2003. – P.25.

⁶⁶ Tsiligiris V. An adapted Porter Diamond Model for the evaluation of transnational education host countries // International Journal of Educational Management. – Bingley: “Emerald Publishing Limited”, 2018. – P.4

⁶⁷ Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. // Harvard Business Review. – Boston, MA, 1990. – March/April. – P.78.

⁶⁸ Sölvell Ö. Clusters, Balancing Evolutionary and Constructive Forces. – Stockholm: “Ivory Tower Publishers”, 2008.



1.2.6-rasm. Marshallning sanoatni mahalliyashtirishning tashqi iqtisodiyot uchligi⁶⁹

• **Klaster determinantlarining voronka modeli** – klasterlar barcha iqtisodiy bosqichlarda ta'sirga uchraydi: mahalliy darajada hududiy va mikroiqtisodiy rivojlanish siyosati (Porterning raqobatbardoshlik rombi asosan mikroiqtisodiy darajaga xos); makroiqtisodiy darajada global va milliy iqtisodiy muhit; firma darajasida esa, klaster doirasidagi iqtisodiy aloqalar klaster faoliyatiga ta'sir o'tkazadi⁷⁰.

Shuningdek, mahalliy aglomeratsiyalar va klaster tizimlarining tashkiliy modellaridan A.Marshall, M.Enrayt, Ö.Sölvell (Klaster omillari modeli), E.Fezer, .Ketels, J.Lindkvistlarning modellari mavjud bo'lib, ular klaster a'zolari va ular o'rtasidagi hamkorlik xususiyatlarini tadqiq etadi.


Marshall ixtisoslashtirilgan faoliyatning mahalliy kontsentratsiyasini tashqi iqtisodiyotning oddiy uchligi: malakali ishchi kuchining mavjudligi, qo'llab-quvvatlovchi va yordamchi tarmoqlarning o'sishi hamda ishlab chiqarishning turli bosqichlarida va sohalarida turli firmalarning ixtisoslashuvi nuqtai nazaridan tavsiflab, uning fikricha mahalliy ixtisoslashgan sanoat kontsentratsiyasi jarayoni boshlangandan so'ng, u

⁶⁹ Marshall A. Principles of Economics. – London: "Palgrave Macmillan UK", 1890. – 731 p.

⁷⁰ Catalin B. Clusters Models, Factors and Characteristics // International Journal of Economic Practices and Theories. – Vol.1, No.1, 2011. – P.40

kumulyativ (to‘planuvchi) xususiyatga ega bo‘ladi va ma’lum bir joyda ijtimoiylashadi⁷¹.

M.Enrayt biznes va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni harakatlantirishda klasterlar mezo darajada muhim rol o‘ynab, mintaqaviy klasterlarga bo‘lgan qiziqish asosan ularning iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlariga qaratilganini ta’kidlaydi va shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchlarni 5 daraja: firma, tarmoq, klaster, regional/milliy hamda global darajadagi kuchlarga bo‘ladi⁷².




1.2.7-rasm. O.Sölvellning klaster modeli⁷³

O.Sölvellning klaster modelida klaster saanoat, davlat organlari, universitet, hamkorlik tashkilotlari, media hamda moliyaviy sektordan iborat hisoblanadi. U klasterning rivojini formal va noformal institutlar, mahalliy hokimiyatning siyosati, ilmiy-tadqiqot va moliyaviy xizmatlarning rivojlanganligi bilan bog‘laydi.

⁷¹ Martin R., Sunley P. Deconstructing Clusters: Chaotic Concept or Policy Panacea? // Journal of Economic Geography. – Oxford: “Oxford university press”, 2003. – Vol. 3. – P. 6.

⁷² Ricart J., Enright M., Ghemawat P., Hart S., Khanna T. New Frontiers in International Strategy // Journal of International Business Studies. – Heidelberg: “Palgrave”, 2004. 35. – P. 191.

⁷³ Суханова П. Модели эффективных кластеров в условиях становления экономики инновационного типа: обзор зарубежных и отечественных подходов // ARS ADMINISTRANDI. –Пермь, 2016. – №3. – С.18



1.2.8-rasm. E.Fezerning klaster modeli⁷⁴

E.Fezerning tadqiqotiga ko'ra, klaster talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllanadi va u mahsulotlar, xizmatlar, resurslar (inson resurslari, ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa) ta'minotchisi hisoblanadi⁷⁵. Olim klasterning modelini shakllantirishda atrof-muhit texnologiyalari klasterini misol qilib olib, uni shakllantirish va rivojlantirish shart-sharoitlarini ko'rsatgan. Klasterda "talabni" shakllantirishning muhim elementi sifatida ta'lim va sanoatning aloqadorligi, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning transferti va tijoratlashuvi jarayoni hisoblanadi⁷⁶.


K.Ketels va J.Lindkvistning tadqiqotlariga ko'ra esa, klasterning markazi mavjud bo'lib, ushbu markazda ishlab chiqarish korxonasi, uning atrofida esa, to'rtta muhim aloqador subyektlar bo'lishi kerak. Ular ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari, kapital manbalari va jamoat tashkilotlari bo'lib, olimlarning fikricha mazkur subyektlar o'rtasidagi hamkorlik klaster muvaffaqiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Ular shuningdek, klasterlarning integratsion jarayonlariga alohida e'tibor qaratib,

⁷⁴ Суханова П. Модели эффективных кластеров в условиях становления экономики инновационного типа: обзор зарубежных и отечественных подходов // ARS ADMINISTRANDI. –Пермь, 2016. – №3. – С.19

⁷⁵ Feser E., Steiner M. (ed.). Old and new theories of industry clusters. In Clusters and Regional Specialisation. –London: "Pion", 1998. –P.18-40

⁷⁶ Абдувалиев А.А. Кластер – миллий иқтисодиётнинг инновацион ривожланишидаги ўрни ва roli. Рисола. –Т.: "Lesson Press", 2017 й. – Б. 29

klasterlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini ham alohida ko‘rib chiqqan⁷⁷.



1.2.9-rasm. K.Ketels va J.Lindkvistning tadqiqotlariga ko‘ra klaster ishtirokchilari⁷⁸


Ta’kidlash kerakki, klaster ishtirokchilari o‘rtasida kuchli kooperatsiya yo‘lga qo‘yilib, ularning samarali hamkorligi samarali klaster faoliyatini shakllantiradi. Klasterlaning rivojlanishi uchun mahalliy hukumat, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, kompaniyalar, huquqiy-normativ baza, ijtimoiy kapital, ITTKI, transport-aloqa sohasi, banklar, NNTlar va boshqa ko‘plab tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi muhimdir. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga asoslangan klasterlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, klasterni rivojlantirish siyosati zarur bo‘lib, bunda hukumat, mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiy institutlar rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

1.2.10-rasmda agrosanoat majmuini rivojlantirishning klaster modeli keltirilgan bo‘lib, undan ko‘rishimiz mumkinki, agrosanoat klasterlari oziq-ovqat tizimlarining raqobatbardoshligi, hududning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, agrosanoat tarmog‘ini klasterlashtirish siyosati klasterni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ya’ni agrosanoat klasterini tashkil etish hududning klaster salohiyatini rivojlantirish orqali pirovard natijada hududiy oziq-ovqat xavfsizligini

⁷⁷ Ketels C., Lindqvist G., Sölvell Ö. Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe: The Role of Cluster Organization. – Stockholm: The Cluster Observatory, 2012. – P 31.

⁷⁸ O‘sha manba.

ta'minlash, qishloq hududlarining rivojlanishi, bandlik, sanoatlashuv va eksportning ortishi, soliq bazasining kengayishiga olib keladi.



1.2.10-rasm. Agrosanoat majmuini rivojlantirishning klaster modeli⁷⁹

Umuman olganda aytish mumkinki, klasterlarning iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalaridan kelib chiqqan holda turli xil tashkiliy modellari ko'p bo'lib, klaster nazariyasining va modellarining xilma-xilligi bundan oldingi faslda ta'kidlanganidek, uni amaliyotga tatbiq etilishiga yagona yondashuvning, universal modelning yo'qligidan dalolat beradi. Klasterlarni shakllantirish jarayoni uzoq muddatni, kuchni, tashabbusni, ichki imkoniyatlarni hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli, agroklasterni yoki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida klasterlarni shakllantirishda mamlakatning ichki imkoniyatlarini hisobga olish, klasterlarni tuzishning tashkiliy modellarini, milliy modellarini chuqur o'rganish muhim sanaladi.

⁷⁹ Ч. Муродов. Перспективы развития агрокластеров в Узбекистане. – Ташкент: ИМПИ., 2014. – С.5. <http://ifc.uz/upload/iblock/2e5/2e57b3324b4aa6094652ec6f78094640.pdf>

1.3-§. Iqtisodiy klasterlar faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tahlili

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda iqtisodiy klasterlar muhim instrumentlardan biriga aylangandir. Ayniqsa, mamlakatlarning agrar sohadagi imkoniyatlarini yanada samarali tashkil etish va rivojlantirishda agrosanoat klasterlaridan keng foydalanilmoqda. Shu o‘rinda mazkur yo‘nalishdagi klaster siyosatini baholash, klasterlarning iqtisodiy samaradorligini, faoliyatini natijalarini tahlil qilish dolzarb bo‘lib, bu kabi tahlillar klasterlar faoliyatini ko‘rib chiqish va iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholashga imkon yaratadi.

Agrosanoat klasterlari faoliyatini tahlil qilish 3 bosqichdan iborat bo‘lib, tadbirlar avvalo, klasterlar faoliyatini tahlil qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish, so‘ngra agrosanoat majmuining klasterizatsiya koeffitsientini hisoblash hamda natijada klasterning faoliyat yo‘nalishini aniqlash kabilarni o‘z ichiga oladi⁸⁰. Ammo, agrosanoat klasterlari faoliyatini tahlil qilish, ularning milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rnini baholashda avvalo klaster siyosatini baholash lozimdir. Bu klasterning to‘g‘ri faoliyat olib borishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va sharoitlarni baholash imkonini beradi.


Klaster siyosati deganda mintaqada klasterlarni shakllantirish, rivojlantirish va umuman faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Klaster siyosati milliy, mintaqaviy darajada olib boriladi va uning samaradorligini baholash bir nechta masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Klaster siyosatini baholash tor ma’noda ma’lum me’zonlarga muvofiq klasterlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat choralarini baholashni anglatadi, keng ma’noda klaster siyosatini tahlil qilish deganda siyosatni ishlab chiqish, rivojlantirish bosqichidan to boshqarish bosqichigacha bo‘lgan barcha sikl, har xil baholash turlarini o‘z ichiga olgan doimiy va izchil jarayon tushuniladi⁸¹.

Klaster siyosatini baholash bo‘yicha bir necha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi O.Sölvell klaster siyosatini baholash deganda siyosat, dasturlar, loyihalar yoki boshqa obyektlarni konseptuallashtirish, ishlab chiqish va

⁸⁰ Andriushchenko K., Kovtun V., Shergina L., Rozhko O., Yefimenko L. Agro-based Clusters: A Tool for Effective Management of Regional Development in the ERA of Globalisation // TEM Journal, 2020. – № 9. – P.200

⁸¹ Оборина Е.Д. Зарубежный подход к оценке эффективности кластерной политики// Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. – 2016. – № 4(48). – С. 615-622. (<https://eee-region.ru/article/4851/>)

amalga oshirishni tahlil qiluvchi har xil turdagi tadqiqot jarayonlarini muntazam ravishda qo'llash jarayonini ta'kidlaydi⁸².



1.3.1-rasm. Klaster dasturlarini amalga oshirish samaradorligini baholash bosqichlari⁸³

Klaster dasturlarini amalga oshirish samaradorligini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – rejalashtirish bosqichi bo'lib, unda baholashning maqsadi, obyekti, baholashni amalga oshirish vaqti, baholash kim tomonidan amalga oshirilishi, baholash xarajatlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqich esa baholashni amalga oshirish bosqichi bo'lib, bunda baholash tadbirlari o'tkaziladi, hamda tahliliy xulosalar chiqariladi.

Klasterlarning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mintaqadagi klaster tashabbuslari kampaniyalariga tayanadi. Klaster tashabbusi deganda klasterlarni rivojlantirish bo'yicha uyushgan sa'y-harakatlar tushunilib, ushbu harakatlar tashabbus jarayoniga qarab organik yoki rejalashtirilgan bo'lishi mumkin. Organik klasterlarni davlat idoralari, mahalliy hokimiyatlar qo'llab-quvvatlasa, rejalashtirilganlarni tijorat hamkorligi orqali o'z raqobatdoshligini oshirish uchun mintaqada birlashgan xususiy firmalar tashkil etadi. Klaster tashabbuslarining asosiy maqsadlari inson resurslarini takomillashtirish, klasterni kengaytirish, ishtirokchilar sonini ko'paytirish, biznesni rivojlantirish, tijorat hamkorligini qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhiti, biznes uchun sharoitlarni yaxshilash sanaladi. Bu kabi tashabbuslar esa albatta mamlakatning klaster siyosatiga asoslanadi. M.Enrayt klaster siyosatining 4 xil shaklini tasniflaydi⁸⁴:

- katalitik (davlat faqatgina manfaatdor tomonlarni birlashtiradi va ularga minimal yordam ko'rsatadi);
- qo'llab-quvvatlovchi (katalitik shakl klasterlarning shakllanishini ta'minlovchi infratuzilmaga investitsiya, ta'lim, kasbiy ta'lim kabilar bilan boyitiladi);
- direktiv (mahalliy iqtisodiy tuzilmani o'zgartirish uchun klaster dasturidan foydalangan holda qo'llab-quvvatlovchi siyosat yoki umummilliy maqsadli dasturlarning mavjudligi);

⁸² Sölvell Ö. Clusters, Balancing Evolutionary and Constructive Forces. – Stockholm: "Ivory Tower Publishers", 2008. – 137 p.

⁸³ <https://www.innovationpolicyplatform.org/www.innovationpolicyplatform.org/content/cluster-policies/index.html> asosida muallif tomonidan shakllantirildi

⁸⁴ Enright M., Hung S., Prof. Kai. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper. – Hong Kong: University of Hong Kong, 2000. –P. 15. (http://www.paca-online.org/cop/docs/Michael_Enright_Survey_on_the_characterization_of_regional_clusters.pdf)

– intervension (subsidiyalar, takomillashtiruvchi, himoyalovchi va tartibga soluvchi vositalarni faol qo‘llash, klaster a‘zolari faoliyatini qisman nazorat qilish).

1.3.1-jadval

Firmalar va davlat idoralariga klasterlarni yaratishdan keladigan afzalliklar⁸⁵

Firmalar uchun klasterlarning afzalliklari	Davlat uchun klasterlarni yaratish afzalliklari
sanoatga oson kirish; masshtab effekti hisobiga xarajatlarni kamaytirish; umumiy muammolarni hal qilishda vakolatlarni o‘zaro bo‘lishish imkoniyati; innovatsion faoliyatni faollashtirish, ishlab chiquvchilar bilan yaqin aloqada bo‘lgan ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish; g‘oyaning paydo bo‘lishidan amaliy qo‘llanilishigacha bo‘lgan minimal vaqt; ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni optimallashtirish; iqtisodiy mustaqillikni saqlash; operatsion risklarni minimallashtirish imkoniyati; innovatsion, axborot, kadr va boshqa resurslarni almashish imkoniyati	mintaqaviy iqtisodiyotidagi muammolarni aniqlash; statistika va analitik axborotdan foydalanish; davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini yaratish; hududdagi raqobat muhitiga klasterning ijobiy ta’siri orqali multiplikativ ta’sir samaradorligini kuchaytirish; real ishlab chiqarishda ilm-fan va ta’lim sohasidagi yutuqlarni amalga oshirish; hududning jahon iqtisodiy tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyasi; hududning o‘z chegaralaridan tashqaridagi iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash; hududda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirish; klaster atrofidagi firmalarning soni ortishi; bandlik, ish haqi, turli darajadagi byudjetlarga to‘lovlarning ortishi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini tenglashtirish siyosatiga o‘tish uchun iqtisodiy shartlar yaratish; raqobat ustunliklariga ega tarmoqlarni aniqlash; boshqa mustaqil klasterlar yaralishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Klaster siyosatini tahlil qilishda, klasterning faoliyati bilan bog‘liq qo‘shimcha bir nechta masalalar ham ko‘rib chiqiladi: 1. Klasterni tashkil etish va boshqarish tizimining samaradorligini bildiruvchi ko‘rsatkichlar – tizimning intensivligi va samaradorligi, klasterda ishtirok etish darajasi, klaster ishtirokchilarining maqsadlari, boshqaruv apparatining byudjeti va boshqaruv xodimlarining soni, klasterning institutsionallashtirish darajasi, klasterning maqsadi kabilarni o‘z ichiga oladi; 2. Klaster faoliyatining natijalari – ITTKI bilan mashg‘ul bo‘lgan ishtirokchilar soni, ITTKIga

⁸⁵ Ахматова Л.С., Алиев Ш.Х. Кластерный подход в развитии региональной экономики // Фундаментальные исследования. – Москва, 2013. – № 11. – С. 196-199 (URL: <https://www.fundamental-research.ru/ru/article/view?id=30926> (дата обращения: 05.02.2017)) asosida muallif tomonidan shakllantirildi

sarflangan xarajatlar hajmi, tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasi, xalqaro tadqiqotlar ulushi, klaster doirasidagi OTMlar soni va ularning klasterdagi ishtiroki, oxirgi 3 yilda yangi tovarlar yoki xizmatlar joriy etgan kompaniyalar soni, xorijiy investitsiyalar hajmi, eksportga yo‘nalganlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Klaster siyosatining samardorligini tahlil qilishda, shuningdek, moliyaviy hisobot usullari, keys-stadi, ekonometrik, iqtisodiy metodlar hamda tizimli yondoshuv kabi usullarni ham qo‘llash mumkindir⁸⁶.

Klasterlar ko‘rinishidagi mintaqadagi aglomeratsiyalarni tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik va bandlikni ta‘minlashdagi o‘rnini aniqlashda turli xil indekslaridan foydalaniladi⁸⁷. Sanoat birlashmalarini taqqoslashda asosan Joylashuv ko‘effitsienti (Location Quotient, LQ)dan, hududlar o‘rtasidagi ixtisoslashuvni taqqoslashda esa Krugman Indeksidan foydalaniladi⁸⁸. Quyida LQ indeksini aniqlash formulasi berilgan bo‘lib,

$$LQ_a = \frac{X_{ar} / X_r}{E_a / E} \quad (1)$$

Bunda:

X_{ar} – r mintaqadagi a sektordagi bandlik

X_r – r mintaqadagi umumiy bandlik

E_a – milliy iqtisodiyotda a sektordagi bandlik

E – mamlakatdagi umumiy bandlik.

LQ bu katta geografik birlikka (odatda mamlakatga) nisbatan mintaqaning sanoat ixtisoslashuvini o‘lchaydigan tahliliy statistik birlik sanaladi⁸⁹. Joylashuv ko‘effitsienti 1 ga teng bo‘lsa ($LQ=1$), bu sektorda bandlik milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda bir xil darajada ekanligini anglatadi (ushbu sektor asosiy emas va taklif talabga teng). Agar $LQ < 1$ bo‘lsa, ishlab chiqarish mahalliy talabni qondirish uchun yetarli emas va import qilish zarurati bo‘ladi (bu sektor ham asosiy emas). Agar $LQ > 1$ bo‘lsa, ishlab chiqarish mahalliy talabni qondirish uchun yetarli bo‘lib, ortiqcha mahsulotni eksport qilish mumkin bo‘ladi (bu asosiy sektor va ixtisoslashuvni kuchaytirish mumkindir)⁹⁰.

Quyidagi rasmda (1.3.2-rasm) AQSh shtatlarining mahalliy oziq-ovqat va ichimlik ishlab chiqarish va yetkazib berish klasteriga ixtisoslashuvi ko‘rsatilgan bo‘lib, undan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatdagi shu

⁸⁶ Schmiedeberg C. Evaluation of cluster policy: a methodological overview // Evaluation, 2010. – № 16(4). – P. 389-412. (<https://danube-inco.net/object/document/10551/attach/Evaluation-2010-Schmiedeberg-389-412.pdf>)


⁸⁷ M.Yu, J. Calzadilla, J.L.Lopez, A.Villa. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. Vol.4, No.9B, 2013.–P.33-39. <http://dx.doi.org/10.4236/as.2013.49B006>

⁸⁸ Combes P., Mayer T., Thissie, J. Economic geography, the integration of Regions and Nations. – Princeton: Princeton University Press, 2008. – 399 p.

⁸⁹ <https://www.bea.gov/help/faq/478> (The U.S. Bureau of Economic Analysis)

⁹⁰ https://www.economicmodeling.com/wp-content/uploads/2007/10/emsi_understandinglq.pdf

sektordagi oʻrtacha LQ 0.98 ga teng. Eng yuqori koʻrsatkichlar esa Vermont (1.66), Nyu Gempshir (1.43) hamda Men (1.32) shtatlariga tegishlidir.



1.3.2-rasm. AQSh shtatlarining mahalliy oziq-ovqat va ichimlik ishlab chiqarish va yetkazib berish klasteriga ixtisoslashuvi⁹¹

Krugman indeksidan foydalangan holda mintaqaviy ixtisoslashuvni oʻlchash uchun umumiy ifoda 2-formulada berilgan boʻlib, bunda A va B hududlar taqqoslanadi⁹²:

$$KI_{AB} = 1 / 2 \sum_i |(X_{iA} / X_A) - (X_{iB} / X_B)| \quad (2)$$

Bunda:

X_{tA} – A hududdagi t sanoatning ishlab chiqarish hajmi

X_A – hududning umumiy ishlab chiqarish hajmiKrugman ixtisoslashuv indeksi mintaqaviy ixtisoslashuvni aniqlovchi nisbiy oʻlchov boʻlib, 1991-yilda Krugman tomonidan taklif etilgan. Mazkur indeks taqqoslanayotgan ikki hudud (mamlakat-mamlakat, mamlakat-mamlakatlar guruhi) sanoat tuzilmalari oʻrtasidagi farqni aniqlashda ishlatiladi. Agar indeks 0 ga teng boʻlsa, ikki hudud bir xil sanoat tuzilmasiga ega boʻladi. Indeksning maksimal qiymati 2 boʻlib, bunda taqqoslanayotgan hududlar umuman ikki xil sanoat tarmoqlariga ega boʻladi⁹³.

Yuqoridagi indekslar esa klasterizatsiya salohiyatini aniqlashga xizmat qilib, qishloq xoʻjaligidagi klasterlashtirish koeffitsientini aniqlashda hududiy koʻrsatkichlardan yetishtirish, ishlab chiqarish, qayta ishlash

⁹¹ https://www.clustermapping.us/cluster/local_food_and_beverage_processing_and_distribution

⁹² Davis H. Regional impact analysis and project evaluation. – Vancouver: UBC Press, 1990. – Chapter 2. – 192 p.

⁹³ Wandel C. Industry Agglomerations and Regional Development in Hungary: Economic Processes During European Integration. Peter Lang, 2010. –P.174

hamda aholi soni qo‘llaniladi⁹⁴. Klasterizatsiya koeffitsienti esa quyidagicha hisoblanadi⁹⁵:

$$Kk = IChK * IK * QISRK * AjbICHK$$

Bunda:

Kk – klasterizatsiya koeffitsienti;

IChK – ishlab chiqarish koeffitsienti bo‘lib, mintaqadagi ishlab chiqarish hajmining mamlakatdagi o‘rtacha ishlab chiqarish hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi;

IK – ixtisoslashuv koeffitsienti;

QISRK – qayta ishlash sanoati rivojlanganlik koeffitsienti sanalib, hududdagi ma‘lum turdagi mahsulotni qayta ishlash quvvatining hududdagi mavjud umumiy qayta ishlash quvvatining nisbati sifatida hisoblab chiqiladi;

AjbICHK – aholi jon boshiga ishlab chiqarish koeffitsienti bo‘lib, hududiy sanoat tarmog‘ining mamlakatning shu tarmoq sanoatiga solishtirma og‘irligi nisbatining, hudud aholisining mamlakat aholisiga solishtirma vazniga nisbati bilan hisoblanadi.

Shuningdek, klasterlar faoliyatini tahlil qilishda sanoat aglomeratsiyalarini o‘lchashning diskret indeksleri (Ellison va Glaeser (1997), Maurel va Sedillot (1999), Rysman va Greenstein (2005), Mori, Nishikimi, va Smit (2005)), davomiy indeksleri (Duranton and Overman (2005), Marcon and Puech (2003), Guillain va Le Gallo (2007)) ham mavjud bo‘lib, ular firma yoki sanoatning joylashishi uchun optimal hududni tanlash masalalarini qamrab oladi⁹⁶.

Bu o‘rinda esa klasterlarning iqtisodiy aglomeratsiyaning boshqa turlaridan farqini aniqlash muhimligini ta’kidlash darkor. Xususan, klaster va texnoparklar, innovatsion markazlar, innopolis kabilar o‘rtasida qanday farq mavjud bor degan savol tug‘iladi. UNESCOning bergan ma’lumotiga ko‘ra “jahondagi birinchi texnologik park bundan 50 yil avval Stenford Universitetida tashkil etilib, natijada bugungi kundagi “Kremniy vodiysi” klasteri vujudga kelgan⁹⁷”.

UNESCOning ta’rifiga ko‘ra “Ilmiy va texnologik park” atamasi har qanday yuqori texnologiyali klasteri nazarda tutadi, ammo ularning

⁹⁴ Hasanov et al. An establishment of agroclusters as a key for the development of agro-processing industry in Uzbekistan // ReCCA-Conference 2014. – Leibnitz: Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO), 2004. – P 3. (<http://EconPapers.repec.org/RePEc:ags:iamc14:212556>)

⁹⁵ Муродов Ч. Перспективы развития агрокластеров в Узбекистане. – Ташкент: ИМПИ., 2014. – С.8. <http://ifc.uz/upload/iblock/2e5/2e57b3324b4aa6094652ec6f78094640.pdf>

⁹⁶ Kominers S. Measuring agglomeration. 2007 – P. 2-9. (http://www.scottkom.com/articles/measure_agglomeration.pdf)

⁹⁷ <http://www.unesco.org/new/en/natural-sciences/science-technology/university-industry-partnerships/science-and-technology-park-governance/concept-and-definition/>

o'rtasida ba'zi farqlar borligi ham ta'kidlanadi⁹⁸. Shuningdek, texnopark (technopole) atamasi asosan Fransiyada qo'llanilsa, AQShda "Research Park", Buyuk Britaniyada "Science Park", Uzoq Sharqda asosan "Science City" yoki "Technology City" atamaları qo'llanilishini ham aytib o'tish lozimdir⁹⁹.

1.3.2-jadval

Klaster va texnoparkning farqi¹⁰⁰

Klaster	Farqlovchi omil	Texnopark
ma'lum geografik hududda joylashgani bilan, uning aniq chegaralari mavjud bo'lmaydi (ba'zan klasterlar mintaqalararo faoliyat ham olib borishi mumkin)	hududiy chegara	chegaralangan hudud doirasida faoliyat olib boradi
asosan bir sohadagi mushtarak ishtirokchilarni qamrab oladi, klasterning vujudga kelishi uchun hududda kerakli darajadagi kritik massa jamlanishi (odatda 80-100 subyekt) lozim	Ixtisoslashuv	turli yo'nalishdagi, sohalardagi tadqiqotlar olib boriladi, texnopark tashkil etish uchun ishtirokchilarning minimal miqdori belgilanmagandir
turli xil subyektlar: katta, o'rta, kichik korxonalar, start-uplar, OTMlar, ITTKI institutlari va markazlari, davlat idoralari, institutsional infratuzilma ishtirok etadi	Subyektlarining tuzilishi va soni	asosan o'rta, kichik firmalar va start-uplar faoliyat olib boradi
klasterlarni tashkil qilishda geografik joylashuv, hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ichki tashabbusning mavjudligi inobatga olinishi lozim	Tashkil etilishi masalasi	Texnopark asosan sun'iy ravishda tashkil qilinadi
Klasterlar asosan ishtirokchilar o'rtasida yangi loyihalarni tashkil etish, o'zaro raqobatni oshirishni maqsad qiladi	Faoliyat maqsadi	yangi biznes yo'nalishlarini rivojlantirish va asosan OTMlar faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi va odatda texnoparklar klasterlar doirasida faoliyat yuritadi

Klasterlar va texnoparklar milliy innovatsion tizimning alohida instrumenti sifatida mamlakat yoki ma'lum hududdagi innovatsion

⁹⁸ The term "science and technology park" encompasses any kind of high-tech cluster such as: technopolis, science park, science city, cyber park, hi tech (industrial) park, innovation centre, R&D park, university research park, research and technology park, science and technology park, science city, science town, technology park, technology incubator, technology park, texnopark, technopole and technology business incubator. However, it is worth noting that there are slight differences between some of these terms. For example, experience suggests that there is difference between a technology business incubator, science park or research park, science city, technopolis and regional innovation system.

⁹⁹ <http://odtuteknokent.com.tr/en/information/what-is-a-technopark>

¹⁰⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishkab chiqilgan

faoliyatani jadallashtirish, start-up loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ITTKIning rivojlantirish, jozibador innovatsion va investitsion muhitni yaratishga xizmat qiladi. Ammo, ular o'rtasida bir qancha institutsional farqlar mavjuddir (1.3.2-jadval). Xususan, klaster deganda umumiy bir tizim tushunilib, u bir necha parametrlari bo'yicha texnoparklardan farq qiladi. Umuman olib aytganda, texnoparkni sun'iy ravishda tashkil qilish mumkin bo'lsa, klasterni tashkil qilishda geografik joylashuv, hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ichki tashabbusning mavjudligi inobatga olinishi lozimdir.

Klasterlar shuningdek, sanoat tumanlaridan ham farq qiladi. Sanoat tumani iqtisodiy aglomeratsiyaning bir shakli bo'lib, unda kompaniyalar o'xshash biznes faoliyati bilan o'zaro bog'lanadi va natijada o'zgaruvchan bozorlarga yanada moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari paydo bo'ladi¹⁰¹. Ular geografik hududdagi mahalliy yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, umumiy bilim va imkoniyatlarni, mavjud tashqi omillarni mustahkamlaydi. Klaster esa ma'lum bir mintaqaga bog'liq bo'lgan bilimlarni yaratish, innovatsiyalar va ortib boruvchi daromadlarga asoslanadigan iqtisodiy aglomeratsiya modeli bo'lib, unda mahsulot oqimidan tashqari biznes va texnologik tajriba ham almashiniladi¹⁰². Umuman sanoat tumanlari va klasterlarda bir sohadagi firmalar birlashsa, urban aglomeratsiyalar va innovatsion aglomeratsiyalarda turli sohadagi firmalar faoliyat olib boradi¹⁰³. Sanoat tumanlari va urban aglomeratsiyalar iqtisodiy samaradorlik va moslashuvchanlik bilan, klaster va innovatsion aglomeratsiyalar esa innovatsiyalar bilan tavsiflanadi.

Klasterlar qishloq xo'jaligidagi "ideal" qiymat tarmogi sifatida ko'rilsada, agrar sohada boshqa qiymat tarmoqlari shakllari – agrobiznes kompleksi, agrosanoat parki, agro-eksport hududi, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish konsortsiumi, bir qishloq–bir mahsulot, sub-innovatsion tizimlar kabilar ham mavjud bo'lib, ularning agrosanoat klasteri bilan bir qancha o'xshash va farqli tomonlari mavjuddir.

¹⁰¹ Piore M., Sabel C. The second industrial divide – Possibilities for prosperity. – New York: "Basic Books", 1984. – 354 p.

¹⁰² Krugman P. Geography and trade. – Cambridge, Massachusetts: "MIT Press", 1991. – 156 p.

¹⁰³ Malmberg A. et al. Spatial Clustering, Local Accumulation of Knowledge and Firm Competitiveness // Geografiska Annaler. Series B, Human Geography, 1996. – Vol.78, №2. – P.85-97. www.jstor.org/stable/490807.

Agro-biznes komplekslari

•Agroklasterlar ko'p jihatdan agrobiznes komplekslarining dastlabki g'oyalariga asoslanadi. O'zaro farqi shundaki, klasterlar aniqroq geografik o'lchovlarga ega bo'ladi, shuningdek, klaster atamasi majmuaga nisbatan kengroq bo'lib, ularga ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari kabi aktorlar ham kiradi.

Oziq-ovqat va q/x mah. eksport konsortsiumlari

•Odatda kichik va o'rta korxonalardan iborat bo'lib, ularni "o'z a'zolarining tovarlari va xizmatlarini chet elda targ'ib qilish va qo'shma harakatlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga ko'maklashish maqsadida firmalarning ixtiyoriy ittifoqi" sifatida talqin qilish mumkin. Konsortsium a'zolari o'zlarining moliyaviy, huquqiy, boshqaruv va tijorat mustaqilligini saqlab qoladi, lekin umumiy marketing, ilmiy-tadqiqot va ba'zi hollarda sotish kabi sxemalar orqali o'z eksportlarini ilgari surishda hamkorlik qiladilar. Ular formal institutlar bo'lib, ularda ishtirok etadigan firmalar geografik jihatdan yaqin bo'lishi shart emas.

Agro-sanoat parklari

•Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash uchun qurilgan umumiy obyektlar va xizmatlardir. Bunday tashabbuslarning g'oyasi shundaki, kichik va o'rta korxonalarning kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan faoliyatga sarmoya kiritishi qiyin. Shu sababli oziq-ovqat parklarining qurilishi umumiy infratuzilma obyektlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga hamda korxonalarga klasterlashning boshqa jihatlaridan foyda olishga yordam beradi.

Bir qishloq-bir mahsulot

•"Bir qishloq - bir mahsulot" kampaniyasi mintaqada rivojlanishni ilgari surish uchun aslida Yaponiyada boshlangan tashabbusdir. Bunda qishloqlar yoki hududlarning bir mahsulotga ixtisoslashishi rag'batlantiriladi. Hozirda Tailandagi "Bir Tumbon – bir mahsulot" dasturi, Shri Lankadagi qalampir ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mintaqalar bu kabi qiymatlar tarmog'iga yorqin misol bo'la oladi.

Agri-eksport zonolari

•Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga yordam beradi va klaster g'oyasini aniq ishlatish bo'yicha tashabbusni namoyon etadi. Bunda soliq imtiyozlarini taqdim etish va klaster doirasida o'qitish, ITTKI va infratuzilmani rivojlantirish uchun moliyaviy yordamlarni taqdim etish ko'zda tutiladi.

1.3.3-rasm. Agrosanoat klasterining qishloq xo'jaligining boshqa aglomeratsiyalaridan farqi¹⁰⁴

Umuman aytish mumkinki, o'rganilayotgan klasterlarning, xususan agrosanoat klasterlarining iqtisodiy aglomeratsiyaning boshqa turlaridan farqini aniqlashtirish va qat'iy ajratish uning faoliyatini to'g'ri baholash va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy klasterlar faoliyatidan tranzaksion xarajatlarning qisqarishi, kapital qiymatining pasayishi samarasi, innovatsiyalar diffuziyasi,

¹⁰⁴ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. –P.6-8 asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

infratuzilma sinergiyasi, marketing sinergiyasi effekti kabi 5 turdagi samaraga erishiladi.



1.3.4-rasm. Klaster faoliyatidan keladigan samaradorlik turlari¹⁰⁵

Klaster doirasida firmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ochiq bozor munosabatlari sharoitidagi holatga nisbatan, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tranzaksion xarajatlarning qisqarishiga imkon yaratadi. Tranzaksion xarajatlarning kamayishidan keladigan samaradorlikka barcha turdagi tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali erishiladi¹⁰⁶:

$$E_{tr} = \sum E_{xar}$$

E_{tr} – tranzaksion xarajatlarni kamayishidan keladigan samara;

E_{xar} – har bir tranzaksion xarajat kamayishidan keladigan samara.

Klaster faoliyati natijasida vujudga keladigan innovatsiyalar diffuziyasi samarasi dinamik eksternaliyalar hamda geografik jihatdan aglomeratsiya samarasiga olib kelib, bu mintaqaviy rivojlanishga zamin yaratadi¹⁰⁷. Klaster doirasida infratuzilma obyektlaridan umumiy foydalanishdan keladigan samara esa ishlab chiqarish kuchlari, ilmiy jihozlar, bino, muhandislik inshootlaridan umumiy foydalanish orqali vujudga kelib, bu mintaqada ilmiy-ishlab chiqarish kuchlarining to'planishi va hududiy raqobatbardoshlikning oshishiga olib keladi. Klaster faoliyati natijasidagi marketing samarasi esa klaster va uning yadrosini tashkil etuvchi firmaning brendini rivojlantirish va targ'ib qilish orqali yaratiladi hamda bu umumiy

¹⁰⁵ Буянова М., Дмитриева Л. Оценка эффективности создания региональных инновационных кластеров // Вестник ВолГУ, 2012.– №2. – С. 55. (<https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-sozdaniya-regionalnyh-innovatsionnyh-klasterov>) asosida muallif tominidan shakllantirildi.

¹⁰⁶ O'sha manba.

¹⁰⁷ Comin D. Technology Diffusion and Postwar Growth / D. Comin, B. Hobijn // Federal Reserve Bank of San Francisco. – 2010. – № 16. – Electronic text data (<http://www.frbsf.org/publication/econ-omics/paper/s/2010/wp10-16bk.pdf>)

brenddan foydalanish natijasida turli xil marketing xarajatlarning kamayishiga imkon beradi¹⁰⁸.

Klaster doirasidagi moliyaviy resurslarning yetarli darajada mavjudligi klaster doirasida yangi dasturlarni amalga oshirish va firmalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga imkon beradi. Kapital taklifining oshishi hamda uning qiymatining pasayishidan keladigan klaster samarasi quyidagi formula orqali aniqlanadi¹⁰⁹:

$$E=K \times \Delta WACC$$

Bunda:

E – kapital qiymatining tushishidan keladigan yillik samara;

K – kompaniyaning yalpi kapitali hajmi

WACC – kapital qiymati.

Klaster joylashgan hududning investitsion jozibadorligining oshishi va kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar kapital qiymatining pasayishi samarasiga olib kelib, bu mintaqaviy raqobatbardoshlikning mustahkamlanishi, klaster ishtirokchilarining bozor risklari kamayishiga imkon beradi.

Shuningdek, ta'kidlash kerakki, klasterlar faoliyatini tahlil qilishda mintaqaviy o'ziga xosliklar ham mavjuddir. Xususan, Yevropa mamlakatlarida Yevropa klaster observatoriyasi mintaqadagi klasterlarni klassifikatsiya qilish jarayonida ularni quyidagi me'zonlarga javob berishiga ko'ra 0, 1, 2 yoki 3 yulduzli klasterlarga ajratadi va shu orqali ular faoliyatining samaradorligini tahlil qiladi¹¹⁰:

– Hajmga ko'ra yulduz: agar klasterdagi bandlik darajasi Yevropadagi bandlikning sezilarli qismini tashkil etsa, demak klaster mintaqaviy iqtisodiyotda muhim sanaladi. Ushbu kriteriya tarmoqlar kesimida klasterlar 10 foiz eng kuchli klasterlarga kiradimi yoki yo'qmi aniqlaydi.

– Sohaga ko'ra yulduz: ushbu kriteriya mintaqadagi bir klaster kategoriyasidagi bandlikning mintaqaning umumiy bandlikka nisbatini Yevropadagi ushbu klaster kategoriyasidagi bandlikning Yevropadagi umumiy bandlikka nisbati bilan solishtiradi.

– Fokus yulduzi: agar klaster hissasiga mintaqadagi bandlikning katta qismi to'g'ri kelsa, mintaqaviy iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasida kuchli hamkorlik yuzaga keladi. Ushbu mezon mintaqaviy iqtisodiyotning klaster


¹⁰⁸ Буянова М., Дмитриева Л. Оценка эффективности создания региональных инновационных кластеров // Вестник ВолГУ, 2012.– №2. – С. 56. (<https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-sozdaniya-regionalnyh-innovatsionnyh-klasterov>)

¹⁰⁹ O'sha manba. – B.59.

¹¹⁰ Strong Clusters in Innovative Regions. – Stockholm: Center for Strategy and Competitiveness, CSC. Stockholm School of Economics, May 2011 (available at: www.clusterobservatory.eu.)

kategoriylarini yaratishini, klasterdagi bandlikning umumiy bandlikdagi rolini o'rganadi. O'z minaqasidagi bandlikning katta qismini to'g'ri keladigan 10% klasterlarga yulduz beriladi¹¹¹.

Ta'kidlash lozimki, klasterlar faoliyatining samaradorligini tahlil qilishda, shuningdek, ularning innovatsion rivojlanishga ta'siri, mintaqadagi aholi daromadlarini shakllantirishdagi o'rni, klaster doirasida yaratilgan qo'shimcha qiymat, yaratilgan va ko'rsatilgan innovatsion tovar va xizmatlar hajmi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkindir.



1.3.5-rasm. Agrosanoat klasteri faoliyatini baholash algoritmi¹¹²

Yuqoridagilardan kelib chiqib, agrosanoat klasterlari va umuman iqtisodiy klasterlar faoliyatini baholash algoritmini 1.3.5-rasmdagidek tasvirlash mumkindir. Ya'ni agrosanoat va umuman iqtisodiy klasterlar faoliyatini baholashni 5 bosqich: agrosanoat klasterini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, hududning umumiy klaster siyosatini baholash, klasterlashtirishning hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlovchi

¹¹¹ Ketels Ch., Protsiv S. European Cluster Panorama 2016. European Cluster Observatory REPORT. – Stockholm: Stockholm School of Economics, 2016. – 73 p.

¹¹² Muallif tomonidan shakllantirildi.

ko'rsatkichlar tahlili, klaster faoliyatidan keladigan 5 turdagi samaradorlikni hisoblash hamda klaster faoliyatini baholash asosida klaster faoliyatini bashoratlash va baholash tizimini mukammallashtirish bosqichiga bo'lish mumkin bo'lib, bu jarayonda 5-bosqichning muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, klasterlar iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish olib borilayotgan klaster siyosatini to'g'ri baholash, mavjud muammolarni aniqlash, tajribalarni o'rganish, klasterning samarali faoliyatini tashkil etishda muhimdir. Bu kabi tahlillar klasterlarni shakllantirish yoki ularni qo'llab-quvvatlashda, mintaqadagi mavjud iqtisodiy salohiyatni aniqlashda, qaysi sohada ixtisoslashuv iqtisodiy jihatdan maqbul ekanligini aniqlashda qo'llaniladi.

II BOB. AGROSANOAT KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

2.1-§. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari tahlili

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish dunyoning rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarida keng uchraydi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni klasterlashtirish ishlab chiqarish salohiyatini va samaradorligini oshirish, milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga imkon berib, klasterlar korxonalar innovatsion rivojlanishining muhim yo‘nalishidan biriga aylangandir.

Ta’kidlash lozimki, Yevropa mamlakatlari va AQShda klasterlar avvaliga ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi sifatida tashkil topgan va yillar davomida rivojlanib, umumiy ishlab chiqarish markaziga aylangan. Natijada, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion sohalar bilan bir qatorda agrosanoat klasterlari ham yuqori samaradorlikka erishib, AQSh va Kanadadagi don klasterlari, Daniya sut mahsulotlari klasteri, Shvetsariya pishloq klasteri, Fransiyaning vino-konyak klasterlari hamda AQSh Kaliforniya vinochilik klasteri yuqori raqobatbaroshlik ko‘rsatkichlarini namoyon etib kelmoqda¹¹³. Shu sababli ham, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha jahon amaliyotini o‘rganganda rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish muhimdir. Bir tomondan esa, mazkur masalada rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotini ko‘rib chiqish ham dolzarb bo‘lib, bu bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida turgan O‘zbekiston uchun kerakli tajribalarni o‘rganishga imkon berishi mumkin. Shu sababli, mazkur bobda iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari hamda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha taraqqiy etgan mamlakatlardan AQSh va Yevropa mamlakatlari, rivojlanayotgan mamlakatlardan esa Xitoy Xalq Respublikasi tajribalariga nazar tashlaymiz.

Agrosanoatni rivojlantirishda klasterli yondashuv klaster siyosati shaklida amalga oshiriladi. Adabiyotlarda keltirilishicha, jahon amaliyotida klaster siyosati olib boriladigan ikkita model mavjuddir. Birinchisi liberal model bo‘lib (AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada), unda klaster bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi va federal hokimiyatning roli uning tabiiy rivojlanishi uchun to‘siqlarni olib tashlashdan iborat hisoblanadi.

¹¹³ Черненко А.А. Формирование зернового кластера как условие повышения эффективности региональной экономики. Дис. ... канд. экон. наук:08.00.05 / Черненко Александра Александровна. – Краснодар, 2014. – 194 с.

Ikkinchi model esa “dirijist” model (Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Shvetsiya, Fransiya, Finlandiya, Sloveniya) bo‘lib, unda davlat klasterlarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etadi¹¹⁴. Xususan, dirijist modelda hududiy ustuvor tarmoqlar va rivojlantiriladigan klasterlar tanlab olinsa, liberal modelda bozor tomonidan shakllantirilgan klasterlar rivojlantiriladi. Shuningdek, dirijistlar klasterlarni rivojlantirish uchun maqsadli ravishda infratuzilmani shakllantirishadi hamda klasterlarni rivojlantiruvchi hududlarni tanlab, uni moliyalashtirish hajmini ham belgilab beradi. Liberal modelda esa, davlat klasterlar uchun infratuzulmani shakllantirishda deyarli ishtirok etmaydi hamda mahalliy hukumatlarga klasterlarni rivojlantirish uchun rag‘batni shakllantiradi¹¹⁵.

2.2.1-rasm. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari¹¹⁶

¹¹⁴ Doronina et al. Agro-industrial Clusters as a Factor of Increasing Competitiveness of the Region // International Journal of Economics and Financial Issues. – Yenice, 2016. – Vol 6, – P. 297

modellarda rivojlanishning bosh omili sifatida klaster doirasidagi raqobat e'tirof etilsa, uchinchi model (Osiyo modeli) davlatning to'g'ri siyosati, to'rtinchi model (Yaponiya) esa maxsus ixtisoslashgan tashkilot doirasidagi raqobatga asoslanadi. Shu bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha milliy modellardan Finlandiya, Hindiston va "Sovetcha" modellari ham tasniflanadi¹¹⁷. Bu yerda klasterlashtirishning milliy modellarining o'ziga xosligi bir nechta omillar, xususan klaster yondoshuvi asosida iqtisodiy an'analarning rivojlanish xususiyatlari, strategik muhim tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik o'rtasidagi farq, mamlakatlar sanoat tarkibining farqi, milliy (hududiy) bozorlarning sig'imi, siyosiy omil kabilarda o'z aksini topadi.

Iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning **Shimoliy Amerika modeli** firmalar o'rtasidagi kuchli raqobat bilan tavsiflanadi. Klaster tizimlari rivojlanishi bo'yicha dunyoda yetakchilik qiluvchi AQShda klasterli yondoshuv mintaqaviy iqtisodiyotlarni rivojlantirish strategiyasining asosi hisoblanib, Amerika klasterlari hamkorlik va ITTKI (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari)ni kommersalizatsiya qilish tamoyiliga asoslanishi bilan farqlanib turadi. AQShda iqtisodiy klasterlar bir necha o'n yilliklardan buyon rivojlanib kelayotganiga qaramasdan, ta'kidlash lozimki mamlakatda bugungi kunda ham klasterlarning barcha xususiyatlarini aniqlovchi yagona model, yagona klaster siyosati mavjud emas¹¹⁸. Ammo, iqtisodchi olim Maykl Porter boshchiligida AQSh klasterlarini xaritalash metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu metodologiya mamlakatda mavjud barcha turdagi klasterlarni tizimlashtirish va solishtirish imkonini beradi. Unga ko'ra mamlakatdagi sanoat tarmoqlari "savdo" va "mahalliy" turlarga bo'linadi va klasterlar ham "savdo" va "mahalliy" klasterlarga bo'linadi¹¹⁹. "US Cluster mapping" dasturi NAICS (Shimoliy Amerika tarmoqlar klassifikatsiyasi) ning 778 ta 6 raqamli tarmoqlarini 51 ta savdo klasterlari va NAICS ning 310 ta tarmoqlarini 16 ta mahalliy klaster kategoriyalariga turkumlaydi.

Savdo klasterlari deganda o'zi joylashgan mintaqadan tashqaridagi bozorlarga xizmat qiluvchi aralash tarmoqlar guruhini tushunilib, ular asosan o'zi joylashadigan yerni erkin tanlaydi va ma'lum raqobat afzalliklari mavjud bo'lgan bir nechta mintaqalarda to'planadi. Bunday klasterlar mamlakat hududlariaro raqobatlashgani uchun boshqa mintaq


¹¹⁷ Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.125-127.

¹¹⁸ Competitive Regional Clusters: National Policy Approaches. OECD reviews of regional innovation. – OECD, 2007. – P.323

¹¹⁹ <http://www.clustermapping.us/content/cluster-mapping-methodology>

klasterlari tomonidan raqobatga tortiladi. Savdo klasterlariga misol qilib Kaliforniyadagi vinochilik sanoati, Nyu-Yorkdagi moliya xizmatlari, Kremniy Vodiysidagi information texnologiyalar hamda Los-Anjelsdagi kino sanoatini olish mumkin. Savdo klasterlari hududiy iqtisodiyotning “dviyetellari” hisoblanadi va hududning umumiy iqtisodiy samaradorligiga hissa qo‘shadi.

Mahalliy klasterlar savdo klasterlaridan farqli ravishda mahalliy bozorga xizmat qiluvchi sohalardan tarkib topadi. Ular mamlakatning har qaysi mintaqasida keng tarqalgan va ma’lum joyning raqobat afzalliklariga e’tibor qaratmaydi. Natijada, mintaqadagi mahalliy klasterdagi bandlar soni ushbu mintaqa aholisi soniga proporsional bo‘ladi. Mahalliy klasterlar o‘zi joylashgan mintaqaga bog‘liq bo‘lganligi uchun boshqa mintaq klasterlari tomonida raqobatga chorlanmaydi¹²⁰. Bunday turdagi klasterlarga mahalliy sog‘liqni saqlash xizmatlari dorixonalari va shifoxonalar, kinoteart va savdo xizmatlarini kiritish mumkin.



2.1.2-rasm. AQSh iqtisodiyotida savdo va mahalliy klasterlarning o‘rni (%da)¹²¹

Yuqoridagi 2.1.2-rasmda AQSh iqtisodiyotida savdo va mahalliy klasterlarning o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, mahalliy klasterlar hissasiga band aholining asosiy qismi (64%) to‘g‘ri kelgan bir sharoitda, savdo klasterlari nisbatan yuqoriroq daromad va bir qancha yuqori innovatsionlik darajasini (umumiy patentlarning 96,5 foizi) ko‘rsatdi. Umuman aytish mumkinki, mahalliy klasterlar savdo klasterlari uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatadi va har ikki turdagi klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotning o‘sishi uchun muhim sanaladi.

Mamlakatda klaster tizimlari rivojlanishida mahalliy va federal hukumatlar tomonidan amalga oshirilgan dastur va qabul qilingan qonunlar,

¹²⁰ <http://www.clustermapping.us/content/clusters-101>

¹²¹ <http://www.clustermapping.us/content/clusters-101>

xususan “Bey-Doul” (1980), “Kichik biznes sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish to‘g‘risida”gi (1982), “Kichik biznes sohasida ITTKIn rivojlantirish to‘g‘risida”gi (1992), “Amerika raqobatlashadi” (2007), “Amerika iqtisodiyotini qayta tiklash va reinvestitsiyalash to‘g‘risida”gi (2009), “Amerika raqobatlashadi 2010” Akti kabi qonunlar¹²² hamda “Mintaqaviy klaster tashabbuslari” (2010)¹²³, “Bandlikka ko‘maklashish va innovatsiyalar katalizatori” (2011)¹²⁴, “Amerikaning uzoq va chekka joylarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va ishchi o‘rinlarini yaratish” dasturlari (2012)¹²⁵ muhim o‘rin tutgan.

AQShda agrosanoat klasterlari faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda mamlakat iqtisodiy faol aholisining deyarli 4 foizi mehnat qiladi. Mamlakatning agrosanoat klasterlarini shakllantirish bo‘yicha tajribasiga esa keyingi faslda kengroq to‘xtalamiz.

Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning yana bir milliy modeli **Fincha model** bo‘lib, u biznes va innovatsiyalarning yuqori darajadagi internatsionalizatsiyasi bilan xarakterlanadi. Bu Finlandiya ichki bozorida barqaror ichki talabning yo‘qligi va mamlakat iqtisodiyotining kichik ekanligi bilan tavsiflanib, Finlandiya klasterlari shakllanishining dastlabki bosqichidanoq tashqi bozorga yo‘naltirilgan hisoblanadi¹²⁶. Mamlakatda agrosanoat klasterlari ham faol tashkil etilib, samarali faoliyat olib boradi. Xususan, Finlandiya hissasiga dunyo o‘rmon xo‘jaligi zahiralarining 0,5 foizi to‘g‘ri kelsada, jahon mebel eksportining 10 foizi, qog‘oz eksportining 25 foizi to‘g‘ri kelmoqda¹²⁷.

Umuman olganda iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning Yevropa mamlakatlari tajribasi yuqori bo‘lib, bugungi kunda Yevropa Ittifoqida (YeI-27) mintaqaviy bandlikning kamida 1 foiz ulushiga ega bo‘lgan 1501 ta sektor ixtisoslashuvi tugunlari mavjud va ular YeI-27 umumiy bandligining deyarli 25 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, YeI-27da 1000 dan ortiq klaster mavjud bo‘lib, klaster a‘zolarining o‘rtacha 70 foizi kichik

¹²² Наука и инновации: выбор приоритетов / Отв. ред. Н.И. Иванова. – М.: ИМЭМО РАН, 2012. – 235 с.

¹²³SBA FY 2015. Congressional Budget Justification and FY 2013 Annual Performance Report. ([https://www.sba.gov/sites/default/files/files/advocacy_CBJ_fy15\(2\).pdf](https://www.sba.gov/sites/default/files/files/advocacy_CBJ_fy15(2).pdf))

¹²⁴Obama Administration announces \$20 Million for 10 Public-Private Partnerships to Support American Manufacturing and Encourage Investment in U.S. – [ER]. (<http://www.commerce.gov/news/pressreleases/2012/10/09/obamaadministration-announces-20-million-10-public-private-partnersh>).

¹²⁵Obama Administration Announces \$15 Million Multi-Agency Challenge To Foster Job Creation and Business Innovation in Rural Communities Nationwide. – [ER]. (<http://2010-2014.commerce.gov/category/tags/rural-jobs-and-innovation-Overview>); SBA Innovation Clusters, 12 Nov 2013. – [ER]. (<http://www.clustermapping.us/sites/default/files/files/page>).

¹²⁶Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.126.

¹²⁷Абдиев М., Токторов К. Роль и значение агропромышленного кластера в экономике страны // Экономика и бизнес: теория и практика. – Новосибирск, 2017. – №4-1. – С.1. (<https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-znachenie-agropromyshlennogo-klastera-v-ekonomike-strany>)

va o'rta korxonalar, 10 foizi yirik firmalar va 8 foizini tadqiqot institutlari tashkil etadi¹²⁸. Parij, Shtutgart, Frankfurt-Manhaym, Nyuremberg-Erlangen, Myunxen, Bazel, London, Dyusseldorf, Ayndhoven, Berlin, Rotterdam-Gaga, Lyon, Syurix, Kopengagen shaharlari Yevropada klasterlar eng yaxshi yo'lga qo'yilgan hududlar sanaladi¹²⁹.



2.1.3-rasm. Yevropa Ittifoqida klaster va klaster siyosatining tasniflanishi¹³⁰


¹²⁸ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.8.

¹²⁹ Cornell University, INSEAD, and WIPO. The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World. Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2017. – P. 168.

¹³⁰ <https://www.clustercollaboration.eu/eu-initiatives>; <https://clustercollaboration.eu/cluster-definitions>; The concept of clusters and cluster policies and their role for competitiveness and innovation: main statistical results and lessons learned.

Ta'kidlash kerakki, Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish yondoshuvi o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab keng qo'llanila boshlangan hamda 1997-yilda Yevropa Ittfoqida imzolangan hamkorlik shartnomasida ham klasterlar mintaqa iqtisodiyotini yuksaltirishning asosiy omili sifatida e'tirof etilgan edi¹³¹. Yevropa mamlakatlarida samarador klasterlarni rivojlantirish borasida ko'plab milliy dasturlar amalga oshirilib, bu jarayonda ular strukturani shakllantirish, ITTKIni moliyalashtirish, mintaqaviy rivojlanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va klasterlar faoliyatini xalqaro darajaga olib chiqishga e'tibor qaratadi¹³².

Mintaqadagi ixtisoslashuv tugunlari va klasterlar asosan ishlab chiqarish sanoatida to'plangan bo'lib, YeI-27 da klasterlar asosan raqamli iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, qayta tiklanadigan energiya va mobillik/transport/avtomobil sanoati ekotizimlarida keng tarqalgandir. Klasterlar kuchli innovatsion faoliyat, yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar va bandlikni ta'minlab, klaster siyosatining asosiy maqsadi firma darajasidagi innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va barqarorlikni oshirish hisoblanadi. YeI-27 klasterlarining 80 foizidan ortig'i raqamli va 60 foizidan ortig'i esa yashil kompaniyalar va biznesni qo'llab-quvvatlaydi¹³³.



2.1.4-rasm. YeI-27 klasterlarining hajmi haqida ma'lumotlar (2021)¹³⁴

Commission staff working paper SEC №2637. – Luxembourg: European Communities, 2008. – P.9, https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/cluster_en asosida muallif tomonidan shakllantirildi

¹³¹ www.clusterobservatory.eu

¹³² <http://www.clusterplatform.de/CLUSTER/Navigation/EN/Europe/europe.html>

¹³³ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.9.

¹³⁴ O'sha manba. – P.20

Mazkur rasmda Yevropa Ittifoqiga kiruvchi 27 mamlakat kesimida 468 klasterning hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. YeI-27 klaster tashkilotlarining deyarli 60 foizi 100 dan kam a'zoga ega va 7 foizga yaqinida 400 dan ortiq a'zo bor. Biroq, klaster tashkilotlari hajmida mamlakatlar bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Ispaniya, Italiya va Germaniya klasterlar soni bo'yicha yetakchi bo'lsa, Fransiya, Belgiya va Daniya klasterlari katta hajmliligi, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi ko'plab mamlakatlar (Ruminiya, Litva, Bolgariya, Sloveniya, Chexiya, Vengriya) klasterlari kichikroq hajmga egaligi bilan farqlanadi.

Iqtisodiy klasterlarni tashkil etishning yana bir milliy modeli **Yaponcha model** bo'lib, u yetakchi firmaning mavjudligi bilan xarakterlanib, yuqori ishlab chiqarish masshtabiga ega firma texnologik zanjirning turli boqsqichlarida ko'plab vositachilarni birlashtiradi¹³⁵. Yaponiyada konstruktiv inson omiliga asoslangan raqamli iqtisodiyot yaxshi rivojlangan bo'lib, mamlakatda klasterlarni qo'llab-quvvatlash mintaqaviy innovatsiyalar hamda raqobatbardoshlikni oshirish siyosatining muhim yo'nalishi sifatida paydo bo'ldi. Yuqori texnologik ko'plab klasterlar Tokio, Osaka-Kobe-Kyoto hamda Nagoya mintaqasida joylashgan¹³⁶.



2.1.5-rasm. Yaponiyada iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish dasturi bosqichlari¹³⁷

Yaponiyada iqtisodiy klasterlarni shakllantirish 3 bosqichda amalga oshirilgan (2.1.5-rasm) bo'lib, bu jarayonlarda davlatning maqsadli

¹³⁵ Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.127.

¹³⁶ Broeckaert L. Digital transformation in Japan. – Tokyo, 2022. – P 99.

¹³⁷ Industrial Cluster Project. – Regional Technology Division, Regional Economic and Industrial Policy Group, Ministry of Economy, Trade and Industry, 2009. – P.3. (<http://www.meti.go.jp/>, <http://www.cluster.gr.jp/en>)

dasturlari muhim rol o'ynadi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI)ning "Sanoat klasterlari" dasturi, Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi (MEXT)ning "bilimlar klasteri" dasturlari shular jumlasidandir¹³⁸. 2020-yilda bosh vazir Yoshihide Suga tomonidan innovatsiyalarni rivojlantirish, Raqamli agentlik va Yashil o'sish strategiyasi orqali iqtisodiyotni qayta tiriltirish dasturi taklif etilgan bo'lsa, 2021-yilda yangi bosh vazir Fumio Kishida "Raqamli bog'-shahar" tashabbusini ilgari surdi. Ammo, sanoat klasteri masalasida hukumat hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan siyosatlarining samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan miqdoriy baholashni o'tkaza olmadi¹³⁹. Umuman olganda, Yaponiyada asosan yuqori texnologik innovatsion klasterlar rivojlangan bo'lib, agrosanoat klasterlari nisbatan kam sonli va mavjud agroklastlar ham turizm bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, Okinava hamda Aichida qishloq xo'jaligi-oziq-ovqat-turizm klasteri mavjuddir¹⁴⁰.

Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning **Hindcha modelida** bosh rolni TTXI (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar) egallab, ular klasterlar doirasida zamonaviy texnologiyalarni yanada keng joriy qilish, jahon bozorlariga chiqish imkonini beradi. Hisob kitoblarga ko'ra, bugungi kunda Hindistonda 400 ta zamonaviy kichik korxona va 2000 ta qishloq va hunarmandchilik klasterlari mavjud bo'lib, ular Hindiston eksportining 60 foizini tashkil qiladi va aholi bandligini ta'minlashda katta ulushga ega¹⁴¹. Mamlakatda klasterlarning tabiiy ravishda shakllanib, rivojlanishiga bir qancha omillar sabab bo'lib, klasterlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan¹⁴²: federal hukumat tomonidan importga qo'yiladigan qattiq cheklovlar; texnoparklarni yaratish; hukumatda ishlab chiqarish sektorining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash; korxonalarining kapitalida davlat ulushining mavjudligi; texnikaga ixtisoslashgan maktab va kollejlarning shakllantirilishi; amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar. Mamlakatda bugungi kunga qadar 30 dan ortiq mintaqaviy, milliy va xalqaro klaster rivojlantirish dasturlari, loyihalari, sxemalari amalga oshirilmoqda.

¹³⁸ Competitive Regional Clusters: National Policy Approaches. OECD reviews of regional innovation. – OECD, 2007. – P. 226.

¹³⁹ Kuwajima H. Japan's Industrial Cluster Policy Revisited. –The Tokyo Foundation for Policy Research, 2022. (available at: <https://www.tokyofoundation.org/research/detail.php?id=897>)

¹⁴⁰ Yamashita T. The Agriculture-Food-Tourism Industry Cluster in Japan: Case Studies of Tourism Industry Clustering in Okinawa and Aichi. In: Kuchiki A., Mizobe T., Gokan T. (eds) A Multi-Industrial Linkages Approach to Cluster Building in East Asia. – London: "Palgrave Macmillan", 2017. Chapter 4 (https://doi.org/10.1057/978-1-137-57128-1_4)

¹⁴¹ <http://laghu-udyog.gov.in/clusters/clus/ovrclus.htm>

¹⁴² Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С. 134-135.

Hindistonda bir qancha yirik agrosanoat klasteri ham mavjuddir. Xususan, Maharashtra shtatidagi Nasik uzumchilik klasteri mamlakatdagi eng katta agrosanoat klasterlaridan biri hisoblanadi. Mazkur shtat hissasiga (Nasik, Solapur, Sangli, Puli va Ahmadnagar) mamlakatdagi uzum yetishtiriladigan hududining 70 foizi to‘g‘ri kelgan bir sharoitda, shundan 60 foiz Nasikda joylashgan¹⁴³. Hozirda agrosanoat tarmog‘ida klasterlarning shakllanishini qo‘llab-quvvatlash uchun Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash klasterlari uchun infratuzilmani yaratish sxemasi bo‘yicha 57 ta agrosanoat klasteri tanlanib¹⁴⁴, ularni qo‘llab-quvvatlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda¹⁴⁵.

Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning **“Sovetcha” modeli** hududiy ishlab-chiqarish komplekslari orqali kam aholi joylashgan va qayta ishlash sanoati past rivojlangan hududlardagi xom-ashyo tarmoqlarida qo‘llaniladi¹⁴⁶. Bu tipdagi klasterlarga Rossiya klasterlarini misol qilib keltirish mumkindir. Rossiyada klasterlarni shakllantirish 2000-yillardan boshlangan va bugungi kunda klasterlarni takomillashtirish siyosati Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda¹⁴⁷. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2020-yilgacha bo‘lgan davrda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida ham klasterlarning iqtisodiy ahamiyati ta’kidlangan edi. Mamlakatda sanoat, qishloq xo‘jaligi, harbiy soha, oziq-ovqat sanoati hamda innovatsion klasterlar keng tarqalgan. Rossiyadagi yuqori texnologik klasterlar 3 turga: naukograd (ilm shaharlari), texnologiyalarni rivojlantirish maxsus zonalari, atom sanoati uchun xizmat qiluvchi hududiy yaqin ma’muriy-territorial birliklarga ajratiladi¹⁴⁸.

Mamlakat hukumati tomonidan iqtisodiy klasterlarni shakllantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, Rossiyada klasterlar rivojlanishi bilan bog‘liq bir qancha muammolar mavjud. Xususan, tadqiqotchilar fikricha klaster siyosati o‘ta murakkab masalalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lsada, mazkur masalalarning o‘zi hali to‘liq tushunilmagan. Shuningdek, muvaffaqiyatli klasterlarni tashkil etishda

¹⁴³ <https://www.yumpu.com/en/document/read/12038827/grape-cluster-in-nasik-maharashtra-european-cluster->

¹⁴⁴ <https://www.mofpi.nic.in/announcements/list-agro-processing-cluster-projects-approved-ministry-food-processing-industries-reg>

¹⁴⁵ <https://mofpi.nic.in/Schemes/agro-processing-cluster>

¹⁴⁶ Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.127.

¹⁴⁷ Ионис А. Проблемы реализации инновационной кластерной политики с точки зрения государственного управления // Кластер. Исследования и разработки. – Москва, 2015. – №1 (1). – С.6.

¹⁴⁸ Ablaev I. Innovation clusters in the Russian economy: economic essence, concepts, approaches // Procedia Economics and Finance, 2015. – Vol. 24. – P.6.

davlatning roli haqidagi savol hozirgacha munozarali bo‘lib qolmoqda¹⁴⁹ va klasterlar mamlakatning butun hududini to‘liq qamrab olmagan¹⁵⁰.

Agrosanoat klasterlari masalasiga to‘xtaladigan bo‘lik, mamlakatda bir qancha yirik agrosanoat klasterlari mavjud bo‘lib, ularga o‘simchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan Novgorod viloyati agrosanoat klasteri, Vologda viloyatining sut klasteri, Rostov viloyatidagi “Донские молочные продукты” sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha klaster, Rostov viloyatidagi “Долина Дона” vino klasteri, Rostov viloyati Millerovskiy tumanida donni chuqur qayta ishlash klasteri, Tatariston Respublikasining oziq-ovqat klasteri, Omsk viloyatining agrobiotexnologik sanoat klasterini kiritish mumkindir¹⁵¹.

2.1.1-jadval

Klasterlarni shakllantirishning milliy modellari xususiyatlari¹⁵²

Milliy model	Farqlovchi omillar					
	TTXI	Bozor/ra-qobat	Innovatsiya	Internatsionalizatsiya	Yetakchi firma roli	Kichik firmalar
Shimoliy Amerika	**	*****	***	*	*****	**
Fincha	**	***	*****	*****	*****	**
Yaponcha	*	**	***	*****	*****	***
Hindcha	*****	**	**	***	*****	***
“Sovetcha”	*	*	*	**	*	*

*kuchsiz rivojlangan

***** kuchli rivojlangan

Xorijiy mamlakatlarning klasterlarni shakllantirish bo‘yicha milliy modellarini tahlil qilib aytish mumkinki, ular milliy iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lib, yuqoridagi 2.1.1-jadvalda milliy modellarning xususiyatlari ochib berilgan. Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, klasterlashtirish bo‘yicha mamlakatlar milliy modellari o‘rtasida katta farq mavjud. Xususan, AQShda bozor, raqobat va

¹⁴⁹ Брутян М.М. Проблема формирования инновационных кластеров как инструментов институционального и промышленного развития региональной экономики // Вестник Евразийской науки, 2020 №1, <https://esj.today/PDF/11ECVN120.pdf> (доступ свободный).

¹⁵⁰ Абдувалиев А.А. Кластер – миллий иктисодиётнинг инновацион ривожланишидаги ўрни ва roli. Рисола. –Т.: “Lesson Press”, 2017 й. –Б. 24-25.

¹⁵¹ Куценко Е., Артемов С. Абашкин В., Исланкина Е. Агропромышленные кластеры: зарубежный опыт и российские практики. – Москва: Российская кластерная обсерватория. ИСИЭЗ НИУ ВШЭ. – С.3 <https://cluster.hse.ru/mirror/pubs/share/216098004>

¹⁵² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

yetakchi firmaning roli yuqori bo'lib, internatsionalizatsiya darajasi past bo'lsa, Fincha modelda innovatsiya, xalqarolashuv va yetakchi firmaning roli klaster xususiyatlarini ochib beradi. Hindcha va Yaponcha modellar yetakchi firmaning roli kattaligi hamda bozor/raqobatning roli nisbatan pastligi bilan o'zaro o'xshasa, Yaponcha modelda TTXIning o'rni past, Hindcha modelda esa juda yuqori ekanligi bilan tasniflanmoqda. "Sovetcha" model esa barcha omillarning kuchsiz rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa olib aytganda, milliy iqtisodiyotni klasterlashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va mamlakatning klaster siyosati mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy elementlarini o'zida mujassam etib, uning asosida shakllanadi. Mamlakatlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda klasterlashtirishning liberal yoki dirijist modellaridan foydalanishlari mumkin. Umuman olganda, iqtisodiy klasterlarni shakllantirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatlar milliy modellarining turlichaligi yana bir bor iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning yagona universal modeli, shakli yo'qligidan dalolat beradi.

2.2-§. Xorijiy mamlakatlarda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari

O'zining tabiiy zaxiralari va yer sharoitlari tufayli Amerika Qo'shma Shtatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchi va eksportyorlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va tegishli sohalar 2020-yilda AQSh YAIMning 5 foizini tashkil etib, qiymati 1.055 trln.AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqardi¹⁵³. Umumiy agrar sohaning YaImga qo'shadigan ulushi bundan ham katta bo'lib, zero o'rmonchilik, baliqchilik va shunga o'xshash faoliyat turlari; oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari; to'qimachilik, kiyim-kechak va charm buyumlar; oziq-ovqat va ichimliklar do'konlari; va oziq-ovqat xizmati ham qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sanaladi.

AQSh agrobiznesi kuchli ishchi kuchi, bozor hajmi va rivojlangan infratuzilmasi tufayli global bozorda asosiy raqobatchilardan biri sanaladi. 2020-yilda mamlakat qishloq xo'jaligi eksporti 146 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi¹⁵⁴. Bugungi kunda mamlakat bo'ylab 2 milliondan ortiq fermer

¹⁵³ <https://www.ers.usda.gov/data-products/ag-and-food-statistics-charting-the-essentials/ag-and-food-sectors-and-the-economy/#:~:text=What%20is%20agriculture's%20share%20of,about%200.6%20percent%20of%20GDP.>

¹⁵⁴ <https://www.ers.usda.gov/data-products/ag-and-food-statistics-charting-the-essentials/ag-and-food-sectors-and-the-economy/>

xo‘jaliklari 900 million akrdan ko‘proq maydonda faoliyat yuritib, ularning 97 foizi oilaviy mulkka tegishlidir^{155,156}. AQSh Fermer xo‘jaliklarining asosiy xususiyatlaridan biri bu monokultura, ya’ni bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi sanaladi. 2020-yil yakunlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida 19.7 mln kishi band bo‘lib, bu umumiy bandlikning 10.3 foizini tashkil etadi¹⁵⁷. AQSh dunyoda makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakat bo‘lib, Illinois, Indiana, Ayova, Missuri va Nebraska bo‘ylab “makkajo‘xori belbog‘i” o‘tgan. Shuningdek, mamlakat jahondagi eng katta mol go‘shti ishlab chiqaruvchisi va bir vaqtning o‘zida importyori ham sanaladi¹⁵⁸.

AQShda qishloq xo‘jaligini sanoatlashtirish 1990-yillardan boshlangan¹⁵⁹ va 1948-2015-yillar oralig‘ida agrosanoat rivojlanishi natijasida AQSh dehqon xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi ikki barobar oshgan¹⁶⁰. Umuman olganda, AQSh agrosanoati bir nechta quyi sektorlardan iboratdir:

- *Qishloq xo‘jaligi kimyoviy moddalari* (o‘g‘itlar, pestitsidlar va boshqa qishloq xo‘jalik kimyoviy moddalarini tayyorlash, aralashtirish, shakllantirish);

- *Dehqonchilik* (asosiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar – makkajo‘xori va soya loviyasi);

- *Akvakultura* (ham dengiz ham chuchuk suv muhitida baliq va dengiz mahsulotlarini yetishtirish. AQSh akvakulturasining aksariyat qismini (70 foizi) chuchuk suvda laqqa baliq va gulmohi balig‘ini yetishtirish tashkil etadi);

- *O‘rmonchilik* (o‘rmonlar, daraxtlar va ular bilan bog‘liq manbalarni yaratish, boshqarish, foydalanish va saqlash);

- *Chorvachilik* (go‘sht, sut, jun va charm kabi chorva mollari mahsulotlarini ishlab chiqarish. Asosiy mahsulotlari yirik qoramolchilik, parrandachilik va sut mahsulotlari).

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mashinalari va uskunalari (Mashina va uskunar sanoatining bir qismi bo‘lib, oziq-ovqat va ichimliklarni yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, tashish va tarqatish uchun ishlatiladigan uskunalarni ishlab chiqarishni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mashinalari va uskunalari qishloq xo‘jaligi uskunalari, oziq-

¹⁵⁵ USDA. Farms and Farm Income. Accessed Nov. 13, 2019.

¹⁵⁶ USDA. Family Farms are the Focus of New Agriculture Census Data. Accessed Nov 13, 2019.

¹⁵⁷ <https://www.ers.usda.gov/data-products/ag-and-food-statistics-charting-the-essentials/ag-and-food-sectors-and-the-economy/>

¹⁵⁸ USDA. Animal Production. Accessed Nov. 13, 2019.

¹⁵⁹ USDA. The 20th Century Transformation of U.S. Agriculture and Farm Policy. –P.7. Accessed Nov. 13, 2019.

¹⁶⁰ USDA. Agricultural Productivity Growth in the United States: 1948-2015. Accessed Nov. 13, 2019.

ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash mashinalari, tijorat va sanoat sovutish uskunalari va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uskunalari o'z ichiga oladi)¹⁶¹.

AQShda agrobiznesni qo'llab-quvvatlovchi va qishloq xo'jaligining innovativligini oshirishga qaratilgan bir nechta Federal dasturlar va resurslar bo'lib, ularga Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi milliy instituti (NIFA), AQSh Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA), USDA iqtisodiy tadqiqot xizmati federal statistikasi kabilarni kiritish mumkin¹⁶².

2.2.1-jadval

AQSh agrosanoat klasterlari (tarmoqlar bo'yicha)¹⁶³

Klaster tarmog'i nomi	Quyi klasterlari	Bog'liq klasterlar
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari	Qishloq xo'jaligi xizmatlari, Fermer xo'jaligini boshqarish va mehnat xizmatlari, o'g'it ishlab chiqarish	Yetkazib berish & e-savdo
Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Ixtisoslashgan oziq-ovqat va ingredientlar, pishirilgan mahsulotlar, shirinliklar va shokolad, qahva va choy, qadoqlangan meva va sabzavotlar, sut mahsulotlari, hayvonlar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklar va muz, solod ichimliklar, distillangan ichimliklar, vino ishlab chiqarish	Yetkazib berish & e-savdo, biofarmatsevtika
Baliqchilik	Baliq va baliq mahsulotlari	Yetkazib berish & e-savdo,
O'rmonchilik	O'rmonchilik	Yog'och ishlab chiqarish, mebelchilik
Charm va charm mahsulotlari	Shaxsiy charm buyumlar va chemodanlar, ayollar sumkalari, to'qimachilik sumkalari va kanvas buyumlari	Yetkazib berish-e-savdo; plastiklar ishlab chiqarish; oyoq kiyim ishlab chiqarish; tekstil; kiyim-kechak ishlab chiqarish; rekreatsion tovarlar ishlab chiqarish
Chorvachilik	Go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, chorvachilik mollari ulgurji savdosi	Yetkazib berish & e-savdo, plastiklar ishlab chiqarish
Tamaki ishlab chiqarish	Tamaki ishlab chiqarish	-
Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni qayta ishlash va tarqatish	Oziq-ovqat ulgurji savdosi, savdo va chakana savdo novvoyxonalari, chakana savdo do'konlari, tamaki chakana savdo do'konlari, pivo va likyor ulgurji savdosi, pivo, sharob va likyor chakana savdosi, sotish va to'g'ridan-to'g'ri sotish	-
Ishlab chiqarish texnologiyasi va og'ir mashinalar klasteri	Qishloq xo'jaligi va qurilish mashinalari va tarkibiy qismlari	-

¹⁶¹ <https://www.selectusa.gov/machinery-and-equipment-industry-united-states>

¹⁶² <https://www.selectusa.gov/agribusiness-industry-united-states>

¹⁶³ <https://www.clustermapping.us/cluster#clusters-list>; <https://www.clustermapping.us/cluster#related-clusters> asosida muallif tomonidan tuzildi.

AQShda klaster tizimlari yaxshi rivojlangan va agrosanoat klasterlari ham keng tarqalgan. Mamlakat agrosanoat klasterlarini 2.2.1-jadvaldagidek tizimlashtirish mumkin bo'lib, AQShda agrosanoat tarmog'i klasterlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, baliqchilik, o'rmonchilik, charm va charm mahsulotlari, chorvachilik, tamaki ishlab chiqarish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni qayta ishlash va tarqatish klasterlari tarmoqlari kiradi. O'z o'rnida mazkur klasterlar bir nechta quyi klasterlarga bo'linib, boshqa klaster tarmoqlari bilan hamkorlik qiladi. Agrosanoatning bir qismi sanaluvchi qishloq xo'jaligi va qurilish mashinalari va tarkibiy qismlari klasteri esa ishlab chiqarish texnologiyasi va og'ir mashinalar klasterining quyi tarmoqlaridan biri sanaladi.

Tadqiqot ishining 2-ilovasida mamlakatdagi agrosanoat majmui klasterlarining ixtisoslashuvi, ulardagi bandlik va shu sohadagi klasterlarga ixtisoslashgan hududlar haqida umumlashtirilgan ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, AQSh agrosanoat klasterlarida 6,7 mln.dan ortiq kishi band bo'lib, bu mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining deyarli 4,3 foizini¹⁶⁴ tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, charm va charm mahsulotlari, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni qayta ishlash va tarqatish klasterlarida band aholi soni bo'yicha Kaliforniya shtati yetakchilik qilsa, bu klasterlarga ixtisoslashuv, shuningdek, Aydaho, Vermont, Janubiy Dakota shtatlarida yuqori ko'rsatkichlarga egadir. Baliqchilik tabiiy ravishda Alyaskada, o'rmonchilik Oregonda, chorvachilik klasterlari Texas va Arganzasda, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish Shimoliy Karolinada, qishloq xo'jaligi va qurilish mashinalari va tarkibiy qismlari subklasteri esa Ayova shtatida yaxshi rivojlangan. Klaster tarmoqlari mavjud bo'lgan Nevada, Michigan, Shimoliy Karolina (tamakichilikdan tashqari), Gavaida agrosanoat klasterlari faoliyati sust rivojlangan. Umumiy qilib aytish mumkinki, Kaliforniya, Aydaho, Oregon shtatlari agrosanoat tarmog'ida yetakchi bo'lsa, Nevada shtati bu yo'nalishda nisbatan pastroq ko'rsatkichga ega.

AQShda agrobiznes klasterlarini moliyalashtirish manbalari va ilmiy-tadqiqot institutlari yaqinligi sababli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida innovatsiyalar yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar amalga oshiriladigan asosiy shtatlarga Kaliforniya, Illinois,

¹⁶⁴ <https://fred.stlouisfed.org/series/LFAC64TTUSQ647S> 2020-yilning 1-choragiga ko'ra AQShda 15-64 yoshdagi iqtisodiy faol aholi soni 153,048,322.33546 teng.

Missuri, Minnesota, Nyu-York, Nyu-Jersi, Indiana, Kanzas, Ogayo va Ayova kiradi¹⁶⁵.

Quyidagi jadvalda AQSh qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlarining bandlik, ish haqi va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha 5 ta yetakchi shtatlar haqida ma’lumot keltirilgan.

2.2.2-jadval

AQSh qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlarining ayrim ko‘rsatkichlari (shtatlar kesimida)¹⁶⁶

	Bandlik (kishi)		Yangi ish o‘rinlarini yaratish (kishi)		Ish haqi (\$ da)	
	1998	2018	1998-2018		2018	
AQSh	95,888	104,748	AQSh	8,860	AQSh	\$44,724
Kaliforniya	22,158	27,294	Kaliforniya	5,136	Luiziyana	\$84,955
Vashington	7,122	8,225	Oregon	1,664	Oklahoma	\$75,951
Florida	m/y	6,337	Vashington	1,103	Ayova	\$64,874
Texas	6,018	6,099	Ayova	1,037	Mississipi	\$60,648
Oregon	2,384	4,048	Viskonsin	1,029	Utah	\$59,090

2.2.2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 1998-2018-yillar davomida AQSh qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlari doirasida 8,860 ta yangi ish o‘rni yaratilib, 2018-yilda mazkur sohadagi agrosanoat klasterlarida 104,784 kishi band bo‘ldi. Klasterlarda bandlik hajmi bo‘yicha Kaliforniya, Vashington, Florida, Texas, Oregon yetakchi bo‘lsa, yangi ish o‘rinlarini yaratishda Kaliforniya, Oregon, Vashington, Ayova va Viskonsin ustunlik qilmoqda. Qiziqarlisi, bandlik bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turuvchi Texasda, so‘nggi yillarda mazkur sohada yangi ish o‘rinlarini yaratish hajmi past bo‘lib, 1998-2018-yillarda kutilgan 556 ta yangi ish joyi o‘rniga atigi 81 ta yangi ish o‘rni yaratilgandir. Mazkur yo‘nalishdagi klasterlardagi o‘rtacha ish haqi haqida gapiradigan bo‘lsak, mamlakatda o‘rtacha ish haqi 45 ming AQSh dollariga yaqin bir sharoitda, qishloq xo‘jaligi klasterlari yaxshi rivojlanmagan shtatlarda klasterlardagi oylik maoshlari nisbatan ancha yuqori. Misol uchun Kaliforniyada bunga teskari tendensiya bo‘lib, o‘rtacha maosh 41,168 AQSh dollariga teng va mamlakatdagi o‘rtacha darajadan pastdir.

¹⁶⁵ <https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states>

¹⁶⁶ https://www.clustermapping.us/cluster/agricultural_inputs_and_services#employment asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Umuman olganda aytish mumkinki, AQShda agrosanoat klasterlari xususiy sektorning tashabbusi natijasida tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarida vujudga kelib, bugungi kunda ular qishloq xo'jaligining innovativligini ta'minlash, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri sanaladi. Mamlakatda klasterlashtirishning liberal modeli qo'llanilib, klasterlar bozor iqtisodiyotining muhim instrumenti sifatida ham iqtisodiy ham ijtimoiy samara namoyon qilmoqda. Amerika agroklasterlarining eng yutuqli tomoni klasterlar doirasida ilmiy-tadqiqotlarning keng yo'lga qo'yilgani bo'lib, universitetlar hamda xususiy korxonalarning ushbu o'ziga xos kooperatsiyasi ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish hamda fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, birgina Kaliforniya vino klasteri doirasida vinochilikka bag'ishlangan ilmiy jurnallarning mavjudligi ham bu yo'nalishdagi ishlarning naqadar samarador ekanligidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda mamlakatdagi agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligi sohasida ta'lim, ITTKI, eksportni qo'llab-quvvatlash, TTXIning jalb qilish borasidagi an'anaviy iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshiradi, tezkor iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi, xususiy sektor, savdo assotsatsiyalari, davlat, ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlarining umumiy faoliyati uchun sharoit yaratadi, biznes va hukumatning konstruktiv muloqoti mexanizmi hisoblanadi, barcha turdagi firmalarni, shuningdek, o'rta va kichik biznes vakillarini ham birlashtiradi hamda agrosanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash, raqobat muhitini sog'lomlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Agrosanoat tarmog'i ko'pgina Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, bugungi kunda minataqada ko'plab yirik agrosanoat klasterlari faoliyat olib boradi. Yevropada agrosanoat 1850-yillardan rivojlana boshlagan¹⁶⁷ va bugungi kunda agrosanoat tarmog'i an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligi, baliqchilik va akvakultura hamda o'rmonchilikka bo'linadi¹⁶⁸. Yevropa Ittifoqida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish asosan kichik fermer xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilib, 2020-yilda qishloq xo'jaligining Yei YaIMdagi hajmi 1,3 foizni tashkil etdi (179,1 mlrd. yevro)¹⁶⁹ va agrosanoat tarmog'i tomonidan ishlab chiqarilgan

¹⁶⁷ Marijn M., Yves S., Erwin K. Introduction: Agribusiness Clusters in Europe, 19th and 20th Centuries. *Tijdschrift voor Sociale en Economische Geschiedenis* // *The Low Countries Journal of Social and Economic History*. – Amsterdam, 2016. – VOL. 13. – No. 4. –P.2.

¹⁶⁸ https://www.statista.com/topics/4150/agriculture-industry-in-europe/#dossierSummary__chapter5

¹⁶⁹ https://www.eumonitor.eu/9353000/1/j9vvik7m1c3gyxp/vlo6ng25okwy?ctx=v9pir5eze8o&start_tab0=10#:~:text=EU%20agriculture%20employment%20statistics,gross%20domestic%20product%20in%202020.

qo‘shimcha qiymat hajmi 177 mlrd yevroga teng bo‘ldi¹⁷⁰. Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘i esa 7245 ta sanoat korxonalarini o‘z ichiga olib, unda 173 mingdan ortiq kishi band va Yevropa mamlakatlari hissasiga jahon agromashinasozlik eksportining 64 foizi, importining 54 foizi to‘g‘ri keladi¹⁷¹.

Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalarni jalb etish, bu sohada ITTKIning ko‘paytirish, agrar sohani rivojlantirishda atrof-muhitni asrash konsepsiyaga va umuman barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga katta e‘tibor berilmoqda. Buning bir nechta sabablari bo‘lib, birinchidan, agrosanoat majmui qishloq jamoasining asosini tashkil etib (Yel ning 55 foiz aholisi qishloq joylarida yashaydi¹⁷²), unga bir qator tarmoqlar (mashinasozlik, veterenariya, dehqonchilik, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va transport korxonalari kabilar) bog‘liqdir. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi xavfsiz, sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror yetkazib berish, landshaft va bio xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, statistik ma‘lumotlarga qaraganda, agrosanoatda ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar narxiga sarflangan har bir yevro uchun yaratilgan qo‘shimcha qiymat (oraliq iste‘mol) 2017-yilda 0.77 yevroni, 2018-yilda esa 0.72 yevroni tashkil etgan¹⁷³ bir sharoitda, qishloq xo‘jaligining yillik ish birligiga keladigan daromadi 2020-yilda 1,5% pasaydi¹⁷⁴. Bu esa Yevropa Ittifoqida CAP (Common Agricultural Policy, Umumiy qishloq xo‘jaligi siyosati)ni rivojlantirish zarurariyatini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda esa, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Yevropa Klaster Observatoriyasining tasnifiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi klasterlari kichik sektorlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (ekinlar, chorvachilik mahsulotlari, urug‘lar, yog‘lar, shakar, alkohol, uzum va mevalardan vino, boshqa ichimliklar) hamda qishloq xo‘jaligi texnologiyasi klasterlariga bo‘linadi¹⁷⁵.

¹⁷⁰ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Performance_of_the_agricultural_sector


¹⁷¹ European Agricultural Machinery Industry 2019 CEMA Priorities and key figures. Advancing agricultural machinery and solutions for sustainable farming. – Brussels, 2019. –P. 6-7 (15)

¹⁷² The Future of Food and Farming. Communication from the commission to the European parliament, the council, the European economic and social committee and the committee of the regions. – Brussels, 29.11.2017 <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/GA/TXT/?uri=CELEX%3A52017DC0713>

¹⁷³ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php/Performance_of_the_agricultural_sector#Value_of_agricultural_output

¹⁷⁴ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Performance_of_the_agricultural_sector

¹⁷⁵ www.ерцир.рф>materialy>zarubejniy_opit/Справка по зарубежным сельскохозяйственным кластерам



2.2.1-rasm. YeI-27 klasterlarining sanoat tarmoqlari kesimidagi soni va hajmi haqida ma'lumotlar¹⁷⁶

Yuqoridagi rasmda YeI-27 ga kiruvchi mamlakatlardagi 468 ta klasterlarning sanoat tarmoqlari kesimidagi soni va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, undan ko'rishimiz mumkinki, agro-oziq-ovqat sanoati klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha mintaqada yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xususan, tarmoqda 51 ta klasterlar mavjud bo'lib, ularning 28 tasida 100 tagacha a'zo bo'lsa, 2 ta klasterda 500 dan ortiq ishtirokchilar mavjuddir. Mazkur klasterlarga umumiy hisobda 8686 a'zo birlashib, ularning 7 foizini ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, 76 foizini KO'B, 10 foizini yirik biznes hamda 7 foizini boshqa ishtirokchilar tashkil etadi¹⁷⁷.

Yevropa Klaster Panoramasini 2021 ga ko'ra mintaqadagi klasterlar aerokosmik va mudofaa, agro-oziq-ovqat, qurilish, kreativ sanoat va madaniyat, raqamli texnologiyalar, elektronika, energiya intensiv, sog'liqni saqlash, mobillik-transport, ijtimoiy soha, qayta tiklanuvchi energiya, chakana savdo, tekstil va turizm ekotizimlari doirasida tahlil qilingan bo'lib, agrosanoat klasterlari agro-tekstil hamda agro-turizm mintaqalariga ajratilgan holda ko'rib chiqilgan. Mazkur tadqiqotlarga ko'ra YeI-27ning ba'zi Sharqiy va Janubiy mamlakatlarida agro-oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashuv yuqori bo'lgani bilan, ham ixtisoslashuv, ham yuqori bandlik faqatgina ayrim mamlakatlarda uchraydi (Ruminiya). Yuqori bandlik ko'rsatkichlari past ixtisoslashgan hududlar (masalan Andalusiya) va Germaniyaning ayrim mintaqalarida qayd etilsa, ishlab chiqarish samaradorligi Sharqiy va O'rta yer, Île-de-France, Shimoliy-Markaziy

¹⁷⁶ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.19.

¹⁷⁷ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.103-105.

Shvetsiya hamda Baskoniya o'lkasidagi ixtisoslashmagan hududlarda qayd etilgan¹⁷⁸.

Bugungi kunda, Yevropa mintaqasining 37 ta hududi agro-tekstilga ixtisoslashgan bo'lib, ularda 79 ta klasterlar faoliyat olib borsa, agro-turizmga ixtisoslashgan 22ta hududda 18 ta klaster mavjuddir (2.2.2-rasm).

Agro-tekstilga ixtisoslashuv	Agro-turizmga ixtisoslashuv
• 37 hudud • 79 klaster • Asosan Janubiy va Sharqiy Yevropa davlatlarida, xususan Italiya (Shimoliy va Janubiy mintaqalardan 10 tadan hudud), Ispaniya, Ruminiya va Bolgariya (har biri 5 tadan), Polsha (3 ta hudud), Portugaliya (3 ta hudud), Gretsiya, Litva, Avstriya va Vengriyadan bittadan hudud ixtisoslashgan	• 22 hudud • 18 klaster • Asosan Janubiy Yevropa davlatlarida, xususan Gretsiya (11 hudud, guruhning 50%), Portugaliya (3 hudud), Ispaniya (2 mintaq) va Avstriya, Finlandiya, Kipr va Xorvatiyadan bittadan hudud.

2.2.2-rasm. YeI-27 mintaqalarining agro-tekstil hamda agro-turizmga ixtisoslashuvi (2021)¹⁷⁹

Quyidagi 2.2.3-jadvalda YeI-27ning agrosanoatga ixtisoslashgan hududlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari agro-tekstil hamda agro-turizm ekotizimlari misolida keltirilgan. Yevropa Klaster Panoramasi 2021ga ko'ra, mazkur ixtisoslashgan hududlarni raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari boshqa ixtisoslashuv tarmoqlari (energiya/sanoat, raqamli/kreativ/qurilish, sog'liqni saqlash, elektronika/mobillik, ixtisoslashmagan/ diversifikatsiyalashgan)dagi klasterlarning ko'rsatkichlaridan ancha past hisoblanadi. Xususan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM mazkur ixtisoslashuv hududlarida 21-24 ming yevro atrofida bo'lsa, kreativ sanoat/raqamli texnologiyalar/qurilishga ixtisoslashgan hududlarda bu ko'rsatkich 46 ming yevro atrofidadir. Shuningdek, bandlik darajasi ham kreativ sanoat/raqamli texnologiyalar/qurilish (75.2%), energetika/sanoatga ixtisoslashgan hududlarda (71.1%) yuqoriroqdir.

Agrosanoatga ixtisoslashgan mazkur klasterlar joylashgan hududlar faqatgina yashil PCT patentlar bo'yicha mintaqada yetakchi, energiya ishlab chiqarishning bir birligiga to'g'ri keladigan CO₂ emissiyasi hamda qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan energiya ko'rsatkichlariga ko'ra esa yuqoriroq o'rinlarni egallaydi.

¹⁷⁸ O'sha manba. – P.46.

¹⁷⁹ O'sha manba. – P.58 asosida shakllantirildi

2.2.3-jadval

**Agrosanoatga ixtisoslashgan hududlarning raqobatbardoshlik
ko'rsatkichlari¹⁸⁰**


Ko'rsatkichlar	Agro-tekstilga ixtisoslashuv	Agro-turizmga ixtisoslashuv
Klasterlar joylashgan hududlar soni	37	22
Klasterlar soni	79	18
Agro-ozuq ovqat sanoatidagi o'rtacha LQ	2.37	1.68
Alohi jon boshiga YaIM (PPP, yevro)	21.030	24.980
Uzoq-muddatli ishsizlik darajasi, %	3.8	6.7
Mehnat unumdorligi, %	49.8	55.6
Bandlik darajasi, %	64.2	63.6
1 mln.kishiga nisbatan PCT patentlar soni	32.9	16.9
Yashil PCT patentlar	7.7	1.8
Energiya ishlab chiqarishning bir birligiga to'g'ri keladigan CO ₂ emissiyasi hajmi	313.1	270.7
Biznesning ITTKI xarajatlari	0.82	0.85
Qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan energiya	46	61
Davlatning ITTKI xarajatlari	0.3	0.5
To'liq o'rta yoki oliy ma'lumotli 25-64 yoshdagi aholi	69.6	70.3
Hukumatning sifati	-0.9	-0.7

Monografiya ishining 3-ilovasida Yevropa Klaster Observatoriyasi ma'lumotlariga ko'ra agrosanoat klasterlari ro'yxati berilgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va agro xizmatlar klasterlari, baliqchilik va baliq mahsulotlari klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish klasterlari, o'rmonchilik va yog'och mahsulotlari klasterlari hamda chorvani qayta ishlash klasterlariga bo'lingan. Fransiya, Ispaniya (Kataloniya), Italiya, Gollandiya, Polsha (Mazowieckie), Germaniya, Latviya (Latvija), Ruminiya (Centru) kabi mamlakatlarda agrosanoat klasterlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va agro xizmatlar klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish klasterlari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterlari faoliyat olib

¹⁸⁰ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.77 asosida shakllantirildi

bormoqda. Klasterlarning deyarli barchasi diversifikatsiyalashgan bo‘lib, faqat agrosanoatning bir yo‘nalishida faoliyat olib boradigan klasterlar kam sonli sanaladi. Ta’kidlash lozimki, Yevropa mamlakatlaridan Fransiya va Ispaniyaning agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish tajribasiga qisqacha nazar tashlash dolzarbdir.

Fransiya Yevropa mamlakatlari ichida agrosanoat klasterlari, xususan oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash klasterlari yaxshi rivojlangan mamlakatlardan biri sanaladi¹⁸¹. Klasterlar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan Global Innovation Index 2017da Parij dunyoning eng rivojlangan 10 klaster shaharlari ichidan o‘rin egallagan¹⁸². Fransiya klasteri tizimi bugungi kunda 56 ta raqobatlashuv polyuslari, 2000 laboratoriyalar, 10 ming innovatsion korxonalarni birlashtirib, 2004-yildan buyon klasterlarning innovatsion loyihalariga 7,5 mlrd.AQSh dollaridan ziyod investitsiya kiritilgan (davlatning kiritgan har 1 yevrosiga 2,5 yevro xususiy investitsiyalar to‘g‘ri keladi¹⁸³. Shuningdek, 2019-yilda mamlakat hukumati tomonidan 2019-2022-yillarda rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun 48 raqobatbardosh klasterlar tanlab olingan¹⁸⁴ bo‘lib, ularning 5 tasida a’zolar soni 100 tagacha bo‘lsa, 9 tasida 500 tadan ko‘pdir¹⁸⁵.



2.2.3-rasm. Fransiyada raqobatbardosh klasterlarni shakllanish evolyutsiyasi¹⁸⁶

Mamlakatda klasterlar, ya’ni raqobatbardoshlik polyuslarining rivojlanishida boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq davlatning roli kuchli

¹⁸¹Competitive Regional Clusters: National Policy Approaches. OECD reviews of regional innovation. – OECD, 2007. – P. 185.

¹⁸²Cornell University, INSEAD, and WIPO. The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World. Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2017. –P. 171.

¹⁸³ <https://www.entreprises.gouv.fr/fr/innovation/poles-de-competitivite/presentation-des-poles-de-competitivite>

¹⁸⁴ <https://www.eurofound.europa.eu/fr/observatories/emcc/erm/support-instrument/poles-of-competitiveness>

¹⁸⁵ European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – P.104

¹⁸⁶ Muallif tomonidan shakllantirildi.

bo‘lib, mamlakatda “dirijist” klaster boshqaruvi amal qiladi. Fransiyada agrosanoat klasterlarining shakllanishini qo‘llab-quvvatlash davlat tomonidan maxsus dasturlar orqali moliyalashtirish bilan amalga oshiriladi. Ayniqsa 2005-yili ishga tushirilgan “Pôles de compétitivité” dasturi agrosanoat klasterlarining yanada rivojlanishiga hamda raqobatbardosh klasterlarning vujudga kelishiga katta maydon yaratdi. Mamlakatda hukumat va mahalliy hokimiyatlar shuningdek, agrosanoat klasterlariga xalqaro hamkorlarni yoki mahalliy aktorlarni topishga yordam beradi. Fransiyada agrosanoat klasterlari qishloq xo‘jaligining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik imkoniyatlarini innovatsiyalar orqali oshirish mexanizmi sanalib¹⁸⁷, global qishloq xo‘jaligiga qo‘yilayotgan talablarga javob berish omili sanaladi.

Yevropada qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan va bir nechta agrosanoat klasterlari mavjud mamlakatlardan biri Ispaniya hisoblanadi. Mamlakatning Kataloniya (agrosanoat), Baskoniya¹⁸⁸ (maishiy texnika, mashinasozlik vositalari, avtomobilsozlik, elektronika va axborot texnologiyalari, dengizchilik va energetika) viloyatlarida yirik, rivojlangan klasterlar mavjud bo‘lsa, Navarra va Baleares viloyatlarida yangi klasterlar vujudga kelmoqda¹⁸⁹. Ayniqsa Kataloniya agrosanoat klasterlari, misol uchun Murcia oziq-ovqat klasteri¹⁹⁰ nafaqat mamlakat, balki butun Yevropa mintaqasining agrosanoat sektorida muhim sanaladi. Mamlakatda klaster tashabbuslari siyosati so‘nggi 25 yil davomida olib borilayotgan bo‘lsada, ko‘pgina klasterlarning vujudga kelishi uzoqroq davrga borib taqaladi (misol uchun Kataloniya zaytun yog‘i klasteri 1890-yillardan faol rivojlana boshlagan¹⁹¹) va bugungi kunda mamlakatda 75 ta iqtisodiy klasterlar mavjuddir.

Ispaniyada samarador faoliyat olib boruvchi agrosanoat klasterlari bo‘yicha Kataloniya yetakchilik qiladi. Kataloniyada klasterlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash tashabbuslari 1992-yildan boshlangan va klaster siyosatining maqsadi biznes raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu klasterlarning muvaffaqiyatiga davlat va xususiy sektor

¹⁸⁷ www.smartagrihubs.eu/regional-cluster/france

¹⁸⁸ Konstantynova A. Basque Country cluster policy: the road of 25 years // *Regional Studies, Regional Science*, 2017. – No. 4. – P.111.

¹⁸⁹ https://www.diariodenavarra.es/noticias/negocios/dn_management/opinion_management/2017/04/20/clusters_donde_unen_competencia_cooperacion_527653_2545.html

¹⁹⁰ Jolanta S., Patrocinio S.Z., Bartolome M. Clusters into Poland and Spain: comparative case study of two clusters from the agricultural industry // *Экономика: реалии времени*, 2016. – №2 (24). – P.6 <https://cyberleninka.ru/article/n/clusters-into-poland-and-spain-comparative-case-study-of-two-clusters-from-the-agricultural-industry>)

¹⁹¹ Ramon M. The growth of an agribusiness cluster in Catalonia: Evidence from the olive oil industry // *Tijdschrift voor Sociale en Economische Geschiedenis*. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2016. –Vol. 13(4). – P. 43.

hamkorligi sabab bo'ldi. Kataloniya klaster siyosati 4 ta muhim ustunlarga tayanadi¹⁹²:

- xalqaro hamkorlik (xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xalqaro maydonda klasterlararo hamkorlikni rivojlantirish);
- klaster dasturlarini doimiy takomillashtirib borish (innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, doimiy yangilanishlar orqali tajribani oshirib borish, davlat va xususiy sektor hamkorligini ta'minlash va sh.k.);
- baholash va faoliyatni yoritish (baholash me'zonini o'rnatish, klaster doirasidagi tadbirlarni yoritish, "World class clusters" dasturi veb-sahifasini olib borish);
- strategik o'zgarishlar va klasterlararo hamkorlik (raqabatbardoshlikning asosi sifatida tarmoqlararo va klasterlararo strategik o'zgarishlarni amalga oshirish; grantlar ajratish).

Shuningdek, mintaqada 2013-yildan buyon Kataloniya Klaster dasturi ham olib borilib, dastur mintaq klasterlariga strategik murabbiylik qilish, internatsionalizatsiyani qo'llab-quvvatlash, salohiyatni oshirish, strategik yangilanishni qo'llab-quvvatlash, networkingni yo'lga qo'yish va hamkorlik maydonini yaratishga imkon beradi. Bugungi kunda dasturga 29 ta klaster (2200 firmalar, 309 ming ishchilar) a'zodir. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha Kataloniya Klaster dasturiga AINS (Ovatlanish va sog'liqni saqlash), CATALONIA GOURMET (gastronomik), FOODSERVICE CLUSTER, INNOVACC (cho'chqa go'shti klasteri), INNOVI (Vino klasteri) kabi klasterlar kiradi¹⁹³.

Shunday qilib aytish mumkinki, Ispaniya agrosanoat klasterlari, ayniqsa Kataloniya viloyati Yevropa mintaqasi iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, mamlakat klasterlari makkajo'xori, arpa, yem-xashak, mevali daraxtlar, uzum va zaytun kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlashda yetakchi sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yevropa Ittifoqida klasterlar agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va innovativligini ta'minlash instrumenti sifatida keng qo'llanilib, agroklasterlar milliy va transmilliy darajada qishloq xo'jaligining barqarorligini, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhit va iqlim o'zgarishlariga moslashishda muhim o'rin tutadi. Yevropa mamlakatlarida AQShdan farqli o'laroq, klasterlarning vujudga kelishi va rivojlanishida davlat-xususiy sektor sherikchiligi muhim rol o'ynagandir. Mintaqaning agrosanoat klasterlari rivojlangan mamlakatlariga Fransiya (Luara vodiysi, Burgundi, janubi-

¹⁹² <https://www.clustercollaboration.eu/cluster-networks/catalonias-cluster-network>

¹⁹³ <https://www.clustercollaboration.eu/cluster-networks/catalonias-cluster-network>

g'arbiy viloyatlar), Ispaniya (Kataloniya, Baskoniya viloyatlari), Ruminiya (Centru viloyati), Polsha (Lyublin viloyati), (Gollandiya (gulchilik), Daniya (oziq-ovqat sanoati), Norvegiya (o'rmonchilik), Germaniya (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) kabilarni kiritish mumkindir. Misol uchun, birgina Daniya oziq-ovqat klasteri hissasiga mamlakat oziq-ovqat sanoati aylanmasining 75 foizi tog'ri keladi.

Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlar ichida klasterlashtirish yondoshuvini jadal targ'ib etayotgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda bugungi kunda oziq-ovqat sanoati, sabzavotchilik, gulchilik hamda chorvachilik klasterlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Xitoyda klasterlar asosan qishloq xo'jaligi, yuqori texnologik tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarida tashkil etilgandir. Mamlakat klasterlarining geografik joylashuviga nazar tashlasak, ularning asosiy qismi mamlakatning sharqiy qismida joylashganini ko'ramiz. Klasterlarning katta qismi Jiangsu, Shanghai, Zhejiang, Fujian va Guangdong provinsiyalarida joylashgan bo'lsa¹⁹⁴, zamonaviy qishloq xo'jaligi klasterlari Shandun, Pekin, Chansheda rivojlangandir¹⁹⁵.

Xitoyda klasterlashtirish va sanoatning mahalliy konsentratsiyalashuvi o'tgan asrning 80-yillarida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllantirilishi bilan boshlandi. "Ochiq eshiklar" siyosati natijasida mamlakatning ba'zi hududlari xorijiy investorlar va xalqaro savdo uchun ochildi¹⁹⁶. 1989-yilda esa mamlakatda "bir shahar, bir mahsulot" rejasi amalga oshirila boshlandi va mamlakat hududlarida ishlab chiqarishning va aholining kamida 30 foizi aynan bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi belgilandi. Natijada bugungi kunda kelib Xitoy klasterlari deganda nafaqat ma'lum hududda to'plangan sanoat korxonalari, firmalar, universitetlar, tadqiqot institutlari birlashmasi, balki butun boshli shaharlar ham tushuniladi¹⁹⁷. Umuman olganda mamlakatdagi agrosanoat aglomeratsiyalarining tadrijiy rivojlanishini 4 bosqichga bo'lish mumkin (2.2.4-rasm).

2.2.4-rasmdan ko'rinib turganidek, Xitoyda agrosanoat klasteri tabiiy aglomeratsiyalarning biror turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hamda qishloq xo'jaligining sanoatlashuvi


¹⁹⁴ Wang J., Mei L. Dynamics of labour-intensive clusters in China: Relying on low labour costs or cultivating innovation? Working paper // Discussion Paper Series, International Office for Labour Studies. – Geneve: International Labour Organization, 2009. – Vol. 195.

¹⁹⁵ <http://chinalogist.ru/book/articles/obzory/proizvodstvenno-logisticheskie-klastery-knr-specializaciya-i-proizvodstvo>

¹⁹⁶ Demurger S., Sachs J., Woo W., Bao S., Chang G. The relative contributions of location and preferential policies in China's regional development: Being in the right place and having the right incentives // China Economic Review, 2002. – Vol. 13, No. 4. – P. 447–448.

¹⁹⁷ Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // Research papers of Wrocław University of Economics. – Wrocław: Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu, 2017. – No. 486. – P. 76-77.

natijasida vujudga kelgan. Bu bosqichda ayniqsa mahalliy xalq kongresslarining roli kuchli bo'lgan. Uy xo'jaliklarining shartnoma bo'yicha javobgarlik tizimi, bozor iqtisodiyoti tamoyillarining kengroq tadbiq etilishi, soliq imtiyozlari, yerlarning meliorativ holatiga ko'ra qanday turdagi mahsulot ishlab chiqarishga mosligini aniqlash va taqsimlash orqali keng miqyosli mintaqaviy qishloq xo'jaligi vujudga keldi.



2.2.4-rasm. Xitoyga agrosanoat klasterlarining shakllanish bosqichi sxemasi¹⁹⁸

Ta'kidlash lozimki, klasterlarni shakllantirishning “xitoycha modeli” “fransuzcha” yondoshuvga asoslanadi hamda biznes hamkorlik rasmiy tuzilmalar homiyligi ostida amalga oshiriladi. Xitoy klaster modelida klasterlarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashda hukumat muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda klaster siyosati ham markaziy ham mahalliy hukumat tomonidan ishlab chiqiladi.

Xitoy markaziy hukumati Milliy taraqqiyot va islohotlar komissiyasi (NDRC) tomonidan e'lon qilingan sanoat klasterlarini rivojlantirishga yordam berish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq klasterlarni doimiy rivojlantirishga intiladi. 1988-yilda Xitoy hukumati tomonidan tasdiqlangan Xitoyning yangi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarini rivojlantirish bo'yicha tashabbusiga asoslangan TORCh dasturi klasterlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan eng muhim dasturlardan biri sanaladi¹⁹⁹.

¹⁹⁸ Li E., Coates K., Li X., Ye X., Leipnik M. Analyzing Agricultural Agglomeration in China // *Sustainability*. – Basel, 2017. – № 9(2), 313. – P.12. (<https://doi.org/10.3390/su9020313>).

¹⁹⁹ <https://www.clustercollaboration.eu/international-cooperation/china>

Shuningdek, 2007-yilda Islohotlar va Rivojlanish Milliy Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan strategiyada klasterlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qayd etilgan²⁰⁰.

Ta'kidlash joizki, XXRda agro klasterlar borasidagi tadqiqotlar XXI asrning boshlaridan, xususan 2003-yildan keyin boshlangan²⁰¹. G'arbiy mamlakatlardagi qishloq xo'jaligi klasterlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, Xitoyda tadqiqotlar hali ham boshlang'ich davrda bo'lib, ko'pgina tadqiqotlar qishloq xo'jaligidagi klasterlarni aniqlash, shakllantirish mexanizmi, tasnifi va muammolari, shuningdek qishloq xo'jaligidagi hukumatning roli masalalariga bag'ishlangan²⁰².

Bugungi kunda Xitoy qishloq xo'jaligi tarmog'i zamonaviy qishloq xo'jaligini rivojlantirish bosqichidadir. Qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish Xitoyda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha uzoq muddatli maqsadni amalga oshirish uchun eng muhim rivojlanish strategiyalaridan biri sifatida qabul qilingan. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi klaster qishloq xo'jaligini sanoatlashtirishning rivojlanish shakli, qishloq xo'jaligidagi klasterlarni rivojlantirish esa agrar sektorni rivojlantirishning ichki talabi, agrar sektorning o'sishida muhim yondashuvdir²⁰³. Iqtisodchi olimlar Xitoyda qishloq xo'jaligi klasterlarining shakllanishiga olib keladigan real asoslar va omillarni tahlil qilganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirishdagi yutuqlar va fermerlarning tadbirkorlik faolligi, qishloq joylaridagi tadbirkorlik, agro-ozuq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab, bozor raqobati, qishloq xo'jaligi resurslarning notekis taqsimlanishi kabi omillarini keltirib o'tadilar.

Xitoyda agro klasterlarning bir nechta turlari bo'lib, klasterlar dominant ishtirokchisi, tarkibi va rivojlanish muhitiga ko'ra turlarga ajratilgandir (2.2.5-rasm). Bunda ayniqda "ajdar boshli korxona"larning mavjudligi o'ziga xos bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki tarqatishga ixtisoslashgan va fermerlarga bozorga chiqishni tashkil eta oladigan kompaniyalar sanaladi²⁰⁴.

²⁰⁰ Lopez-Medina F. Cluster policies in two emerging economies: Mexico and China, Korea // Review of International Studies, 2010. –Vol. 13, No.2.


²⁰¹ Teng Z., Wang H. Review of the study on Sino-foreign agricultural industrial clusters // Ludong University Journal (Natural Science Edition). – Yantai, 2012. –Vol. 28. – P.81-87.

²⁰² Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.36.

²⁰³ Cao Q., Yan Z., Chu F., Tang Y. The current situation and countermeasure of development of agricultural clusters in China //Jiangsu Agricultural Sciences, 2010. – No.6. – P. 608-610.

²⁰⁴ Wang Y. The development modes of agricultural clusters // Journal of Anhui Agricultural University (Sci. Sci.). – Hefei, 2009. –No.18. – P.23-26.

Qayd etish lozimki, XXR iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida ham keng xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygandir. Xitoy Yelning Yevropa strategik klaster hamkorligi – “Going international (ESCP-4i)”da ishtirok etuvchi 7 ta maqsadli tanlangan davlatlardan biri sanalib, hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sanaladi²⁰⁵.



2.2.5-rasm Xitoyda agroklastarlarning turlari va tiplari²⁰⁶

Iqtisodchi E.Lining fikricha mamlakatda agroklastarlar qishloq xo‘jaligining aglomeratsiyalari, ixtisoslashgan qishloqlarning sanoat klasterlariga aylanishi va qishloq joylarida ham innovatsion polyuslarning vujudga kelgani natijasida yuzaga kelgan. Ayni damda aynan innovatsion

²⁰⁵ <https://www.clustercollaboration.eu/international-cooperation/china>

²⁰⁶ Ying C. Growth of agricultural clusters in the new stage of development // Issues in Agricultural Economy, 2006. – No.3. – P.5-7 asosida tuzildi.

tizim fermalarning rivojlanishi, agrosanoat klasterlarining shakllanishida muhim bo'lib, agro innovatsion tizim agrosanoat klasterlarining yetuklik darajasini belgilab beradi²⁰⁷. Shuningdek, hukumatning moliyaviy yordami sanoat klasterining innovativligiga ulkan ta'sir o'tkazib, agrosanoat klasterlarining rivojida ham muhim rol o'ynaydi²⁰⁸.

Ammo, ta'kidlash joizki, mamlakatda qishloq xo'jaligi klasterlarining rivojlanishi bilan bog'liq bir qancha muammolar ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkindir²⁰⁹:

- klaster o'zining aniq mintaqaviy xususiyatlariga ega emas hamda ko'pincha bir xil yoki o'xshash sanoat tarmog'i mavjudligi klaster ichida haddan ziyod raqobatga olib keladi;

- kuchli raqobatbardosh, bozorga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun katta miqdordagi kichik fermerlarni tashkil qilish uchun kuchli imkoniyatlarga ega qishloq xo'jaligini boshqaradigan ajdar boshli korxonalar yetishmaydi;

- qishloq xo'jaligi klasterlarida texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati hali ham zaif va texnologiya darajasi hali ham past darajada;

- klasterning ichki tashkiliy qobiliyati zaif, ichki foydali biznes muhitini yaratish qiyin. Qishloq xo'jaligi klasteri ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik yetishmaydi va klasterning sinergetik ta'sirini kamaytirgan holda, o'zaro bog'liqlik yaxshi yo'lga qo'yilmagan;

- qishloq xo'jaligi korxonalari ko'pincha moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Qo'llab-quvvatlovchi muassasalar va kommunal xizmat ko'rsatish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Umumiy qilib aytish mumkinki, Xitoy klaster siyosati o'ziga xos bo'lib, bunga mamlakat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tizimining o'ziga xosligi sababdir. Shuning uchun ko'pgina iqtisodchi olimlar Xitoy klaster modelini boshqa mamlakatlarda qo'llash murakkab deb hisoblaydi. Xitoy klaster siyosatida asosiy figura bu hukumat bo'lib, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish mahalliy va markaziy hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda agrosanoat klasterlarining faol rivojlantirilishiga global

²⁰⁷ Li E. The Formation, Evolution and Innovative Development of Agricultural Clusters in China: Case of the Cluster Nature of "Shouguang Mode" // SCIENTIA GEOGRAPHICA SINICA. – Cahngchung, 2020. – №. 40(4). – P. 617-627. (<http://geoscienc.neigae.ac.cn/EN/10.13249/j.cnki.sgs.2020.04.014>)

²⁰⁸ Shi Y., Li E., Li X. Innovation efficiency and influencing factors: analysis of 32 enterprises in the Shouguang vegetable industrial cluster of Shandong Province // PROGRESS IN GEOGRAPHY, 2014. – No. 33(7). – P. 1000-1008 (<http://www.progressingography.com/EN/10.11820/dlxjz.2014.07.015>)

²⁰⁹ Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. – Rome, 2013. – P.36-37.

miqyosda tabiiy resurslarning kamayishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talabning keskin o‘sishi va qattiq raqobatning mavjudligi sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini barqaror yetkazib berish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Xitoyda agro klasterlar esa aynan shu maqsadda kengaytirilmoqdadir.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda Xitoyning agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlarini qiyosiy tahlili berilgan. Mazkur jadvalda mamlakatlarning klaster modellari xususiyatlari, agrosanoat klasterlarining xususiyatlari hamda klasterlar yaxshi rivojlangan hududlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Undan ko‘rishimiz mumkinki, AQSh, Yevropa mamlakatlarida va Xitoyda qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish o‘tgan asrning 90-yillaridan faol qo‘llanila boshlangan. AQShning klaster modeli geografik yaqin joylashgan korxonalar, hududiy ixtisoslashuv asosidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan xarakterlansa, Yevropa modeli turli xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchi raqobatdosh firmalarning chegaralangan hududda to‘planishi, xorij uchun maxsus marketing siyosatini yuritish bilan tavsiflanadi. Xitoy modeli esa “fransuzcha” yondoshuvga asoslanadi hamda biznes hamkorlik rasmiy tuzilmalar homiyligi ostida amalga oshiriladi. Ta’kidlash lozimki, har 3 ta mintaqada ham klasterlar raqobat ustunliklari mavjud bo‘lgan sohalarda aholining uzoq yillik qishloq xo‘jaligini yuritish tajribasi asosida shakllangandir.

2.2.4-jadval

AQSh, Yevropa mamlakatlari va Xitoyning agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlarining qiyosiy tahlili²¹⁰

Ko'rsatkichlar	AQSh	YEVROPA ITTIFOQI	XXR
Klasterlash. faol qo'llanilishi	1990-yillar	1990-yillar	1985-1990-yillar
Klaster modeli	geografik yaqin joylashgan korxonalar, hududiy ixtisoslashuv asosidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi	turli xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchi raqobatdosh firmalarning chegaralangan hududda to'planishi, xorij uchun maxsus marketing siyosatini yuritish bilan tavsiflanadi	“fransuzcha” yondoshuvga asoslanadi hamda biznes hamkorlik rasmiy tuzilmalar homiyligi ostida amalga oshiriladi
Klasterlarning xarakteristikasi	mintaqaviy iqtisodiyotlarni rivojlantirish strategiyasining asosi; hamkorlik, ITTKIni kommersalizatsiya qilish tamoyiliga asoslanadi; agrobiznes klasterlari moliyalashtirish manbalari va ilmiy-tadqiqot institutlari yaqinligi sababli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida innovatsiyalar yaxshi rivojlangan; Asosan monokulturaga asoslangan agrosanoat klasterlari rivojlangan va klasterlarning rivojlanishi asosida raqobat va uzoq yillik tajriba yotadi	mamlakatlar iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim mexanizmi sanaladi; organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni jalb etish, agrar sohani rivojlantirishda atrof-muhitni asrash konsepsiyasiga asoslanadi; Klasterlarning vujudga kelishi va rivojlanishida hukumat va mahalliy hokimiyatning qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynagan; klasterlar uzoq yillar davomida mahalliy aholining tajribasi asosida rivojlanib kelgan	klasterlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qayd etilgan; klasterlarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashda hukumat muhim rol o'ynaydi; Xitoyda agrosanoat klasterlari tabiiy aglomeratsiyalarning biror turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hamda qishloq xo'jaligining sanoatlashuvi natijasida vujudga kelagandir
Klasterlar yaxshi rivojlangan hududlar	Kaliforniya, Aydaho, Vermont, Janubiy Dakota, Vermont. Viskonsin, Ayova, Illinois Nyu Orlean, Texas, Arganzas, Shimoliy Karolina	Fransiya (Luara vodiysi, Burgundi, janubi-g'arbiy viloyatlar), Ispaniya (Kataloniya, Baskoniya viloyatlari), Ruminiya (Centru viloyati), Polsha (Lyublin viloyati), (Gollandiya (gulchilik), Daniya (oziq-ovqat sanoati), Norvegiya (o'rmonchilik), Germaniya (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash)	Jiangsu, Shanghai, Zhejiang, Fujian, Guangdong, Shandun, Pekin, Chanshe, Dunan

²¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

AQShdan farqli o'laroq Yevropa mamlakatlarida bu jarayonda davlat-xususiy sektor hamkorligi muhim o'rin egallagan bo'lsa, Xitoyda agrosanoat klasterlari tabiiy aglomeratsiyalarning biror turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hamda qishloq xo'jaligining sanoatlashuvi natijasida vujudga kelgandir.

2.3-§. Xorijiy mamlakatlardagi raqobatbardosh agrosanoat klasterlar faoliyati tahlili

AQSh, Yevropa Ittifoqi hamda XXRda bugungi kunda samarador faoliyat olib boruvchi agrosanoat klasterlari ko'p bo'lib, ular nafaqat mahalliy daraja yoki mamlakat miqyosida, balki global raqobatda ham bir qancha ustunliklarga egadir. Quyida mazkur mamlakatlarda samarali ish olib borayotgan bir qancha raqobatbardosh klasterlar faoliyatini tahlil qilamiz.

Quyidagi rasm (2.3.1-rasm)da AQSh shtatlari va shaharlarining agrosanoat klasterlariga ixtisoslashuvi ko'rsatilgan bo'lib, undan ko'rishimiz mumkinki, Kaliforniya, Aydaho, Oregon shtatlarida agrosanoat klasterlari rivojlanishi bo'yicha yetakchilik qiladi hamda Viskonsin, Ayova, Illinois qishloq xo'jaligi mashinasozligiga, Vichita va Boyse qishloq xo'jaligi uskunalari, Oregon o'rmonchilik uskunalari, Nyu Orlean oziq-ovqat sanoati, Providens baliqchilik uskunalari ixtisoslashgandir.


AQShda agrosanoat klasterlari yaxshi rivojlangan sohalardan biri vino ishlab chiqarish sanoati hisoblanadi. Mamlakatda vinochilik Kaliforniya, Vashington, Oregon, Nyu York, Virjiniya kabi shtatlarda rivojlangan bo'lib, Kaliforniya shtati bu yo'nalishda yaqqol yetakchilik qiladi. 1998-2018-yillar oralig'ida Kaliforniya vino klasteri doirasida 16 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilib, bugungi kunda klaster doirasida 33 mingga yaqin kishi band sanaladi²¹¹. Kaliforniyada vinochilik XVIII asrdan shakllanishni boshlagan va XIX asrga kelib hududdagi dastlabki tijoriy vinochilikka asos solingan. 1968-1972-yillarda AQShda vino iste'moli hajmi ikki barobar oshib, 1976-yilga kelib Kaliforniya vinosi Yevropa sifat standartini qo'lga kiritgan²¹². Bugungi kunga kelib, Kaliforniya hissasiga mamlakatda ishlab chiqariladigan vinoning deyarli 81 foizi to'g'ri keladi²¹³ va Kaliforniya dunyodagi 4-eng yirik vino ishlab chiqaruvchi hudud sanaladi²¹⁴.

²¹¹ https://www.clustermapping.us/region-cluster/food_processing_and_manufacturing/state/california

²¹² Настин А.А. Зарубежный опыт развития аграрных кластеров // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. –Москва, 2010. (<http://naukarus.com/zarubezhnyy-opyt-razvitiya-agrarnyh-klasterov>)

²¹³ <https://wineinstitute.org/our-industry/statistics/california-us-wine-production>


²¹⁴ <https://discovercaliforniawines.com/media-trade/statistics/>



2.3.1-rasm. AQSh shaharlarining agrosanoat klasterlariga ixtisoslashuvi²¹⁵

Quyidagi 2.3.2-rasmda Kaliforniya vino klasterining tashkiliy tuzilmasi berilgan bo'lib, undan ko'rishimiz mumkinki, vino klasteri uzum yetishtirish hamda vino ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ishlab chiqaruvchilar, boshqa elementlarni (o'g'itlar, idishlar, qopqoqlar va sh.k.) ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, uzumchilik va vinochilik texnikalari, shuningdek turizm klasteri, oziq-ovqat klasteri hamda davlat idoralari va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Klaster uzum yetishtirish tomonidan Kaliforniya agro klasteri bilan uzviy bog'liq bo'lsa, vino ishlab chiqarish tomonidan Kaliforniya oziq-ovqat sanoati, Napa turizm klasteri hamda mintaqaning vino ishlab chiqaruvchi regionalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek ko'rishimiz mumkinki, klaster doirasida Kaliforniya Davis universiteti uzumchilik va enologiya yo'nalishi hamda Kaliforniya senati va assambleyasining maxsus agentligi ham faoliyat olib boradi. Bu esa klasterda ilmiy-tadqiqotlar va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamligini bildiradi.

²¹⁵Xarita <http://www.clustermapping.us/content/clusters-101> asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



2.3.2-rasm. Kaliforniya vino klasteri²¹⁶

Kaliforniya shtatining 58 okrugidan 46 tasida uzum yetishtirilib, ekin maydonlari San-Fransisko shimolidagi Mendokinodan Los-Anjels shimolidagi Santa-Barbara tomon cho‘zilgandir. Mintaqada vinochilik Uzoq Shimol, Ichki Vodiylar, Shimoliy qirg‘oq, Sierra tog‘ etaklari, Markaziy Qirg‘oq va Janubiy Kaliforniyada yaxshi yo‘lga qo‘yilgan²¹⁷.

Umuman olganda Kaliforniyaning vino ishlab chiqaradigan asosiy mintaqalari quyidagi hududlar sanaladi²¹⁸:

1. Mendokino, Sonoma vodiysi va Napa vodiysini o‘z ichiga olgan Shimoliy qirg‘oq;
2. Santa-Kruz tog‘lari va Monterey;
3. Paso Robles, Santa-Mariya vodiysi va Santa Inez vodiysini o‘z ichiga olgan janubiy Markaziy qirg‘oq;
4. Markaziy Vodiyan Donnigan tepaliklari va Yolodan shimolga tomon Modesto, Mersed va Madera;
- 5.

Shimoliy Yubadagi Sierra etaklaridan janubdagi Mariposagacha bo‘lgan hududlar.

²¹⁶ https://www.researchgate.net/figure/The-California-winecluster_fig2_241283432


²¹⁷ <https://discovercaliforniawines.com/wine-map-winery-directory/> (California Wine Institute)

²¹⁸ <https://usawineratings.com/en/blog/insights-1/wine-regions-in-california-46.htm>

Eng yirik vino ishlab chiqaruvchilar Napa vodiysi va Sonomada joylashgan bo‘lib, ularga Stags’ Leap Winery, Larkmead, Hess Collection, Robert Mondavi, Idlewild, Hanzell kabi vinochilik korxonalarini kiritish mumkindir.

Bugungi kunda Kaliforniyada 5900 uzum yetishtiruvchilar hamda 3900 vino korxonalari faoliyat olib borib, ularning asosiy qismi oilaviy biznes sanaladi. AQSh vino eksportining 95 foizi Kaliforniya vino klasteri tomonidan amalga oshirilib, klaster doirasida ishlab chiqarilgan vino bugungi kunda dunyoning 142 mamlakatiga eksport qilinadi va eksportdan keladigan daromad 2018-yilda 1.46 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi²¹⁹.

Quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2008-2020-yillarda Kaliforniya vinochilik klasteri hissasiga AQShda ishlab chiqarilgan vino hajmining o‘rtacha 86 foizi to‘g‘ri kelgan.



2.2.3-rasm. Kaliforniya shtati va AQShda vino ishlab chiqarish hajmi ko‘rsatkichlari (mln. gallonda)²²⁰

Ammo, e‘tibor qaratish kerakki, 2019-2020-yillarda mintaqada vino ishlab chiqarish hajmi biroz qisqargan. Olimlarning fikricha buncha Kovid-19 pandemiyasi hamda 2020-yilda Kaliforniya shtati o‘rmonli zonalarida ro‘y bergan katta yong‘in sabab bo‘lgan. Sonoma davlat universiteti Vino biznesi instituti tahlillariga ko‘ra, Kaliforniya vino sanoatining 2020-yilda

²¹⁹ <https://discovercaliforniawines.com/media-trade/statistics/> Vino instituti - bu Kaliforniyaning 1000 ta vino zavodlari va vino bilan bog‘liq korxonalarning assotsiatsiyasi bo‘lib, ular sifatli vino ishlab chiqarish, iste‘mol qilish va lazzatlanish uchun atrof-muhitni yaxshilash bo‘yicha davlat siyosatini olib boradi.

²²⁰ <https://www.statista.com/statistics/259493/wine-production-in-the-us-and-california/> asosida shakllantirildi

koronavirus pandemiyasi yo‘qotishlari hajmi 4 mlrd.AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi²²¹ va hozirda vino sanoati o‘zini o‘nglash bosqichidadir.

Kaliforniya vino klasterining AQShdagi baholangan chakana qiymati 2020-yilda pandemiya sharoitiga qaramasdan 40 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Quyidagi 2.3.1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, Kaliforniya vino klasteri doirasida ishlab chiqariladigan vinoning asosiy qismi ichki bozorga yo‘naltirilgan bo‘lib, 2020-yilda 279.2 sh.b.ning 240.3 sh.b.si, ya’ni 86 foizi aynan mamlakatning o‘zida savdoga chiqarilgandir.

2.3.1-jadval

Kaliforniya vinosi savdosi (9 lirtli vino qutilarida²²², mln.da)²²³

Yil	AQSh va xorijdagi savdo	AQSh ichki bozoridagi savdo	Kaliforniya vinosining AQShdagi baholangan chakana qiymati (mlrd. AQSh \$da)
2009	255.7	213.4	\$31.5
2010	254.7	210.1	\$30.8
2011	270.1	224.1	\$31.3
2012	256.7	214.2	\$31.8
2013	265.8	221.1	\$31.7
2014	277.4	232.8	\$34.7
2015	279.1	234.6	\$36.5
2016	281.9	241.2	\$37.8
2017	283.9	245.1	\$40.5
2018	286.5	248.8	\$41.2
2019	272.9	239.1	\$43.6
2020	279.2	240.3	\$40

Kaliforniya vino klasterining raqobatbardoshlik indikatorlariga Kaliforniyaning milliy va global vino sanoatidagi ulushi, eksportning rivojlanishi hamda uzumzorlar joylashgan yerning vino ishlab chiqarish uchun mosligi, yani mahalliy iqlimning vinochilik uchun qulayligini kiritish mumkindir²²⁴. Kaliforniya vino klasterining vujudga kelishi, rivojlanishi va umuman olganda, klaster sifatida shakllanish xususiyatlari haqida gapirganda ta’kidlash lozimki, klaster bugungi kundagi raqobat ustunliklariga uzoq vaqt davomida hududda ishlab chiqarish kuchlarining

²²¹ <https://sbe.sonoma.edu/sites/sbe/files/wine-business-institute-economic-impact-report-covid-19-wine-and-the-california-economy-200630.pdf>

²²² 750 mllik 12 ta vino shishasi = 9 lirtlik vino qutisi

²²³ <https://wineinstitute.org/press-releases/california-wine-sales-hit-40-billion-in-2020-despite-pandemic>

²²⁴ Mueller RAE, Sumner D., Lapsley J. Clusters of grapes and wine. // Third International Wine Business Research Conference. – Montpellier, 2006. – P.5 (https://www.researchgate.net/publication/_CLUSTERS_OF_GRAPES_AND_WINE)

va vinochilik bilimining to'planishi natijasida erishdi. Klaster 1919-1933-yillardagi "Quruq qonun" vaqtida sust rivojlangan bo'lsada, mintaqaning vinochilikka mos iqlimi hamda inson kapitali (mahalliy aholining uzoq yillik tajribasi) sanoatning qayta rivojlanishiga imkon yaratdi. Natijada, bugungi kunda Kaliforniya ta'kidlab o'tilganidek dunyoda vino ishlab chiqarish bo'yicha klassik vino ishlab chiqaruvchi Yevropa mamlakatlari (Fransiya, Italiya, Ispaniya)dan so'ng 4-o'rinni egallamoqda.

Kaliforniya vino klasteri yuzasidan tadqiqotlarga nazar solsak, M.Porter o'zining bir nechta ishlarida Kaliforniya vino klasteri misolida klasterlarning raqobatbardoshlik ustunliklarini yoritgan bo'lib, Kaliforniya vino sanoatini bir butun klaster sifatida tadqiq etgan. Ammo, Muller, Sumner, Lapsley (2006) Kaliforniyada 2 ta alohida vino klasteri borligini ta'kidlab, buni shtatning Markaziy Vodiysi (Central Valley) asosan past sifatdagi vino va uzum sharbati uchun mos keluvchi uzum navlarini yetishtirsa, Qirg'oq bo'yi tumanlari yuqori sifatli vino tayyorlashga moslashgan uzum navlarini yetishtirishi bilan ifodalaydi. Shuningdek, olimlar, Qirg'oq bo'yi tumanlarida uzumchilik turizmi Markaziy Vodiya nisbatan ancha yaxshi rivojlangani va ikki hududning yer, iqlim, yetishtiriladigan uzum navlari, ishlab chiqariladigan vino turlari, vinochilik menejmentidagi turli-xil farqlar ham hududda kamida ikta alohida vino klasteri mavjudligiga belgi beradi deb ta'kidlaydi²²⁵. Bu esa o'z-o'zidan yana bir bor klaster tushunchasiga bo'lgan qarashlarning turli xilligidan darak berib, klasterning aniq chegaralangan hududining mavjud emasligidan dalolat beradi.


Shunday qilib aytish mumkinki, AQShning vino ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Kaliforniya klasteri uzoq yillar davomida rivojlanib, qulay iqlim sharoitlari hamda inson kapitali evaziga bugungi kunda jahonning rivojlangan agro ishlab chiqarish klasterlaridan biriga aylangan.

Yevropadagi bir qancha raqobatdosh agrosanoat klasterlari mavjud bo'lgan mamlakatlardan biri Fransiya hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat suvereniteti vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan 10 ta hamda nazorat qilinmaydigan 9 dan ortiq agrosanoat klasterlari mavjud²²⁶. Fransiyada agrosanoat klasterlari mamlakatning barcha hududlari bo'ylab tarqalgan hamda eng ko'p agrosanoat klasterlari Breton mintaqasida joylashgandir.

²²⁵ Mueller RAE, Sumner D., Lapsley J. Clusters of grapes and wine. // Third International Wine Business Research Conference. – Montpellier, 2006. – P.7 (https://www.researchgate.net/publication/_CLUSTERS_OF_GRAPES_AND_WINE)

²²⁶ <https://agriculture.gouv.fr/les-poles-de-competitivite>

Mamlakatdagi samarador faoliyat ko'rsatayotgan va raqobatbardosh agrosanoat klasterlaridan biri Fransiyaning Vegopolys Valley o'simchilik klasteridir. Mazkur agrosanoat klasteri 2019-yilda qayta tashkil etilgan bo'lib, 2005-yilda tashkil topgan Vegopolys klasteri hamda Céréales vallée-Nutrivita klasterlarini birlashishi natijasida vujudga kelgan.



2.3.3-rasm. Fransiya agrosanoat klasterlari xaritasi²²⁷

Klaster qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari, bionazorat, aniq qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va boshqa xizmat turlari, barqaror qishloq xo'jaligi, dekorativ o'simchilikka ixtisoslashgandir. Klaster Fransiya agrosanoatida muhim o'rin tutuvchi Pays de la Loire, Auvergne Rhône Alpes, Bretagne, Centre-Val de Loire mintaqalarida joylashgan. Luara vodiysi mintaqaholisining 3.7 foizi qishloq xo'jaligida band hisoblanib²²⁸, u yerda urug'chilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, manzarali bog'dorchilik, dorivor va xushbo'y o'simliklar, uzumchilik va sidr ishlab chiqarish kabi yuqori qo'shimcha qiymatga ega intensiv o'simlikchilik sohasida 4 mingdan ortiq firmalar faoliyat olib boradi²²⁹. Bugungi kunga qadar klaster doirasida qiymati 2.2 mlrd. yevroga teng bo'lgan 750 dan ortiq innovatsion loyihalar amalga oshirilgan²³⁰.

Klaster doirasida 506 ta firma faoliyat olib borib, ulardan 352 tasini KO'B vakillari (78 tasi start-up loyihalari), 37 tasini yirik korxonalar tashkil etadi²³¹. Klaster faoliyatida muhim o'rin tutuvchi aktorlarga yirik

²²⁷ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

²²⁸ <https://ec.europa.eu/growth/tools-databases/regional-innovation-monitor/base-profile/centre-val-de-loire>

²²⁹ <http://www.objectifvegetal.univ-angers.fr/en/about-us/budget.html>

²³⁰ <https://www.angers-developpement.com/un-acteur-majeur-du-vegetal-est-ne-vegepolys-valley/>

²³¹ <https://www.entreprises.gouv.fr/fr/innovation/poles-de-competitivite/vegepolys-valley>

korxonalardan Vilmorin, Limagrain, KO‘B dan Agrauxine firmasi hamda INRA ilmiy-tadqiqot instituti kiradi. Klasterning ilmiy-tadqiqot salohiyatida Angers, Clermont Ferrand, Nantes universitetlari, Agrocampus Ouest, ESA, AgroSup professional maktablari va 100 dan ortiq laboratoriyalar muhim o‘rin egallaydi²³².

Ta’kidlash lozimki, klaster faoliyatining samaradorligini ta’minlashda iqlim va yer sharoitlari bilan bir qatorda mahalliy hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ham muhim o‘rin tutgandir. Klaster xalqaro doirada Chili, Xitoy, Kolumbiya, Meksika, mintaqaviy doirada esa Italiya, Gollandiya, Portugaliya, Ruminiya, Ispaniya bilan hamda Agri Sud-Ouest innovation, Terralia,, Femac, Agrocluster, BIOMASTEC, CREA HYDRO&ENERGY, GREEN ChEMISTRY, GREEN SYNERGY CLUSTER, INBIOM, INNOSKART, AgroTransilvania Cluster, Agrifood Clust-ER, Greenport West-holland, Corporativa Tecnologica de Andalucia klasterlari bilan hamkorlik qiladi²³³.

Mamlakatdagi yana bir yirik agrosanoat klasteri Agri Sud-Ouest Innovation klasteri hisoblanadi. Agri Sud-Ouest Innovation klasteri Fransiyaning janubi-g‘arbiy mintaqasidagi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va bioekonomiya sohalarida faol bo‘lgan 400 dan ortiq xususiy va jamoat a‘zolarini birlashtiradi. Klaster 2007-yilda notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda klasterda 430 ta korxona faoliyat olib boradi va ulardan 258 tasi KO‘B vakillari sanaladi. Klaster doirasida INRAE, CIRAD ilmiy-tadqiqot institutlari, Montpellier Supagro, Bordeaux Sciences Agro universitetlari, Arterris, InVivo Group, Sygenta kabi firmalar faoliyat olib boradi. Klaster Argentina, Braziliya, Chili, Senegal va AQShning bir qator klasterlari bilan hamkorlik qiladi va transmilliy darajada Germaniya, Italiya, Ruminiya va Ispaniya agrosanoat tarmoqlari bilan hamkorlik qiladi²³⁴. Klaster doirasida 2007-2018-yillar oralig‘ida 600 ta loyihalarni amalga oshirish orqali 335 mln.yevro davlat va mahalliy byudjetdan hamda 442 mln.yevro xususiy sektor investitsiyalari jalb etilgan. Klasterning 2019-2022-yillardagi ITTKI strategiyasi suv-iqlim-tuproq, chorvachilik va ekinchilikda barqaror ishlab chiqarishni ta’minlash, fermer xo‘jaliklari va fabrikalarning ekspluatatsion mukammalligini oshirish, biomassaning to‘liq valorizatsiyasi, yaxshi ovqatlanish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab


²³² <https://www.vegepolys-valley.eu/en/our-members-and-territories/>

²³³ <https://www.clustercollaboration.eu/cluster-organisations/vegepolys>

²³⁴ <https://www.clustercollaboration.eu/cluster-organisations/agri-sud-ouest-innovation>

chiqarish hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan innovatsion foydalanish va xizmatlar kabi muhim yoʻnalishlarni qamrab oladi²³⁵.

Fransiyada shuningdek vinochilik klasterlari ham rivojlangan boʻlib, vino sanoati mamlakat sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri boʻlmasada, xizmat koʻrsatish, transport va turizm kabi ikkilamchi sanoatning rivojlanishiga imkon beradi. Mamlakatda vinochilik ayniqsa Burgundi administrativ mintaqasida yaxshi rivojlangan. Burgundining oʻzi 5 ta vinochilik hududiga boʻlinib (Chablis va Auxerrois, Côte de Nuits, Côte de Beaune, Côte Chalonnaise va Maconnais), uning hissasiga Fransiyada yetishtiriladigan vinoning 3 foizi (yiliga taxminan 200 mln. shisha vino), jahonda yetishtiriladigan vinoning esa taxminan 0.3 foizi toʻgʻri keladi. 27 ming ga dan ortiq maydonda 4 mingdan ortiq mustaqil vino yetishtiruvchilar faoliyat olib boradi²³⁶.



2.3.4-rasm. Burgundi vino klasteri chizmasi²³⁷

Yuqoridagi rasmda Burgundi vino klasterining chizmasi berilgan boʻlib, koʻrishimiz mumkinki, Burgundi vino klasteri ham huddi Kaliforniya vinochilik klasteri kabi uzum yetishtiruvchilar, vino ishlab chiqaruvchilar, ikkilamchi tarmoq vakillari, mahalliy hokimiyat organlari, turizm, oziq-ovqat sanoati, NNTlardan iboratdir. Burgundi Fransiyadagi

²³⁵ Sector study on covered horticulture in France. – Commissioned by The Agricultural Counsellor at the Embassy of the Netherlands in France on behalf of The Netherlands Enterprise Agency, 2021. – P.53

²³⁶ <http://www.burgundydiscovery.com/about-burgundy/location-facts-and-figures/>

²³⁷ Ping L., Waldemar K. The Experience of International Agricultural Clusters and Enlightens for China. Technical Report · – P.7-8.

eng mashxur vinochilik mintaqasi sanalishi va hududning o'ziga xos vinochilik klasteriga aylanishining bir nechta sabablari mavjuddir²³⁸:

- uzum yetishtirish va qayta ishlashning o'ziga xos usulining mavjudligi (asosan tabiiy yo'l bilan yetishtiriladi);
- vino tayyorlashda an'anaviy texnologiyalar bilan bir qatorda zamonaviy ilmiy texnologiyalar ham keng qo'llaniladi;
- har qanday usul bilan vinoning obro'sini oshirishga intilish, tarqatish kanallarini kengatirish;
- vinochilikda ilmiy tadqiqotlar olib borilishi. Burgundi vino maktabi va Burgundi vino kengashi mavjud bo'lib, hukumat tomonidan vinochilik sohasidagi ITTKilar keng moliyalashtiriladi;
- standartlashtirilgan boshqaruv qat'iy bo'lib, sifat nazoratiga katta e'tibor beriladi.

Ta'kidlash kerakki, so'ggi yillarda Fransiyada vino ishlab chiqarish hajmining qisqarishi bilan bir qatorda, bahorgi sovuq iqlim Burgundi vino klasterining 2021-yilgi hosilini ayrim joylarda 30-50, ayrim joylarda esa 75-80 foizgacha kamaytirgani va sanoatga 2 mlrd.evrodan ortiq zarar yetganini²³⁹ hisob kitob qilinganiga qaramasdan, 2021-yilda vino eksportidan kelgan daromad 2020-yilga nisbatan 28 foiz, 2019-yilga nisbatan esa 27 foiz o'sib 1.3 mlrd. yevroni tashkil etdi²⁴⁰.

Umumiy qilib aytganda, Fransiyadagi ko'rib chiqilgan klasterlar nisbatan yaqin yillarda rasman tashkil etilgan bo'lsada, ular mintaqaning salohiyatidan kelib chiqqan holda, uzoq yillar davomida to'plangan tajriba natijasida vujudga kelgandir. Ayniqsa, agrosanoat klasterlarida davlat va xususiy sektor sherikchiligi yaxshi yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash zarur.

Yevropa mintaqasi agrosanoatining ajralmas bir qismi hisoblanuvchi yana bir mamlakat Ispaniya bo'lib, ayniqsa Kataloniya raqobatbardosh agrosanoat klasterlari bilan bu sohada yetakchilik qiladi. Yuqoridagi Ispaniya agrosanoat klasterlari xaritasidan (2.3.5-rasm) ko'rishimiz mumkinki, klasterlar asosan mamlakatning shimoliy va sharqiy qismlarida joylashgan. Agrosanoat klasterlari eng ko'p va samarali faoliyat olib boruvchi mintaqalar Kataloniya, Baskoniya, Navarra, Galisiya, Rioxo, Valensiya, Andalus va Aragon sanaladi.

Kataloniyada FEMAC, AMEC, FOODSERVICE CLUSTER, INNOVACC, NOVI kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, agromashinasozlik, vinochilik, oziq-ovat sanoati kabi

²³⁸ O'sha manba.

²³⁹ <https://www.thedrinksbusiness.com/2021/09/burgundy-2021-winegrowers-hold-breath-over-final-yields/>

²⁴⁰ <https://www.falstaff.com/en/nd/burgundy-exports-at-record-level-in-2021/>

mintaqadagi 30 dan ortiq sektorda faoliyat olib boruvchi 30 ta klaster mavjud bo'lib, ularda mingdan ortiq korxonalar, 4000 ishchilar birlashgandir²⁴¹.



2.3.5-rasm. Ispaniya agrosanoat klasterlari xaritasi²⁴²

Kataloniyaning rivojlangan klasterlaridan biri FEMAC – Kataloniya qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasteri hisoblanadi. Mintaqada qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoati o‘tgan asrning 60-yillardan boshlab rivojlana boshlagan va 1996-yilda Lleida provinsiyasining viloyat kengashi va Kataloniya hukumatining sanoat va savdo boshqarmasi ko‘magida dastlabki kooperatsion tashabbuslar boshlagan. Natijada, 1998-yilda qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari assotsiatsiyasi tashkil etilib, uning tarkibiga yetkazib beruvchilar, muhandislar, savdo tashkilotlari, universitetlar, ilmiy markazlar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi davlat idoralari kiradi²⁴³. Bugungi kunda FEMAC klasterida 52 firma faoliyat olib borib, ulardan 37 tasi KO‘B vakillaridir. 2 ta yirik korxona va 6 ta ilmiy-tadqiqot institutlari klaster faoliyatida yadro vazifasini bajaradi. Klasterning maqsadi Kataloniya qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini oshirish bo‘lib, bunda hamkorlik, innovatsiya va internatsionalizatsiyaga urg‘u beriladi. Klaster doirasida ishlab chiqarilgan agrosanoat mahsulotlarining eskporti 39-85% tashkil etadi²⁴⁴.


²⁴¹ <https://www.clusters.cat/> La Xarxa de Clusters catalans

²⁴² Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

²⁴³ www.ерцир.рф/materialy/zarubejniy_opit/ Справка по зарубежным сельскохозяйственным кластерам

²⁴⁴ <https://www.clustercollaboration.eu/cluster-organisations/femac>

Mamlakatdagi yana bir yirik agrosanoat klasteri Baskoniya oziq-ovqat klasteridir. Baskoniya oziq-ovqat klasteri – bu butun oziq-ovqat zanjirini qamrab olgan yetakchi uyushma bo‘lib, unda 120 dan ortiq a‘zolar birlashgan. Bugungi kunda klasterda Basklar mamlakati YaIMning 10.7 foizi yaratilib, klasterga hududiy bandlikning 13.58 foizi hamda umumiy muassasalarning 24.16 foizi to‘g‘ri kelmoqda. Klasterning asosiy maqsadi a‘zo kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, qo‘shimcha qiymat yaratish, bozorga e‘tibor qaratishga ko‘maklashish, hamkorlik qilish imkoniyatlarini taqdim etish, sektor uchun strategik sohalarda bilim almashish va boshqa agentlar bilan muloqotni boshqarish hisoblanadi²⁴⁵. Umuman olganda Baskoniyada oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan bo‘lib, mintaqaning oziq-ovqat va ichimliklar sanoati 2021-yilda 1,129 million yevro xalqaro savdoni qayd etdi va bu o‘tgan yilga nisbatan 24 foizga ko‘pdir. 2020-moliya yilida esa, Baskoniya oziq-ovqat sanoati umumiy savdosining deyarli to‘rtidan bir qismi xorijiy mamlakatlarga (jami 23%), 26 foizi Baskoniyaning o‘ziga va qolgan 51 foizi Ispaniyaning boshqa hududlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



2.3.6-rasm. Baskoniya oziq-ovqat klasteri tuzilmasi²⁴⁶

2.3.6-rasmda Baskoniya oziq-ovqat klasterining tashkiliy tuzilmasi berilgan. Undan ko‘rishimiz mumkinki, klaster yetishtirish, qayta ishlash, tarqatish, to‘ldiruvchi sanoat tarmoqlari hamda bilim sektoridan iborat bo‘lib, uning faoliyatining samarali tashkil etilishida logistikaning o‘rni yuqori hisoblanadi.

²⁴⁵ <https://basquefoodcluster.com/en/the-basque-food-cluster/>

²⁴⁶ <https://basquefoodcluster.com/en/the-basque-food-cluster/> asosida shakllantirildi

Mazkur klaster 2022- yangi 5 ta innovation loyihani ishga tushirgan²⁴⁷ va klasterning 2020-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasida LEC ya'ni yetakchilik, mukammallik va raqobatbardoshlik asosiy me'zon qilib belgilangan.

Yevropada shuningdek, Daniya sut va oziq-ovqat mahsulotlari klasteri, Norvegiyada o'rmonchilik klasteri, Shvetsariyada pishloq klasteri, Gollandiya gulchilik klasteri ham samarador faoliyat olib bormoqda. Misol uchun, Niderlandiya gulchilik klasteri faoliyatiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatda gulchilik, ya'ni lola yetishtirish 1570-yillardan boshlangan²⁴⁸ va bugungi kunda mamlakat hissasiga global gullar eksportining deyarli 50 foizi to'g'ri keladi. Gollandiya gullar klasterining aksariyat ishtirokchilari ikki kuchli birlashmaning a'zolaridir: Gollandiya gullar kengashi va Gollandiya gul ishlab chiqaruvchilar uyushmasi. Ular bozor va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish uchun javobgar bo'lib, klasterga Gollandiyaning yetakchi qishloq xo'jaligi universitetlari yordam beradi. 2002-yilda sohani modernizatsiya qilish, klasterning ochiqqligini oshirish, ekspert va fuqarolik ishtirokini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni va tarmoqlararo sohalarni rivojlantirish maqsadida gullar klasteri akademiyasi tashkil etilgan²⁴⁹.

Rivojlanayotgan mamlakatdan XXRda agrosanoat klasterlarini shakllanishini qo'llab-quvvatlash va ularni faol rivojlantirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda mamlakatda samarador faoliyat olib boruvchi agrosanoat klasterlariga Shandong provinsiyasining Shouguangdagi sabzavot klasteri, Fujian provinsiyasining Anxi shahrida choy klasteri, Yunnan provinsiyasining Chenggong shahrida gullar klasteri, Guangxi provinsiyasining Jixian shahrida shakar klasteri, Shandong provinsiyasining Jinxiang shahridagi sarimsoq klasteri, mamlakatda xmel ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi Shinjon-Uyg'ur avtonom viloyatidagi xmel klasterinikiritish mumkindir. Ushbu agro-oziq-ovqat klasterlari barchasi qishloq xo'jaligining bir turiga ixtisoslashgan sanaladi²⁵⁰.

Mamlakatdagi raqobatbardosh qishloq xo'jaligi klasterlaridan biri Shouguang, Xitoydagi eng mashhur sabzavot ishlab chiqarish hududi

²⁴⁷ <https://parke.eus/en/basque-food-cluster-brings-together-nearly-400-professionals-from-the-whole-basque-food-chain-at-the-bec/>

²⁴⁸ Porter M., Ramirez-Vallejo J., Eenennaam F. The Dutch Flower Cluster // Harvard Business School Case 711-507, 2011. – 32 p. (https://www.researchgate.net/publication/256015121_The_Dutch_Flower_Cluster)

²⁴⁹ www.ерцир.рф/materialy/zarubejnyy_opit/ Справка по зарубежным сельскохозяйственным кластерам

²⁵⁰ Xin L. The role of local government in agricultural clusters // Commercial Research, 2009. – No.3. – P. 71-75.

sanaladi. Bugungi kunda mazkur klaster doirasida 40 ming gadan ortiq issiqxonalarda yiliga 8 mln.tonnadan ortiq sabzavot yetishtiriladi²⁵¹.

1- bosqich (1978-1984)	• mahalliy hukumat tomonidan sabzavotchilikka istisoslashish belgilandi • tarixan sabzavot yetishtirish bo'yicha tajriba, sabzavotlarga bo'lgan mahalliy va xalqaro talabning oshishi, guruch va bug'doy kabi mahsulotlardan keladigan yuqori darajada foyda viloyatning sabzavotchilik bo'yicha rivojlanishida asosiy rolni o'ynadi
2-bosqich (1985-1989)	• yangi bozorga xaridorlarni jalb qilish (misol uchun: yirik kroxonalar) amalga oshirildi • shahar ulguri savdo bozori atrofida 10 dan ortiq sabzavotchilik bozorlari tashkil etilib, bozorlar tizimi yaratildi
3-bosqich (1990-1997)	• issiqxona yuritish bo'yicha yangi texnologiyalar klaster doirasida keng qo'llanildi. Natijada 210 ming issiqxona, 30 dan ortiq istisoslashgan bozorlar va 40 ta oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari vujudga keldi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 2.3 mln.tonnaga yetdi • "Green channel", "Blue channel" (dengiz orqali), "Sky channel" (avia yetkazish) hamda "Internet channel" transportirovkasi va marketing tizimlari yaratildi
4- bosqich (1997-yildan so'ng)	• klasterning xalqarolashuv davri keldi. Xalqaro hamkorlik klaster doirasida ITTKI va malaka oshirish kabilarni ham qamrab oldi

2.3.7-rasm. Shouguang sabzavotchilik klasterini shakllanish bosqichlari²⁵²

Shouguang “Xitoy sabzavotining vatani” sifatida tanilgan va Shandong provinsiyasi hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish uchun pilot shahar sifatida belgilangan dastlabki agro klasterlardan biri hisoblanadi. Uning shakllanishida mahalliy hukumatning roli katta bo‘lib, hukumat ko‘magi bilan sabzavot yetishtirish ko‘lamini kengaytirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish, yangi texnologiyalar va yangi turlarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, standartlashtirilgan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish,

²⁵¹ http://www.xinhuanet.com/english/2018-12/09/c_137660983.htm#:~:text=Shouguang%20has%20more%20than%2040%2C000,tonnes%20of%20vegetables%20a%20year.

²⁵² Hearing to review the opportunities and benefits of agricultural biotechnology: hearing before the Subcommittee on Rural Development, Research, Biotechnology, and Foreign Agriculture of the Committee on Agriculture. House of Representatives. One Hundred Twelfth Congress, first session, 2011. –P.64-66. asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

yetishtirilayotgan sabzavotlar sifatini yaxshilash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligida "kremniy vodiysi" ni yaratish hamda tarqatish kanallari samaradorligini oshirishga erishilgandir²⁵³.

Shouguang sabzavotchilikka ixtisoslashtirilishidan avval, ya'ni o'tgan asrning 80-yillariga qadar Xitoydagi eng kambag'al provinsiyalardan biri bo'lgan bo'lsa, hozirda agroklasterning vujudga kelishi natijasida nafaqat Xitoy balki dunyoning yirik sabzavotchilik klasterlaridan biri hisoblanadi. Shouguang klasterining shakllanish jarayoni 4 bosqichni o'z ichiga oladi (2.3.7-rasm). Shouguang klasterining rivojlanish evolyutsiyasiga qarab aytish mumkinki, uning roqobatbardosh bo'lishida boshqa mamlakatlardagi kabi mahalliy aholining ixtisoslashgan mahsulot yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha uzoq yillar davomida to'plagan tajribasi muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, klaster shoshilinch ravishda emas balki bosqichma-bosqich rivojlantirilib, keyin xalqaro bozorga chiqqandir. Ya'ni, agrosanoat klasterining vujudga kelishidan boshlab yirik, faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan klaster darajasiga yetguncha juda qisqa vaqt emas, balki bir necha o'n yilliklar kerak bo'ladi.

Xitoydagi yana bir samarador agroklastarlardan biri Dounandagi Chenggong gullar klasteridir. Bugungi kunda ushbu klasterda Xitoy gul bozoridagi deyarli 70 foiz gullar yetishtiriladi. Hududda klaster effektining vujudga kelishida nafaqat gulchilik an'analari balki, Dounan hududida ko'chatchilik, yoritish tizimlarini ishlab chiqaruvchilar, sug'orish inshootlari, issiqxona va bog'dorchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan ko'plab kompaniyalarning to'planishi evaziga erishilgandir. 1995-yilda Chenggong provinsiyasi mahalliy hokimiyati tomonidan 0.8 ga yerda birinchi gul bozori qurilgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, davlat-xususiy sherikchilik asosida 70 ga yerda Dounan Gulchilik Sanoat parki shakllantirildi. Bu esa klaster doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmini oshirishga xizmat qilmoqda²⁵⁴.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda Xitoyda chorvachilik klasterlarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda va bu borada Qishloq xo'jaligi vazirligining "Afzallik berilgan hudud dasturi" muhim rol o'ynaydi. 11 ta tovar turlari qamrab olingan ushbu dasturga qoramol, qo'y go'shti va echki

²⁵³ Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.37.

²⁵⁴ Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.38;

go'shtini yetishtirish va qayta ishlash, shuningdek chorvachilikning katta qismini rivojlantirish masalalari ham kiritilgandir²⁵⁵.

Umuman olib aytish mumkinki, agrosanoat klasterlari Xitoyda ko'p sonli aholini, ayniqda qishloq joylaridagi ishchi kuchini ish bilan ta'minlash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va jahon bozorlariga Xitoy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirish instrumenti sifatida qaraladi va markaziy hukumat hamda mahalliy hokimiyat organlari raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllanishi va rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

²⁵⁵ Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. –P.48-51.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA AGROSANOAT KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

3.1-§. O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning hozirgi holati va klasterlar faoliyati tahlili

O‘zbekistonda agrar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, sohaning innovativligini oshirish hamda agrosanoat majmui doirasida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu, eng avvalo, qishloq xo‘jaligining O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni bilan izohlanadi. Qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, eng avvalo, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat ishlab chiqarishining ko‘plab tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlashida o‘z aksini topadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 2022-yilda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baqliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 208,4 trln. so‘m (19 mlrd. dollar)ni tashkil etib²⁵⁶, so‘nggi besh yil davomida 1,7 martaga ko‘paydi. Uning YaIMga nisbatan ulushi 25,1 foizga teng bo‘ldi. Sohada 3446,7 ming kishi band bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotida band aholining 24,9 foizini tashkil etadi²⁵⁷.

Bugungi kunda ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakli – agrosanoat klasterlarini rivojlantirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, agrar tarmoqning milliy va mintaqaviy raqobatbardoshligini mustahkamlash, qishloq aholisi bandligini ta’minlash va daromadlarini ko‘paytirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning muhim omili ekanligini xalqaro tajriba yaqqol namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan O‘zbekistondagi klaster siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omillarini tahlil qilish, ushbu sohadagi muammolar va istiqbollarni tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

Ta’kidlash joizki, ba’zi o‘zbek iqtisodchilarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda klasterlar tarixan butun mamlakat hududi bo‘ylab mavjud bo‘lgan va buni yurtimiz hududlarining qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikka tarixiy ixtisoslashuvidan ko‘rish mumkin. Misol uchun,

²⁵⁶ Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати: 2022 йил январь-декабрь. – Т.:2023. – Б.92.

²⁵⁷ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Сamarqandda qog‘oz, Marg‘ilonda ipak matolari ishlab chiqarish, Xivada gilamchilik, Rishtonda hunarmandchilik, Buxoroda zardo‘stlik rivojlanib kelganini zamonaviy klasterlarning xususiyatlariga o‘xshatish mumkin²⁵⁸.

So‘nggi yillarda zamonaviy turdagi klasterlarni shakllantirish bo‘yicha mamlakatimizda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida, 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish, qishloq xo‘jaligida klasterlar faoliyatini takomillashtirish agrar sektorda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida klasterlarni shakllantirishdan bir qancha maqsadlar ko‘zlangan bo‘lib, ularga mahsulot yetishtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali agrotexnik tadbirlarni yangilash, hosildorlikni oshirish, mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish va yakunda olinadigan tayyor mahsulotlarni eksportga yo‘naltirish, kam xarajat qilib, ko‘p daromad olish, mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy holatini yaxshilash, mahsulot yetishtiruvchilar moddiy-texnik bazasini zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari va uskunalari bilan boyitish, infratuzilma obyektlarini yangilash kabilarni kiritish mumkin²⁵⁹.

O‘zbekistonda 2022-yilda 633 ta qishloq xo‘jaligi klasterlari faoliyat olib borib, ularga 2,2 mln. gektar qishloq xo‘jaligi yer maydonlari birlashtirilgan. Eng ko‘p sonli klasterlar meva-sabzavotchilik sohasida tashkil etilgan bo‘lib, ularning umumiy soni 249 tani yoki jami klasterlarning 39,9 foizini tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarni g‘allachilik – 200 (31,6 %), paxta-to‘qimachilik – 134 (21,2%), sholichilik – 41 (6,5 %) va dorivor o‘simliklar – 9 (1,4 %) klasterlari egallaydi.

Faqatgina 2022-yilda 12 ta paxta-to‘qimachilik, 43 ta g‘allachilik, 103 ta meva-sabzavotchilik, 12 ta sholichilik klasterlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ta’kidlash lozimki, klasterlar doirasida zamonaviy resurs tejaydigan texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan yer, suv va moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish, yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlagan holda tayyor

²⁵⁸Хусаинов М., Солиев И. Возможности использования кластерной модели развития бизнеса в Узбекистане // Молодой ученый. – Казань: «Издательство Молодой ученый», 2015. – № 17 (97). – С. 473-474. (<https://moluch.ru/archive/97/21782/>)

²⁵⁹Аграр соҳадаги ислохотлар – кластер тизимига ўтиш, ерларни хусусийлаштириш ва фермерлар ҳуқуқларини химоя қилиш. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маъруза тезислари. – Т., 2021. (<http://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7>)

mahsulot ko‘rinishida iste‘molchiga yetkazib berish imkonini bermoqda. Ayni vaqtda bunday o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

3.1.1-jadval

O‘zbekiston agrosanoat klasterlari haqida umumiy ma‘lumot (2022-yil 1-yanvar holatiga)²⁶⁰


Agroklasterlar	Soni	Biriktirilgan maydoni, ming ga	Shundan		
			Klasterda, ming ga	Ferma xo‘jaliligida	
				Soni	Maydoni, ming ga
Paxta-to‘qimachilik klasterlari	134	1034,2	161,1	28206	873,1
G‘allachilik klasterlari	200	904,1	77,0	34169	827,1
Meva-sabzavotchilik klasterlari	249	206,1	41,2	21443	164,9
Sholichilik klasterlari	41	41,4	7,6	2543	33,8
Dorivor o‘simliklar	9	1,4	-	-	-
Jami	633	2187,2	286,9	86361	1898,9

Quyidagi 3.1.1-rasmda mamlakatimizdagi agrosanoat klasterlarining faoliyati natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy samara ko‘rsatkichlari keltirilgan. Ilm-fan va innovatsion yutuqlar va ilg‘or texnologiyalar klasterlari natijasida 2016-2021-yillarda klasterlar doirasida paxta hosildorligini gektariga 26,4 sentnerdan 32,7 sentnergacha, g‘alla hosildorligini gektariga 57,8 sentnerdan 64,1 sentnergacha oshirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligi 2018-yilga nisbatan 1,5 barobar, bir xodimning o‘rtacha oylik ish haqi 2,4 barobar oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi har yili ushbu agroklasterlarning investitsion salohiyatini oshirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirmoqda. 2018-2021-yillarda klasterlarda qiymat zanjirini yaratish uchun 1,4 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilindi. 2019-2021-yillarda 10,8 ming gektar maydonda intensiv bog‘lar, 19,7 ming gektar maydonda tokzorlar barpo etildi. 250 ming gektar maydonda jami 1,5 trillion so‘mlik suvni tejaydigan texnologiyalar va resurs tejaydigan zamonaviy texnikalar joriy etildi. Klasterlar asosida 2018-2021-yillarda hududlarda 176 mingdan ortiq yangi

²⁶⁰ <https://www.agro.uz/iqtisodiy-ko-rsatkichlar/#1672920282692-4c40b427-73fb>

ish o‘rni yaratildi.




3.1.1-rasm. O‘zbekiston agrosanoat klasterlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari²⁶¹

2019-2022-yillarda mamlakatimizdagi agrosanoat klasterlari tomonidan 57 ta xorijiy mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan. 2019-yilda klasterlar tomonidan eksport qilingan agrosanoat mahsulotlari hajmi 285 339,7 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli ikki yarim barobar oshib, 782 847,7 ming AQSh dollarini tashkil etdi. 2022-yilda mamlakatlar kesimida eng ko‘p eksport Rossiya (232 083,8 ming AQSh dollari), Turkiya (231 426,8 ming AQSh dollari) hamda Xitoy (113 397,3 ming AQSh dollari) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shuningdek, qo‘shni mamlakatlar hamda boshqa MDH mamlakatlariga ham eksport yo‘lga qo‘yilgan (5-ilova)²⁶².


²⁶¹ <https://review.uz/en/post/agropromshlenne-reform-ot-klasterizacii-do-cifrovizacii> asosida tayyorlandi

²⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.



3.1.2-rasm. Klasterlarning viloyatlar kesimida ulushi (2021-yil)²⁶³

Agrosanoat klasterlarining turlari bo'yicha viloyatlar kesimida klasterlar uchun ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra paxta-to'qimachilik hamda g'allachilik klasterlari bo'yicha eng yuqori ulush Qashqadaryo viloyatiga, meva-sabzavotchilik bo'yicha Samarqand, sholichilik bo'yicha Sirdaryo viloyatiga tegishli (3.1.3-rasm).



3.1.3-rasm. Klasterlarning turlari bo'yicha viloyatlar kesimida ulushi (ajratilgan va birlashtirilgan q/x yerlari bo'yicha, 2021-yil)²⁶⁴

²⁶³ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari-2/>

²⁶⁴ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari-2/>

O‘zbekiston agrosanoat klasterlarining viloyatlar kesimida ishlab chiqarish quvvatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, paxtachilik va g‘allachilikda eng yuqori salohiyat Qashqadaryo viloyati (11,7%, 15.5%), meva-sabzavotchilikda Andijon viloyati (25.9%), sholichilikda esa Xorazm viloyati (24.4%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

3.2.2-jadval

O‘zbekiston agrosanoat klasterlarining viloyatlar kesimida ishlab chiqarish quvvatlari (2021-yil)²⁶⁵

Viloyatlar	Paxtachilik		G‘allachilik		Meva-sabzavotchilik		Sholichilik	
	tonna	%	tonna	%	Tonna	%	tonna	%
Andijon	279746	8.3	179507	2.6	239697	25.9	15555	16.0
Buxoro	345337	12.2	412721	6.0	26402	2.9	-	-
Jizzah	264530	7.8	605953	8.8	82578	8.9	-	-
Qashqadaryo	393522	11.7	1066678	15.5	12297	1.3	-	-
Navoiy	110998	3.3	266579	3.9	18479	1.8	-	-
Namangan	213827	6.3	178633	2.5	53372	5.8	12205	12.6
Samarqand	244037	7.2	720680	10.5	147602	16.0	-	-
Surxondaryo	253566	7.5	636424	3.2	28342	3.1	1828	1.9
Sirdaryo	225700	6.7	621041	9.0	13032	1.4	147046	15.2
Toshkent vil.	247264	7.3	778512	11.3	119003	12.9	10000	10.3
Farg‘ona	272673	8.1	812257	11.8	159851	17.3	-	-
Xorazm	289857	8.6	266707	3.9	20389	2.9	23646	24.4
Qoraqalpog‘iston	231867	6.9	335634	4.9	3724	16840	1040	19.6

Mamlakatimizda klasterlashtirish yondashuvi qo‘llanilgan eng dastlabki qishloq xo‘jaligi tarmog‘i paxtachilik sanaladi. Birinchi klasterlar davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Buxoro hamda Sirdaryo viloyatlarida rivojlantirildi. Buxoro viloyatida 2017-yilda “Buhara kotton tekstil klaster” MChJ xorijiy korxona asosida paxta xom-ashyosini hamda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan agrosanoat klasteri tashkil etilib²⁶⁶, bugungi kunga qadar klasterning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun 75 mln.AQSh dollariga yaqin investitsiyalar o‘zlashtirildi va 10 ming tonna ip-gazlama ishlab chiqarish salohiyatiga ega ushbu klasterning tekstil korxonasida bugungi kunda mingga yaqin ishchilar band sanaladi²⁶⁷.


Paxta-to‘qimachilik sohasida tashkil etilgan yana bir dastlabki klaster O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi “Sirdaryo

²⁶⁵ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari-2>

²⁶⁶ <http://buxoro.uz/post/p-22249> Hudud taraqqiyotining huquqiy kafolati

²⁶⁷ <http://uza.uz/ru/society/ot-volokna-do-gotovoy-produktsii-07-01-2020>

viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3279-sonli qaroriga ko‘ra tashkil qilingan “BEK Cluster” MChJ qo‘shma korxonasidir. Hozirda klaster doirasida fan va ishlab chiqarish hamkorligini ta‘minlash maqsadida ilk qadamlar sifatida Guliston Davlat Universitetida laboratoriya tashkil etilib, Markazni to‘liq tashkil qilib, faoliyatini yo‘lga qo‘yish va keyinchalik uni Institutga aylantirish maqsad qilingan²⁶⁸.



3.1.4-rasm. Paxta-to‘qimachilik klasteri soning ortishi dinamikasi²⁶⁹

2020-yilda O‘zbekistonda 97 ta paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyat olib borgan bo‘lsa, 2022-yili ularning soni 134 taga yetdi va 2017-2022-yillarda ularning soni 72 barobar ko‘paydi.

Mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirishdan maqsad paxta xom-ashyosini ekishdan to uni tayyor mahsulotgacha bo‘lgan zanjirni (qo‘shilgan qiymat zanjirini) qamrab olish va qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, paxtachilik klasterlari tomonidan yer, suv va boshqa resurslardan samarali hamda oqilona foydalanishni tashkil etish, hosildorlikni oshirishga va yetishtiriladigan paxta xom ashyosining o‘z vaqtida yig‘ib-terib olishni tashkil etish hamda chuqur qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirishni ta‘minlash hisoblanadi²⁷⁰. Bir so‘z bilan aytganda, paxta-to‘qimachilik klasterlari paxtachilikni innovatsion jihatdan yuqori samaradorlik asosida tashkil etishni maqsad qilgandir.

O‘zbekistonda mavjud paxta-to‘qimachilik klasterlarining 90 foizidan

²⁶⁸ <http://lex.uz/docs/3352681?twolang=true> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сирдарё вилоятида замонавий пахтачилик-тўқимачилик кластерини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Қарори.

²⁶⁹ Аграр соҳадаги ислохотлар – кластер тизимиға ўтиш, ерларни хусусийлаштириш ва фермерлар ҳуқуқларини химоя қилиш. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маъруза тезислари. –Т., 2021. (<http://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7>)

²⁷⁰ Аграр соҳадаги ислохотлар – кластер тизимиға ўтиш, ерларни хусусийлаштириш ва фермерлар ҳуқуқларини химоя қилиш. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маъруза тезислари. –Т., 2021. (<http://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7>); <https://www.agro.uz/ru/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627989864944-8ea13bd9-99f2>

ortig'i fyuchers shartnomalari asosida fermer xo'jaliklari bilan ishlaydi. 2021-yilda 26,8 ming ta fermer xo'jaliklari bilan bozor tamoyillari asosida 864 ming gektar yer maydonida paxta yetishtirildi. 2020-yilda o'rtacha hosildorlik 30 s/ga teng bo'lib, 2019-yilga nisbatan har gektarga 3,4 sentner ko'proq hosil olindi. 2020-yilda klasterlarning qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlanganlik darajasiga qarasak, jami agrotexnikalarning 7,14 foizi klasterlar xissasiga tegishli bo'lib, 36 ta klasterning texnika bilan ta'minlanganlik darajasi 125 foizni, 59 tasiniki esa 88 foizni tashkil etdi. Mamlakatimizda 2020-yilda 88 ta paxta to'qimachilik klasterlariga investitsiyalar kiritilgan bo'lib, ularning 68 tasiga 10 mln. AQSh dollaridan ziyodroq investitsiyalar jalb qilingan. Shuningdek, 94 ta klasterda umumiy hisobda o'rtacha 25 650 ta yangi ish o'rni yaratilgan bo'lsa, 63 ta klaster o'z faoliyati davomida 10 mln. AQSh dollaridan ortiq tayyor mahsulot eksportini amalga oshirgan. Umuman olganda, 2018-2020-yillarda paxtachilik klasterlariga jami 1 mlrd 411 mln AQSh dollari miqdorida investitsiyalar qabul qilindi²⁷¹.

3.1.3-jadval


Paxta-to'qimachilik klasterlari ko'rsatkichlari (2020-yil)²⁷²

Klasterlar tomonidan investitsiyalar jalb qilinishi		Yangi ish o'rinlarini yaratilishi (o'rtacha)		Tayyor mahsulotni eksportga yo'naltirish (o'rtacha)	
68 ta klaster	>10 mln. \$	73 ta klaster	300	63 ta klaster	>10 mln. \$
14 ta klaster	5-10 mln. \$	11 ta klaster	250	25 ta klaster	>5 mln. \$
6 ta klaster	<5 mln.\$	10 ta klaster	100	5 ta klaster	<5 mln. \$

Quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2018-2020-yillarda paxta-to'qimachilik klasterlariga kiritilgan umumiy investitsiyalar hajmining asosiy qismi paxtani qayta ishlash va ip-kalava ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va mazkur sohalarda 946 mln. AQSh dollariga teng umumiy 68 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Matoni qayta ishlashga esa 231 mln. AQSh dollari, tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishga esa 231 mln. AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar kiritilgan.

²⁷¹ <https://www.agro.uz/ru/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627989864944-8ea13bd9-99f2>

²⁷² Аграр соҳадаги ислохотлар – кластер тизимиға ўтиш, ерларни хусусийлаштириш ва фермерлар ҳуқуқларини химоя қилиш. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маъруза тезислари. – Т., 2021. (<http://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7>)



3.1.5-rasm. 2018-2020-yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlariga jalb qilingan investitsiyalar haqida ma’lumot²⁷³

Agar 134 ta paxta klasterlarining faolyatiga nazar tashlasak, ularning 18 tasida bir bosqichli qayta ishlash quvvatlari, 39 tasida ikki bosqichli, 34 tasida uchta bosqichli, 24 tasida to‘rtta bosqichli va 19 tasida barcha siklni qamrab oluvchi qayta ishlash jarayonlari mavjud²⁷⁴.



3.1.6-rasm. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining paxtani qayta ishlash bosqichlari bilan ta’minlanganligi darajasi²⁷⁵

Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan paxta-to‘qimachilik klasterlari soni boyicha ‘Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Mazkur agrosanoat klasterlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 31-martdagi 253-son Qaroriga muvofiq tashkil etilib, faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mavjud paxta-to‘qimachilik klasterlari orasidan hududi jihatdan eng yiriklaridan biri “Buxoro Agro Klaster” MChJ bo‘lib, u 45700 ga

²⁷³ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari/#1625861470864-dfd6ed88-94d0>

²⁷⁴ <https://www.agro.uz/11-04520/>

²⁷⁵ <https://www.agro.uz/ru/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627989864944-8ea13bd9-99f2>

maydonni egallaydi va 7 ta tumanni klasterga birlashtiradi. Buxoro viloyatida shuningdek, yana bir yirik agroklasterni "WBM Romitex" paxta-to'qimachilik klasteri ham joylashgandir. Singapurning "Indorama" MChJ xorijiy korxonasi Qashqadaryoning Kasbi va Nishon tumanlarida 25 ming ga, Sirdaryoning Sardoba va Oq-Oltin tumanlarida ham 25 ming ga teng yer maydonida agrosanoat klasteri tashkil etgan bo'lsa, yana bir yirik paxta-to'qimachilik klasteridan bo'lgan "Baxt texstil" Navoiy viloyatida faoliyat olib boradi.

Ta'kidlanganidek, hududi jihatdan eng yirik klasterlardan biri "Buxoro Agro Klaster" klasteridir. Mazkur klaster Buxoro viloyatining Vobkent, G'ijduvon, Kogon, Shofirkon, Buxoro, Qoravulbozor, Peshku tumanlarida joylashib, paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik va parrandachilikka ixtisoslashgan va klaster doirasida paxta, go'sht va go'sht mahsulotlari, tekstil mahsulotlari ishlab chiqariladi²⁷⁶.

Mazkur klaster O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-fevraldagi "Buxoro viloyatida zamonaviy agroklasterni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-500-sonli qaroriga ko'ra Kogon tumanida "O'zpaxtasanoat" AJning tarkibiga kirgan "Buxoropaxtasanoat hududiy birlashmasi" va uning 12 ta quyi jamiyatlari bazasida tashkil etilgan. Klaster ishtirokchilari Buxoro viloyati hokimligi, "Asad-Muslim" MChJ, "Karvon" fermer xo'jaligi va bir nechta jismoniy shaxslar sanaladi²⁷⁷.

Klaster faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa 3.1.7-rasmda keltirilgan²⁷⁸. Agroklasterni mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tashkil etilgan bo'lib, ijroiya organi tomonidan boshqariladi²⁷⁹. Klaster faoliyatining huquqiy va tashkiliy tomoniga nazar solsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 53-sonli qarori²⁸⁰ga ko'ra "Buxoro agro klaster" paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish jarayonining ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash davlat fondi hisobidan paxta-xom ashyosini yetishtirish va yetkazib berishni moliyalashtirish uchun yillik 3 foiz miqdoridan ortiq bo'lmagan stavkada kredit olish huquqiga ega.

²⁷⁶ <http://agroklasterni.uz/uz/index.php?id=136>

²⁷⁷ <http://agroklasterni.uz/uz/index.php?id=165> Бухоро Агрокластер МЧЖ янги тахрир устави

²⁷⁸ <http://agroklasterni.uz/uz/index.php?id=165> Бухоро Агрокластер МЧЖ янги тахрир устави

²⁷⁹ <http://agroklasterni.uz/uz/index.php?id=152>

²⁸⁰ <https://www.lex.uz/docs/-3527470>

paxta xom ashyosi va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishning ilg'or ilmiy yutuqlari, zamonaviy va samarali usullarini joriy qilish;

paxta xom ashyosiga birlamchi ishlov berishning samarali va yuqori rentabelli usullarini, shuningdek, chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish;

paxta chigiti hamda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'larini davlat va xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqarish, tayyorlash va sotish;

paxta xom-ashyosi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayoniga ilg'or agrotexnik hamda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish;

to'g'ridan-to'g'ri, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini jalb qilish hisobiga qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;

yetishtiriladigan paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati hamda miqdorini hisobga olish va nazorat qilish jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

ilmiy va ta'lim muassalari bilan birgalikda seleksiya hamda urug'chilik sohasida tadqiqotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlari va duragaylarini, shuningdek, paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash texnologiyalarini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat bilan shug'ullanish.

3.1.7-rasm. “Buhoro Agro Klaster” klasterining asosiy faoliyat yo‘nalishlari²⁸¹

Klaster faoliyatida mahalliy hokimiyatning alohida o‘rni bo‘lib, u klasterga paxta yetkazib beruvchilarni aniqlaydi, yetkazib beruvchilar hamda agroklasterni o‘rtasida shartnomani imzolashga ko‘maklashadi. Shuningdek, klaster o‘z faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan 22 turdagi tovarlarni bojxona chegarasidan boj to‘lamasdan olib kirish imkoniga ega. Shu bilan bir qatorda, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-martdagi «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori²⁸²ga ko‘ra klaster tasdiqlangan agrotexnologik xarita doirasida tadqiq etilgan lgotali kredit vositalaridan

²⁸¹ O‘sha manba.

²⁸² <https://lex.uz/docs/-4245403> Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-martdagi «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

erkin foydalanish huquqiga ega hamda agroklaster tomonidan fermer xo‘jaliklariga taqdim etilgan yoqilg‘i-moy maxsulotlari, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qiluvchi vositalar, defoliantlar va boshqa kimyoviy vositalar soliq solish obyekti sanalmaydi²⁸³. Umumiy qilib aytganda, hukumat tashabbusi orqali tashkil etilgan mazkur agrosanoat klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun ko‘plab imtiyozlar berilgandir.

Mamlakatimizda klasterlashtirish keng joriy qilinayotgan yana bir yo‘nalish meva-sabzavotchilik sohasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra 2018-yilda har bir hududda 1-2 ta meva-sabzavot klasterlari tashkil etish va meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan barcha tumanlarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning klasterli shakliga jalb etish belgilangan²⁸⁴. Shuningdek, Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasiga muvofiq yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda bu turdagi klasterlar 10 ming nafar fermer xo‘jaliklari bilan 85,5 ming gektar yer maydonlarida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha fyuchers shartnomasi asosida ish olib borilmoqda. 48 ta klasterlarda quvvati 927,8 ming tonna bo‘lgan qayta ishlash zavodlari, 27 ta klasterlarda quvvati 265,9 ming tonna bo‘lgan mahsulotni saralash va qadoqlash, 18 ta klasterlarda quvvati 203,2 ming tonnalik mahsulotni quritish, 7 ta klasterda 32,2 ming tonnalik mahsulotni shok usulida muzlatish hamda 126 ta klasterlarda quvvati 265,7 ming tonnalik oddiy va muzlatkichli omborxonalar mavjud (3.1.8-rasm). Shuningdek, klasterlarda 24,5 ming ga mahalliy, 10,8 ming ga intensiv bog‘ va 25,6 ming ga tokzorlar mavjuddir²⁸⁵. Mazkur klasterlar tomonidan 2020-yilda 114 mln.AQSh dollarlik 124 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, meva-sabzavot va uzun mahsulotlarini


²⁸³ www.azizovpartners.uz/ru/legislativenews/состояние-кластеров-на-примере-агрок/

²⁸⁴ <http://uza.uz/uz/documents/zbekiston-respublikasida-meva-sabzavotchilikni-zhadal-rivozh-30-03-2018> “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”

ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони

²⁸⁵ <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1640167756223-8cd94209-b23a>

yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda²⁸⁶.



3.1.8-rasm. Meva-sabzavotchilik klasterlarining quvvatlari (2021-yil)²⁸⁷

Uzumchilik va vinochilik sohasida esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5200 son Qarori asos bo'lib, unga ko'ra mamlakatimizda 2021-2024-yillarda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan²⁸⁸.

Ta'kidlash kerakki, meva-sabzavotchilik klasterlarini tanlash jarayoni bir qancha masalalarni qamrab olib, mahsulotlarni eksportga yo'naltirganlik ko'rsatkichi, infratuzilmaning mavjudligi (omborxona, sovutgichlar, q/x texnikasi va sh.k.), bilim va malaka (boshqaruv, f/x bilan kooperatsiya) inobatga olinsa, klaster bilan ishlash mexanizmi klasterlarni fermer xo'jaliklari bilan kooperatsiya tamoyili bo'yicha birlashtirish, o'quv kurslarini tashkil etish, bog', uzumzorlar, sabzavot-poliz ekinlar joylashtirish xaritalarini tuzish hamda klasterlarni yangi bozorlarga chiqishi bo'yicha aniq dasturini ishlab chiqish va joriy etish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini olib borishda Qishloq xo'jaligi vazirligi, tuman hokimliklari hamda fermerlar bilan 3 tomonlama shartnomani imzolaydilar. Shartnomada tomonlarning hamkorlik shartlari

²⁸⁶ <https://lex.uz/docs/4641164>

²⁸⁷ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari/#1626020720029-1b8c5423-4bc6>

²⁸⁸ <https://lex.uz/docs/-5540999>

va asosiy majburiyatlari ham keltirilgan bo‘lib, tadqiqot ishining 4-ilovasida shartnoma shartlari yoritilgan. Undan xulosa qilish mumkinki, meva-sabzavotchilik klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yishda Qishloq xo‘jaligi vazirligi umumiy qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil etsa, tuman hokimliklari klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. O‘z o‘rnida fermer xo‘jaliklari meva-sabzavotlarni shartnomada ko‘rsatilgan tartibda yetishtirib bersa, klasterlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish ishlarini amalga oshiradilar. Shu qatorda ta’kilash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra agroklasterni shakllantirish bo‘yicha yangi tartib belgilangan²⁸⁹ (tadqiqot ishining 6-ilovasi). Umumiy qilib aytish mumkinki, meva sabzavotchilik va uzumchilik klasterlari faoliyatini tashkil qilishda ham boshqa agrosanoat klasterlari singari mahalliy hokimiyat organlarining ishtiroki katta bo‘lib, ular klasterlar va yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, klasterning eksport imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etadi.



3.1.9-rasm. G‘allachilik klasterlari quvvatlari (2021)²⁹⁰

O‘zbekistonda klasterli yondoshuv qo‘llanilayotgan uchingi yirik soha bu g‘allachilikdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-sentabrdagi qaroriga ko‘ra, 2020-yil hosildan boshlab boshqoli don yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari bilan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik xo‘jaliklari va boshqoli don mahsulotlarini qayta ishlovchi tashkilotlar tomonidan boshqoli donni yetishtirish yoki shartnoma asosida xarid qilish orqali g‘allachilik klasterlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

²⁸⁹ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/agroklasterga_yangi_tartib_belgilandi#

²⁹⁰ <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari/#1625861334932-41f9558b-e607>

O'zbekistonda g'allachilik klasteri ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, boshqoli don yetishtirish yoki uni shartnoma asosida sotib olish, saralash, saqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozorga yetkazib berishni ta'minlaydi²⁹¹.

2020-yilda mamlakatimizda 77 ta g'allachilik klasterlari faoliyat olib borib, ular tomonidan 880 ming tonna yalpi hosil olingan bo'lsa, 2021-yilda esa ularning soni deyarli 2 barobar oshib, 157 tani tashkil etdi. 2020-yilda g'allachilik klasterlarida 682 900 tonna g'alla saqlashga mo'ljallangan saqlash omborlari, 606 680 tonna un ishlab chiqarish quvvati hamda 3394 ta qishloq xo'jaligi texnikasi mavjud edi va klasterlar tomonidan 2020-yilda qiymati 547,2 mlrd so'm va 20,3 mln.dollar miqdorda xorijiy kredit mablag'lari hisobiga 65 ta loyihalar ishga tushirilib, 3695 ta doimiy ish o'rinlari yaratildi²⁹².

O'zbekistonda parrandachilik va quyonchilik sohasida ham klasterlarni tashkil etishga e'tibor berib kelinmoqda. Prezidentimizning 2018-yil 13-noyabrdagi "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq hududlarda parranda yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot holida iste'molchilarga yetkazib berish va eksport salohiyatini qamrab olgan parrandachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra mamlakatimizda qiymati 263 mlrd.so'mlik 9 ta parrandachilik klasterlari faoliyati yo'lga qo'yiladi²⁹³. Xususan, Andijon viloyatining Beshariq tumanida "Vodiy naslli parranda" xususiy korxonasi tomonidan parrandachilik klasteri tashkil etilgan bo'lsa²⁹⁴, "Nukusda parrandachilik klasterini tashkil etish uchun "Qyeminiq" MChJ tashkil etildi²⁹⁵. Parrandachilik klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yishda ham ko'plab imtiyozlar yaratilgan. Xususan, parrandachilik korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratilib, ular 2021-yil 1-noyabrga qadar import qilinayotgan ozuqa komponentlari, asbob-uskuna va jihozlar bojxona to'lovlaridan ozod etilgan edi. Quyonchilik klasterlari masalasiga keladigan bo'lsak, Andijon viloyatining Marhamat tumanida "Vodiy hamkor agrofirmasi" tomonidan quyonchilik klasteri tashkil etilgan bo'lsa²⁹⁶, Andijon shahrida 15,7 mlrd.so'm mablag' evaziga "Parrandachilik va Quyonchilik" klasteri tashkil

²⁹¹ <https://lex.uz/docs/-4529920>

²⁹² O'sha manba.

²⁹³ <http://vet.distr.uz/uz/yangiliklar/21.02.2020?print=y> Davlat Veterinariya Nazorati Boshqarmasi rasmiy sayti

²⁹⁴ <https://uza.uz/uz/posts/parrandachilik-klaster-va-samaradorlik-14-03-2019>

²⁹⁵ <https://kknews.uz/uz/36849.html> Қорақалпоғистон Ахборот Агентлиги

²⁹⁶ <https://www.uzreport.news/society/prezident-marhamat-tumanidagi-vodiy-hamkor-agrofirmasi-tomonidan-tashkil-etilgan-quyonchilik>

etilmoqda²⁹⁷.

Alohida ta'kidlash lozimki, agrosanoat klasterlarini shakllantirishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga ham e'tibor berilmoqda. Misol uchun, Braziliya bilan hamkorlikda "Go'shtni qayta ishlash bo'yicha klasterlari"ni yaratish rejalashtirilgan bo'lib, klasterlar mol go'shtidan tayyor mahsulot ishlab chiqishning butun sikli – chorvachilik, go'shtni qayta ishlash va go'sht mahsulotlari, jumladan, konservalar tayyorlash jarayonlarini to'liq ishga tushirishga imkon beradi²⁹⁸. Hindiston bilan esa hamkorlikda qishloq xo'jaligi ekinlari va baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, yetkazib berish, ularning marketingi bilan shug'ullanishni amalga oshiruvchi agrosanoat klasterini shakllantirish rejalashtirilgan²⁹⁹. Rossiya bilan birgalikda kungaboqar yog'i, go'sht va sut mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning to'liq siklini qamrab oluvchi agrosanoat klasterini tashkil etish kelishib olingan³⁰⁰. Shuningdek, mamlakatimizda qishloq xojaligining boshqa tarmoqlarida ham klasterlarni shakllantirishga e'tibor berilmoqda va bir qancha yirik klasterlar faoliyati tashkil etildi. Xususan, Jizzah viloyatida yiliga 500 tonna baliq yetishtirish quvvatiga hamda 800 tonna sig'imli zamonaviy muzlatgichga ega "Gold fish agro" baliqchilik klasteri faoliyati yo'lga qo'yilgan. Toshkent viloyatida esa yirik qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etish rejalashtirilgan³⁰¹.

Umuman olganda aytish mumkinki, bosqichma-bosqich paxta va g'alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilgan holda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda klasterlar faoliyatini rag'batlantirish, ularning huquqiy maqomini belgilash, davlat tashkilotlarining ularning faoliyatini samarali tashkil etishi bo'yicha vazifalarini belgilash ishlari jadal olib borilmoqda. Ayniqsa bu jarayonda vazirliklarning javobgarligi yuqori etib belgilanmoqda. Misol uchun, Qishloq xo'jaligi vazirligiga klasterlar faoliyatini tashkil qilish, xorijiy ekspertlar xulosasi asosida ekinlarni samarali joylashtirish, zarur urug'lik va ko'chatlarni yetkazib berish, Moliya vazirligiga klasterlarni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, «O'zbekoziqovqatxolding» kompaniyasiga klasterlarga yangi bozorlar topish va eksport qilishda doimiy ravishda

²⁹⁷

<https://yuz.uz/news/andijonda-157-mlrd-som-evaziga-parrandachilik-va-quyonchilik-klasteri-barpo-etilmoqda?view=52-ming-tonnadan-ziyod-qovun-106-million-dollariga-teng-anor-eksport-qilindi>

²⁹⁸ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/ozbekistonda-goshtni-qayta-ishlash-klasterlari> O'zbekistonda go'shtni qayta ishlash klasterlari paydo bo'lishi mumkin. Bunda Braziliya yordam beradi

²⁹⁹ <http://mininnovation.uz/uz/news/vibrant-gujarat-india-and-uzbekistan-expand-innovative-cooperation-in-the-sphere-of-agriculture-and-pharmaceuticals>

³⁰⁰ <https://mift.uz/uz/news/rossiya-federatsijasi-bosh-vazirining-urinbosari-aoverchuk-bilan-muzokaralar-bulib-utdi>

³⁰¹ <https://president.uz/ru/lists/view/4466>

amaliy yordam berib borish vazifalari yuklatilgan.

O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini tashkil etish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, qishloq xo'jaligi klasterlarining hozirgi faoliyati bo'yicha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu kabi klasterlar iqtisodiyotimizda so'nggi 3-4-yilda faol tashkil etilib, bu jarayonda davlatning, xususan mahalliy hokimiyat organlarining roli katta bo'lmoqda. Bu esa mamlakatimizda hozirda bosqichda klasterlarni shakllantirish jarayonida davlatning muhim rolini ko'rsatib, klasterlashtirishning "dirijist" shaklidan darak bermoqda. Mamlakat hududlarining qishloq xo'jaligi va sanoat salohiyatidan kelib chiqqan holda davlat-xususiy sherikchilik asosida paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik, uzumchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, g'allachilik klasterlari tashkil etilmoqda. Aytish mumkinki, qishloq xo'jaligiga bozor mexanizmining zamonaviy elementi hisoblanuvchi klaster tizimining joriy etilishi qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirish, klaster ishtirokchilari o'rtasida korporativ hamkorlikning kuchayishi, qishloq aholisi daromadlarining oshishi, pirovard natijada qishloq joylarida infratuzilmaning rivojlanishi, bandlikning oshishi, hududlarning yashirin iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zamin yaratishi mumkindir.

3.2-§. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning muammolari

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, qishloq xo'jaligida iqtisodiy klasterlarning shakllanishi iqtisodiyotda innovatsion tarmoqlarning ulushini ortishi, agrar sektor samaradorligini, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va xalqaro maydonda milliy raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va ushbu jarayonda xorijiy tajribani qo'llash bilan bog'liq bir nechta muammolar mavjud bo'lib, ularni huquqiy, tashkiliy-metodologik, kompleks xarakterga ega institutsional, fan va ta'lim bilan bog'liq muammolarga ajratish mumkindir.

Mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan **huquqiy asosga ega muammolar**:

- O'zbekistondagi bugungi kundagi qonunchilikka ko'ra klasterning huquqiy maqomi belgilanmagan. Klasterlar maqomini belgilashda jahon tajribasida turli yondoshuvlardan foydalaniladi (AQSh mamlakat

iqtisodiyot tarmoqlari sanoat va mahalliy klasterlarga ajratiladi, GII 2017 ko‘ra klasterlar shaharlar bo‘yicha tasniflangan, ba‘zi mamlakatlarda klaster deganda aniq tashkilot tushiniladi va boshqalar). O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat tog‘risida”gi qonuni loyihasida innovatsion klaster tushunchasiga ta’rif berilgan³⁰² bo‘lsada, qonun loyihasi hali muhokama bosqichidadir³⁰³. Tashkil etilayotgan agrosanoat klasterlari to‘g‘risidagi hukumat qaror va farmonlarida klasterlarni tashkil etish mexanizmi, ularning asosiy faoliyat yo‘nalishi va vazifasi keltirilgan bo‘lsada, klasterlarni aniq belgilab olishga imkon beruvchi ta’rifi, ularning xususiyatlarini ochib beruvchi tushuncha kiritilmagan. Sodda qilib aytganda, klaster tushunchasining izohi mavjud emas.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Agrosanoat klasterlari maqomi va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori loyihasida “agrosanoat klasteri” tushunchasiga ta’rif mavjud bo‘lib, unga ko‘ra “agrosanoat klasteri bir yoki bir necha yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni ilmiy, innovatsion usullar asosida amalga oshiriladigan faoliyat shakli” deya ta’riflangan. Qaror loyihasida shuningdek, meva-sabzavot, g‘allachilik, paxta-to‘qimachilik, pillachilik, sholichilik, chorvachilik klasterlarining ham ta’riflari berilgan bo‘lib, bu turdagi agrosanoat klasteri bir yuridik shaxs tomonidan ham tashkil etilishi mumkinligi belgilangan. Mazkur qarorda belgilangan bu va boshqa masalalarni klasterlar nazariyasi, jahon tajribasida klasterlarni shakllantirish amaliyoti bilan solishtirsak, klasterlarning huquqiy maqomi belgilanmaganligi muammosi, ularning tom ma’nosini aniqlashdagi metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tashkiliy-metodologik va boshqaruv muammolari:

- Bugungin kunda mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik, meva-sabzavotchilik, g‘allachilik, chorvachilik va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarida bir qancha agrosanoat klasterlari faoliyat olib borayotganiga

³⁰² “**Innovatsion klaster** – ma’lum hududdagi innovatsion faoliyatda ishtirok etuvchi, fan, ta’lim, ishlab chiqarishda o‘zaro faoliyatni yurituvchi turli xil tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari va xizmatlari, shuningdek, yordamchi tashkilotlar (bro-kerlar, dilerlik, konsalting, marketing va boshqa firmalar) hamda innovatsion mahsulotlar iste’molchilarining yig‘indisi. **Hududiy innovatsion klaster** – bir hududda joylashgan, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kamida bitta ta’lim muassasasi, kredit-moliya tashkiloti, innovatsion yoki venchur fondini o‘z ichiga oluvchi turli xil tashkilotlarning kelishuvga ko‘ra birlashuvi bo‘lib, u ishtirokchi tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, investorlar, moliyaviy yoki innovatsion hududiy klaster rivojiga qiziqish bildirgan boshqa tashkilotlar bilan hamkorligini samarali tashkil etish maqsadida tuziladi.

³⁰³ <https://regulateon.gov.uz/uz/documents/2104> Закон Республики Узбекистан “Об инновационной деятельности” (проект)

qaramasdan, mamlakatimizda klasterlarni rivojlantirish strategiyasi, umumiy siyosati ishlab chiqilmagan. Shuningdek, klasterlarni klassifikatsiyalash, aniqlash metodologiyasi ham mavjud emas. Xususan, klasterlar nazariyasiga ko'ra klasterning mohiyatini geografik konsentratsiya, innovatsiyalar, klaster a'zolarining xilma-xilligi, klasterni vujudga kelishi uchun yetarli bo'lgan kritik massaning shakllanishi, ixtisoslashuv, hamkorlik va raqobatning uyg'unligi asoslab beradi. O'zbekistonda bugungi kunda mavjud klasterlarda esa klaster a'zolarining xilma-xilligi, yetarli kritik massaning shakllanganligi, innovatsiyalar, hamkorlik va raqobat kabi tamoyillarga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

- Mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar qatoriga ko'pgina o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari singari klasterlarning tub mohiyatini anglamasdan turib ularni shakllantirish, xorijda uzoq davr mobaynida rivojlanib kelgan klasterlarni shakllantirish tajribasini nisbatan qisqa muddatda joriy etishga intilish, klaster tashkil etilishi mumkin bo'lgan ustuvor tarmoqlarni aniqlanmasdan, barcha tarmoqlarda yoppasiga klasterlarni tashkil etish kabilarni kiritish mumkin. Shu sababli ham O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishda xorij tajribasidan foydalanish uchun, avvalo, uni chuqur o'rganish, tahlil qilish kerak.

- Bundan tashqari, O'zbekistondagi aksariyat agroklasterlar MChJ asosida tashkil etilgan va odatda bitta firmaga asoslanadi. Biroq, jahon tajribasi va klasterlar rivojlanish nazariyasiga ko'ra, klaster ko'plab firmalarning bir-biri bilan o'zaro raqobatlashishi va hamkorlik qilishi (coopeting) natijasidir. Ya'ni, klaster ko'plab iqtisodiy syubyektlarning birgalikda harakat qilish tizimidir. Ammo, agar biz O'zbekistondagi agroklasterlarga nazar solsak, klaster deganda ko'pgina hollarda bitta ko'p tarmoqli kompaniya, ishlab chiqarishi diversifikatsiyalashgan firma faoliyatini ko'rishimiz mumkin va bu zamonaviy klaster xususiyatiga mos kelmaydi. Xorijiy mamlakatlarda ham yirik xususiy kompaniyalar klaster yadrosini tashkil etadi va uning asosiy patentchisi, innovation yetakchisi sanaladi. Ammo ular klaster taqdirini hal etmaydi va boshqa ishtirokchilar faoliyatiga aralashmaydi. Shuningdek, klasterlarning tashkiliy masalalarini hal etish uchun boshqaruv kengashi faoliyat olib borib, ular klasterning rivojlanish strategiyasini tanlash, klaster doirasida hamkorlikning rivojlanishi uchun imkon yaratsa-da, klaster ishtirokchilarining faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashmaydi. Mamlakatimizda esa, mavjud agroklasterlar faoliyati natijalariga ko'ra ko'proq klaster emas, balki qishloq

xo‘jaligi korxonalariga o‘xshaydi. Misol uchun paxta-to‘qimachilik “klaster”i deb atalayotgan MChJlarni olsak, ular paxta xom-ashyosini yetishtiradi yoki fermerlardan sotib oladi, olingan xom-ashyoni ip-kalava ko‘rinishida qayta ishlaydi, chigitni qayta ishlash orqali yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqaradi hamda klaster doirasida yondosh boshqa tadbirlilik bilan ham shug‘ullaniladi (g‘allachilik, parrandachilik, chorvachilik, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish va sh.k.). Ammo, bu kabi tadbirlarning deyarli barchasi bir korxona (ishlab chiqarishi diversifikatsiyalangan korxona) tomonidan amalga oshiriladi. Klasterlar nazariyasiga ko‘ra esa, klaster vujudga kelishi uchun bir hududda raqobatlashuvchi va bir vaqtda hamkorlik qiluvchi, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi firmalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari to‘planishi va kritik massani hosil qilishi lozim. Shu sababli ham, mamlakatimizda mavjud agroklastarlarni tashkiliy va funksional jihatdan klaster deb tasniflash mumkinmi degan baxsli savol vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar solsak, asosan klasterlarning aniq belgilangan chegaralari yo‘qligiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni klaster ma’lum hududdagi bir butun tizimdek namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda esa klasterlarga yer hokimliklar tomonidan aniq chegaralangan holatda taqdim etiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mavjud klasterlar ko‘proq tabiiy vujudga kelgan emas, balki tashkil etilgan klasterlar degan fikr yuzaga keladi. Bundan tashqari, aksariyat agroklastarlar universitetlar yoki ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilmaydi va laboratoriyalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilmaydi.


- O‘zbekistonda tashkil etilayotgan klasterlar faoliyatiga mahalliy hokimlik organlarining keragidan ortiq aralashuvi ham ularning samarali ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkindir. Bundan oldingi faslda keltirilganidek, mamlakatimizda tashkil etilayotgan, shakllantirilayotgan agrosanoat klasterlarining asosiy qismi hukumat va mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan tashkil etilmoqda va hokimliklar klasterlar uchun yer ajratish, imtiyozli kreditlar olishga yordamlashish, yetkazib beruvchilar va klaster tashkilotlari o‘rtasida shartnomalarni imzolashga amaliy ko‘mak berish, klasterlar va fermerlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ekportni rivojlantirishda asosiy ishtirokchi, klasterlar mahsulotlarini realizatsiya qilishda vositachi bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, amaliyotda klaster doirasida qaysi fermer xo‘jaliklari faoliyat olib borishi kerakligini ham aynan mahalliy hokimiyatlar hal etmoqda. Shu o‘rinda klasterlarga o‘z faoliyatini tashkil etish uchun hokimiyatlar tomonidan bir qancha

imtiyozlar, preferensiyalar ham taqdim etilayotganini aytib o'tish kerak. Ammo ta'kidlash lozimki, davlatning agrar sohaga aralashuvi kamaygan taqdirda ham fermerlarning klasterlarga birlashtirilishi, ularning endi davlat oldida emas, balki agrosanoat klasterlariga "tobe"ligiga olib keladi. 2023-yilgi paxta mavsumida paxta xom-ashyosining sotuv narxini belgilash borasida fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasidagi munozarali holat ham bunga misol bo'la oladi. Shu o'rinda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha Yevropa tajribasiga qarasak, biz o'rgangan Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda ham davlat va mahalliy hokimiyatlar klasterlar ishini tashkil etish, mintaqada klaster tizimlari vujudga kelishi uchun zarur muhitni, sharoitni shakllantirishda bosh rolni o'ynaganini ko'rish mumkindir. Ya'ni klasterlar faoliyati hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ammo O'zbekistonda bu jarayon nisbatan boshqacha shaklda namoyon bo'lib, ko'pgina klasterlarda hokimliklar klasterlarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchisi sanaladi va fikrimizcha bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ijroiya organining klaster ishtirokchisi sanalishi, raqobat muhitiga salbiy ta'sir qilishi, klaster ishtirokchilariga klaster ishtirokchisi bo'lmagan korxonalarga nisbatan qandaydir ustunlik va afzallik berilishi, shu bilan bir qatorda klaster doirasida qaror qabul qilishda muammolar keltirib chiqarib, klasterning boshqaruv samaradorligiga ta'sir etishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil noyabr oyidagi 14-sonli farmoniga ko'ra fermerlarga klasterlar bilan ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomasi tuzish huquqi berilgan bo'lsada, bugungi kunda bir qancha viloyatlarda klasterlar va hokimiyatlar o'rtasida muayyan klasterga a'zo bo'lishga undash holatlari mavjud. Xususan, Namangan viloyatining Norin tumanidagi "Uztex Uchkurgan" klasteri, fermerlar, hokimiyat va yangi "Iftihor Kiyim Sanoat" klasteri o'rtasidagi mamlakat masalalar yoki bir necha yil avval Qashqadaryoda "Sulton tex group" klasteri va Qarshi tumani hokimligi o'rtasida sodir bo'lgan kelishmovchiliklar fikrimizga dalil bo'la oladi.

- O'zbekistonda mavjud agrosanoat klasterlari faoliyatini tahlil qilar ekamiz, hozirgi rivojlanish bosqichida mamlakatimizdagi agrosanoat klasterlarining sxematik ko'rinishi quyidagi 3.2.1-rasmdagidek tasvirlash mumkindir.

Rasmda keltirilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda mavjud agroklasteralar hududdagi umumiy klaster tizimini tashkil etmasdan balki yuqorida ta'kidlanganidek, alohida korxona sifatida faoliyat olib bormoqda. Ya'ni klaster nazariyasida keltirilganidek, klaster hududdagi ixtisoslashuv asosidagi hamkorlik va raqobatning birlashishini aks ettirmasdan, balki

qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z hududida yetishtirib yoki hamkor fermer xo'jaliklaridan xarid qilib, ularni realizatsiya qiluvchi firma sifatida ishlamoqda.



3.2.1-rasm. O'zbekistondagi mavjud agrosanoat klasterlarining tuzilmasi³⁰⁴

Fermer xo'jaliklari bilan hamkorlik masalasi esa mahalliy hokimiyat orqali amalga oshirilib, fikrimizcha hokimiyat klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasida "vositachi" sifatida namoyon bo'lmoqda. Buning natijasida fermerlar, mahalliy hokimiyat organlari va klaster firmalariaro shunchaki gorizontall hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bu ham mamlakatimiz hududlarida chin ma'nodagi klasterlarni shakllantirish bilan bog'liq muammolardan biri deb aytishimiz mumkindir. Shuningdek, klasterlarning soha doirasidagi uyushmalar, NTTlar bilan hamda universitet va ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorligi sust rivojlangan yoki umuman yo'lga qo'yilmagandir.

Kompleks xarakterga ega institutsional muammolar:

- Agrosanoat klasterlarining barqaror rivojlanishiga hududlarning birlamchi ishlab chiqarish omillari bilan yetarli darajada

³⁰⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

ta'minlanmaganligi to'siq bo'lmoqda. Bunga hududlarda ishlab chiqarish omillarining noratsional taqsimlanishi, bozor infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganligi, asosiy ishlab chiqarish resurslari (elektr energiyasi, suv, inson kapitali, investitsiyalar) bilan ta'minlanganlik darajasining yetarli emasligini kiritish mumkin. Fikrimizcha, ishlab chiqarish omillari yetarli bo'lmagan taqdirda, nafaqat agrosanoat klasterlarining faoliyatini, balki har qanday iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda muammolar yuzaga keladi.

- Mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar samarador agrosanoat klasterlarini shakllantirishda ham muammo yuzaga keltirmoqda. Agrar soha mamlakatimizda davlat tomonidan eng ko'p tartibga solinadigan sektor hisoblanadi va fermer xo'jaliklarida erkinlik darajasi past, ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari bozorlari yaxshi rivojlanmagan. Umumiy qilib aytganda, qishloq xo'jaligi yirik modernizatsiya va transformatsiyaga muhtoj. Bu kabi masalalar ham albatta agrosanoat klasteri faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Fan va ta'lim bilan bog'liq muammolar:

- Raqobatbardosh agrosanoat klasterlarining faoliyatini tashkil etish, ularni boshqarish, rivojlantirish uchun yetarli bilim va salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashdagi muammolar, qishloq xo'jaligi, biznes boshqaruvi, logistika, innovatsiyalar, ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi muammosining mavjudligi samarador agrosanoat klasterlarning vujudga kelishini nisbatan kechiktirmoqda. Zero, jahon tajribasiga qarasak, aynan universitetlar hamda ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari agrosanoat klasterlarining yadrosini tashkil etadi.

- Mamlakatda innovatsion faoliyatning sust rivojlanganligi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari qishloq xo'jaligida ham klasterlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda deb aytish mumkin. Chunki, agrosanoat klasterlari, boshqa iqtisodiy klaster turlari singari, innovatsiyalar asosida rivojlanadi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi klasterlarini rivojlantirish uchun innovatsion sohani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator murakkab muammolarni hal qilish zarur. Mamlakat miqyosida, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasidagi ITTKIning moliyalashtirish hajmining pastligi, universitetlar va biznes hamkorligining sustligi, agrosanoat klasterlariga zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalarining keng joriy etilmaganligi muammolari mavjudligini keltirib o'tish mumkindir.

- O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va bu jarayonda xorij tajribasidan foydalanish bilan bog'liq eng dolzarb muammolardan biri

mamlakatimizda bu sohaning chuqur tahlil qilinmaganligi, ushbu masalaga qaratilgan tadqiqotlarning kamligidir. Ya'ni, klasterlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganmay turib ularni shakllantirish ko'plab tashkiliy va metodologik muammolarni keltirishi, klasterning samarali faoliyat olib bormasligiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotimiz doirasida O'zbekistonda agrosanoat klasteri rivojining hozirgi holatini tahlil qilish maqsadida Qashqadaryo viloyati Kasbi va Nishon tumanlarida faoliyat olib boruvchi "Indorama" (Singapur) klasteri doirasida hamkorlik qiluvchi fermer xo'jaliklari (6 ta) va Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va Ohangaron tumanidagi klasterlarga birlashtirilmagan bir qancha fermer xo'jaliklari (6 ta) o'rtasida kichik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasida klasterga a'zo va klasterga a'zo bo'lmagan fermer xo'jaliklarining O'zbekistonda agrosanoat klasterining faoliyati bilan bog'liq fikr va mulohazalari olindi va so'rovnoma natijasida ham sohada mavjud bir qancha muammolar aniqlandi. Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, so'rovnomada ishtirok etgan barcha fermerlar klasterga ta'rif so'ralganda, "Klaster MChJ shaklida tashkil etilgan va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini fermer xo'jaliklaridan oldindan kelishilgan shartnoma asosida sotib olib, qayta ishlab sotuvchi firma" degan fikrni bergan. Shuningdek, 50 foiz respondent "klaster – hokimiyat ko'magida tashkil etilib, hududda yetishtiriluvchi asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilashga qaratilgan yirik firma" degan fikrni ham tanlagan. Fikrimizcha savolning javoblarida klasterga nazariy jihatdan to'g'ri ta'rif borligiga qaramasdan, bu kabi ta'riflarning tanlanishi bejiz emas. Chunki, O'zbekistonda hozirgi kunda klasterlar shu shaklda faoliyat olib bormoqda va fermerlar buni o'z javoblari bilan tasdiqlab turibdi. So'rovnoma natijasida ko'ra 58 foiz fermerlar O'zbekistonda agrosanoat klasteri ko'p va faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmagan degan bo'lsa, qolgan respondentlar klasterlar faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganini ta'kidlagan. Qiziqarlisi, klasterda ishtirok etuvchi barcha fermerlar klasterga a'zolik ixtiyoriy bo'lishi lozimligini ta'kidlasa, klaster a'zosi bo'lmagan fermerlar klasterga a'zolik/a'zo bo'lmaslik masalasini mahalliy hokimiyat hal qilishi lozimligini aytib o'tgan. Shuningdek, so'rovnomada qatnashgan 42 foiz fermerlar O'zbekiston agrosanoat klasterlarini shakllantirishga barcha imkoniyatlarga ega ekanligini aytsa, qolgan qismi O'zbekiston barcha imkoniyatlarga egaligi, ammo, bu imkoniyatlardan doim ham to'g'ri foydalanilmasligini keltirib o'tgan. Klaster ishtirokchisi sanaluvchi barcha fermer xo'jaliklari klaster doirasida ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlik qilmasligini

ta'kidlagan va klaster yadrosini fermerlar tashkil etadi deb hisoblaydi. Klasterda ishtirok etmaydigan fermerlar esa klasterning yadrosi sifatida fermer xo'jaliklari bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot institutlari, universitetlarni ham aytib o'tganlar. Umumiy qilib aytganda, respondentlar tomonidan mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar sifatida klaster mohiyatining noto'g'ri talqin qilinishi, mahalliy hokimiyatlarning klasterlar faoliyatiga haddan ziyod aralashuvi, fermer xo'jaliklarining klasterlarga majburiy a'zoligi (2019-yilda), sohada korrupsiyaning mavjudligi kabi masalalar keltirib o'tilgan. Ammo, ta'kidlash lozimki, "Indorama" klasteri doirada ishlovchi fermerlar klasterga a'zo bo'lgach bir qancha yengilliklarga ega bo'lganliklarini keltirgan. Xususan, shartnomaga ko'ra ekin ishlarini tashkil qilish uchun barcha kerakli vosita va mablag'larning o'z vaqtida berilishi, doimiy ishlovchi ishchilar uchun oylik maoshlarini to'lash uchun to'lovning o'z vaqtida amalga oshirilishi, mavsumiy dehqonchilik paytida qo'shimcha yollanma ishchilarni jalb qilish uchun moliyaviy mablag'larning berilishi shu kabilardandir.

Umumiy qilib aytganda, albatta bir nechta fermer xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma butun mamlakatdagi holat haqida umumiy xulosa qilish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin, ammo, hozirgi jarayonlar haqida qisqacha xulosa qilish va holatni o'rganish uchun kerakli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Shuningdek, klasterlar nazariyasiga ko'ra ularning samaradorligi aniqlash bosqichlari mavjud bo'lib, ularga agrosanoat klasterini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, hududning umumiy klaster siyosatini baholash, klasterlashtirishning hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili, klaster faoliyatidan keladigan 5 turdagi samaradorlikni hisoblash hamda klaster faoliyatini baholash asosida klaster faoliyatini bashoratlash va baholash tizimini mukammallashtirish kabilar kiradi. Ammo, mamlakatimizda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan agrosanoat klasterlari tashkil etilganiga 3-4 yil bo'lgani uchun ularning faoliyatini to'g'ri baholash bir oz murakkabdir. Shuningdek, mavjud klasterlarning asosiy qismi hali funksional jihatdan klaster sifatida to'liq ishga tushmagani ham ularning faoliyatini baholashni qiyinlashtiradi. Ammo, mavjud klasterlarning bugungi kunda qadar olib borgan qisqa faoliyatini yuqorida tahlil etgan holda mamlakatimizda hozirda olib borilayotgan klaster siyosatiga qisman baho berishimiz mumkindir.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda agrosanoat tarmog'ini klasterlashtirish hali dastlabki

bosqichda bo‘lib, klasterlarni kompleks rivojlantirishning davlat siyosati hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Hukumat va mahalliy hokimiyatlar hududlarda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor berayotganiga qaramasdan, klasterlarning faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashda, raqobat muhitini rivojlantirishda ko‘plab muammolar, eng muhimi klasterlarning iqtisodiy mohiyatini talqin qilishda noaniqliklar mavjud. O‘ylashimizcha O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari avvalo milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks muammolarga borib taqaladi. Shuning uchun, iqtisodiyotni liberalizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish, xususiy mulkning daxlsizligini, sog‘lom raqobat muhitini ta’minlay olsak hamda bozor munosabatlariga, iqtisodiyotga davlat aralashuvi kamaytirilsa va eng asosiysi sud-huquq tizimini mustaqilligini ta’minlay olsak, O‘zbekistonda ham raqobatbardosh klasterlar vujudga kelishi mumkindir.

3.3-§. O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning istiqbollari

Yuqoridagi faslda mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha bir qancha muammolar yoritib o‘tildi. Ammo, mavjud muammolardan hamda O‘zbekistonning agrosanoat klasterlarini rivojlantirish salohiyatidan kelib chiqib, mamlakatimizda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlar amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz:

- mamlakatda iqtisodiy klaster faoliyati uchun me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, klasterlarning iqtisodiy maqomini belgilash, faoliyatini samarali tashkil etish uchun bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini mustahkamlash;

- O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, hamda klasterlar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida davlatning roli muhimligini hisobga olib, davlat va mahalliy hokimiyat idoralari O‘zbekistonda klaster yondashuvini joriy etishda tashabbuskor rolini o‘ynashi zarur. Klasterlarni shakllantirishning jahon tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda “dirijist” klaster siyosatini olib borish mumkindir. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlari davlat mulki sanaladi hamda agrosanoat klasterlarining innovativ rivojlanishida davlatning ko‘magi muhim. Biroq, M.Porter ta’kidlaganidek, ba’zida hukumatning ortiqcha aralashuvi salbiy

ta'sirga olib kelishi mumkinligi sababli, klasterlarni tashkil etish tashabbusi davlat tomonidan bildirilsada, ular ustuvor yo'nalishlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va xizmatlarini rivojlantirish uchun yetarli salohiyatga ega bo'lgan hududlarda rivojlantirilishi kerak. Davlat klasterlarning tabiiy shakllanishi uchun barcha kerakli sharoitni yaratib berishi va ularning faoliyatiga byurokratik yo'llar bilan ta'sir o'tkazmasligi lozim;

- qishloq xo'jaligi sohasida ITTKI xarajatlarini ko'paytirish va bu orqali agrosanoat klasterlari faoliyatida innovatsion vektorning o'sishi va mustahkamlanishiga zamin yaratish kerak. Bu esa o'z o'rnida shu sohada kadrlar tayyorlash tizimi, boshqaruv, IT rivoji kabi bir qancha masalalarni qamrab oladi. Innovativ agrosanoat klasterlarini shakllantirish uchun konstruktiv inson kapitali muhim rol o'ynashini albatta inobatga olish kerak.

- raqobatbardosh agroklasterlarni shakllantirish uchun klaster tizimlariga agrosanoat universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar kirishi kerak, chunki ularning ishtirokisiz innovatsion agroklasterlarni tashkil etish va samaradorlikka erishish qiyin. Bilim sektori klasterning asosini tashkil etishi lozim va buning uchun biznes hamda ta'lim o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur;

- davlat boshqaruv tizimi, texnologiyalar, mehnat resurslari va ijtimoiy sharoitlarni o'z ichiga olgan ishbilarmonlik muhitini yaratish kerak;

- hududlardagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash firmalari o'z tashabbuslari bilan klasterlarga jalb qilinishi kerak. Mahalliy hokimliklarining fermer xo'jaliklarini klasterlar bilan ishlashga majburlash huquqini amaliyotda ham bartaraf etish kerak. Ya'ni klasterga kirish ixtiyoriy va har bir ishtirokchi uchun har tomonlama manfaatli bo'lishi lozim;

- agrosanoat klasterilarni shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribani chuqur o'rganish, bu borada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. O'zaro tajriba almashinuv jarayonlariga aynan klaster ishtirokchilari, soha boshqaruvchilari, fermerlar jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlar bilan klasterlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab dasturlari mavjud va O'zbekiston bu borada mazkur mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlik qilishi mumkindir;

- Eng muhim masala – ustuvor tarmoqlarda klasterlarni yaratish va rivojlantirish, ma'lum kritik massani shakllantirish kerak. Ta'kidlanganidek, klasterlarni kuch bilan shakllantirmaslik va byurokratik tarzda rivojlanishiga aralashmaslik lozimdir.

O'zbekistonda samarali agrosanoat klasterlarni shakllantirish uchun mintaqada joylashgan tarmoqlar, korxonalar va infratuzilma tashkilotlarining raqobatbardosh ustunliklarini aks ettiruvchi klaster salohiyatini aniqlash, ushbu afzalliklarni birlashtirish va ulardan raqobatbardoshlikni oshirishda foydalanish imkoniyatlarini hisoblash zarur. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan 2014-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra mamlakatimizning Samarqand, Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysining barcha mintaqalari (Andijon, Namangan, Farg'ona) meva-sabzavotchilik yo'nalishida klasterlarni, Qashqadaryo viloyati chorvachilik klasterlarini, Toshkent viloyati go'shtli qoramollarni yetishtirish bo'yicha agroklasterni va Farg'ona vodiysi sut chorvachiligi va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish klasterini shakllantirish salohiyatga egadir³⁰⁵.

Tadqiqotimiz doirasida so'nggi yillarda mamlakatimizning qaysi mintaqalarida qanday turdagi agrosanoat klasterlarini shakllantirish maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun viloyatlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha joylashuv koeffitsienti (LQ) aniqlandi. Bunda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" sohasining ayrim iqtisodiy faoliyat turlaridagi yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni hamda mamlakatimizda viloyatlar kesimida bandlik ko'rsatkichlaridan foydalangan holda 2017-2020-yillar uchun joylashuv koeffitsienti hisoblab chiqildi. 3.3.1-jadvalda 2020-yil uchun joylashuv koeffitsienti berilgandir. Undan ko'rishimiz mumkinki, donli ekinlar (sholidan tashqari), dukkaklilar va moyli ekinlar urug'ini yetishtirish bo'yicha eng yuqori salohiyat Jizzax (2.32), Toshkent viloyati (2.21), Samarqandga (2.18) tegishli bo'lsa, sholi yetishtirish bo'yicha klasterlarni an'anaviy sholi yetishtiruvchi mintaqalar hisoblanuvchi Xorazm (2.73) bilan bir qatorda Andijon (3.72), Sirdaryo (4.89) hamda Toshkent viloyatida (2.92) shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Sabzavotlar va poliz ekinlari, ildizmevali ekinlarga ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish bo'yicha Toshkent viloyati (2.16), Qoraqalpog'iston (1.78), Navoiyning (1.69) imkoniyatlarini oshirish yuqoriqoq samaradorlikka olib kelishi mumkin bo'lsa, tolali yigiriluvchi ekinlarni yetishtirishda Buxoro (1.97), Andijon (1.73), Qoraqalpog'istonning (1.42) salohiyatini e'tiborga olish kerakdir.

Ko'p yillik ekinlar (uzum, turli xil mevalar) ga ixtisoslashgan klasterlarni esa Toshkent viloyati (1.88), Farg'ona (1.69), Samarqand (1.50)

³⁰⁵ Муродов Ч. Перспективы развития агрокластеров в Узбекистане. – Ташкент: ИМПИ., 2014. – С.8. <http://ifc.uz/upload/iblock/2e5/2e57b3324b4aa6094652ec6f78094640.pdf>

hamda Surxondaryo (1.04) viloyatlarida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Chorvachilik klasterlarini rivojlantirish bo'yicha Navoiy (2.64), Toshkent viloyati (1.77) va Jizzax viloyatining (1.74) salohiyatini yuqori bo'lsa, alvakultura klasterlarini Sirdaryo (2.58), Toshkent viloyati (2.51) va Xorazmda (2,08) yanada rivojlantirish mumkindir. Bu esa mamlakatimiz hududlarining yashirin salohiyatlarini aniqlash va imkoniyatlarini to'g'ri baholashga olib keladi.

3.2.1-jadval

O'zbekiston viloyatlarining ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha joylashuv koeffitsienti (2020-yil)³⁰⁶


2020 yil							
	Donli ekinlar (sholidan tashqari), dukkaklilar va moyli ekinlar urug'i	Sholi	Sabzavot- lar va poliz ekinlari, ildizmevali ekinlar	Tolali yigiriluvchi ekinlar	Ko'p yillik ekinlar	Chor- va- chilik	Akva- kul- tura
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,93	1,66	1,78	1,42	0,22	0,88	1,38
Andijon	0,25	3,72	1,17	1,73	0,67	0,73	0,96
Buxoro	0,69	-	1,31	1,97	0,90	1,41	0,73
Jizzax	2,32	0,02	1,34	0,87	0,93	1,74	1,35
Qashqadaryo	1,60	-	0,61	0,97	0,89	0,98	0,50
Navoiy	1,59	-	1,69	1,05	0,94	2,64	1,12
Namangan	0,94	0,20	0,30	1,23	1,00	0,70	0,84
Samarqand	2,18	0,07	0,92	0,34	1,50	0,85	0,68
Surxondaryo	0,29	0,23	1,04	0,55	1,04	0,92	0,81
Sirdaryo	0,61	4,89	1,57	1,22	0,76	1,47	2,58
Toshkent	2,21	2,92	2,16	0,66	1,88	1,77	2,08
Farg'ona	0,45	0,09	0,62	1,33	1,69	0,66	0,65
Xorazm	0,06	2,73	0,96	1,53	0,70	1,36	2,51
Toshkent sh.	0,01	0,01	0,14	0,00	0,02	0,14	0,07

2017-2019-yillarda viloyatlarning ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan joylashuv koeffitsienti bo'yicha natijalar esa tadqiqot ishining 7-ilovasida keltirilgan.

Tolali yigiriluvchi ekinlar (paxta, zig'ir)ni yetishtirish bo'yicha viloyatlarning joylashuv koeffitsientini 2017-2020-yillarda o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2017-2020-yillarda mazkur yo'nalishda Qoraqalpog'iston, Andijon, Buxoro,

³⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

Navoiy, Namangan hamda Toshkent viloyatining ko'rsatkichlari oshgan bo'lsa, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Farg'onaning ko'rsatkichlari nisbatan pasaygan. Ayniqsa, bugungi kunda paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarishtirish keng qo'llanilayotgan Qashqadaryoda va Sirdaryoda joylashuv koeffitsientining sezilardi darajada pasaygani, Buxoro viloyatida ham 2020-yilda 2019-yilga nisbatan ko'rsatkichning pastlaganini alohida ta'kidlash kerak.



3.3.1-rasm. Tolali yigiriluvchi ekinlarni yetishtirish bo'yicha viloyatlarning joylashuv koeffitsienti (2017-2020)³⁰⁷

Albatta, bu kabi holatning ko'plab sabablari mavjud bo'lib, mazkur ko'rsatkichni hisoblashda tolali yigiriluvchi erkinlarni yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida faqat rasman ishlovchi ishchi xodimlarning soni qo'llanilgani hamda norasmiy bandlarning kiritilmagani ham inobatga olish kerak.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizning agrosanoat sohasining keng klasterlashtirilishi fermer xo'jaliklariga ham ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur bobning ikkinchi faslida ko'rsatilgan muammolarga qaramasdan, klasterlar doirasida faoliyat olib borayotgan ko'plab fermer xo'jaliklarining moliyaviy ahvoli yaxshilanmoqda. Xususan, tadqiqotning 8-ilovasida Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi 4 ta fermer

³⁰⁷ Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

xo‘jaligining paxta yetishtirish bo‘yicha iqtisodiy faoliyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning barchasi 2019-yildan buyon “Indorama” (Singapur) klasteriga a’zo sanalib, ta’kidlanganidek, fermer xo‘jaliklarining klasterga a’zo bo‘lganidan so‘ng ularning iqtisodiy ahvoli yaxshilangan. Xususan, paxta ekiladigan maydonning nisbatan qisqarishiga qaramasdan hosildorlik oshib, o‘g‘itlar va suv bilan ta’minlanganlik optimallashtirgan, ishchilarning o‘rtacha yillik oylik maoshi nisbatan oshgan. Ayniqsa klasterga a’zolikdan so‘ng fermer xo‘jaliklarning deyarli barchasining sof foydasining deyarli ikki barobar oshganini ko‘rish mumkin.

3.3.2-jadval

“Indorama” paxta-to‘qimachilik klasteriga a’zo “Sardor Sherdor Abdinazarov” fermer xo‘jaligining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari³⁰⁸

Yillar	Paxta ekiladigan maydon (ga)	Yalpi hosil (tonna)	Xosildorlik (s da 1 ga nisbatan)	Sof foyda (ming so‘ mda)	O‘g‘itlar bilan ta’minlanganlik (kg)			Suv bilan taminlanganlik (ming m ³)
					azot	fosfat	Kaliy	
2011	28	81,2	29	43281	16200	6400	3800	268
2012	26	78	30	45190	18900	6800	4200	276
2013	28	81,2	29	44450	15440	5950	3100	268
2014	32	96	30	49465	20800	9100	3920	290
2015	45	130,5	29	46224	16340	13500	6100	280
2016	28	86,8	31	50281	18200	8200	3800	300
2017	33	99	30	51010	16450	7900	3250	300
2018	38	117,8	31	58739	24700	11400	6100	280
2019	36	115,2	32	65648	13400	13600	8200	320
2020	19	64,6	34	140318	22350	13400	8200	320
2021	21	73,5	35	157841	28775	14200	8700	340

Mazkur tadqiqot ishida fermer xo‘jaliklarining istiqbolda klasterlar doirasidagi faoliyati natijalariga baho berish maqsadida ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun “Sardor Sherdor Abdinazarov” fermer xo‘jaligi misolida hosildorlikning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Fermer xo‘jaligining “Indorama” paxta-to‘qimachilik klasteriga tarkibiga 2019-yilda a’zo bo‘lganligini hisobga olgan holda tahlil uchun 2011-2021-yillar ko‘rsatkichlari olindi. Bu yerda dastlab natijaviy belgi sifatida hosildorlik (Y), omil belgilar sifatida quyidagilar belgilab olindi:

³⁰⁸ Fermer xo‘jaliklari taqdim etgan ma’lumotlar (2017-2021-yillar) asosida muallif tomonidan tuzilgan

- x_1 – 1 ga yerga chiqarilgan azot, kg;
- x_2 – 1 ga yerga chiqarilgan fosfat, kg;
- x_3 – 1 ga yerga chiqarilgan kaliy, kg;
- x_4 – suv bilan ta'minlanganlik, ming kub metr.

Bu ko'rsatkichlarning tanlab olinishiga sabab shuki, klasterlar fermer xo'jaliklarining mineral o'g'itlar va suv bilan ta'minlanishini yaxshilash orqali so'nggi uch yilda hosildorlik va sof foyda ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga erishdilar (3.3.2-jadval).

Bu omillarning hosildorlikka ta'siri chiziqli bo'lganligi sababli, regressiya tenglamasining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = a_1x_1 + a_2x_2 + \dots a_nx_n + b \quad (1)$$

Bu yerda $a_1, a_2 \dots a_n$ – tegishli omilning boshqa omillar o'zgarmas bo'lgan sharoitda prognozlashtirilayotgan ko'rsatkichga ta'sirini ko'rsatuvchi regressiya koeffitsientlari, b – erkin had.

Regression va korrelyatsion tahlilni bajarish uchun Microsoft Excel dasturidan foydalanildi. Olingan hisob-kitob natijalar shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan omil belgilar va natijaviy belgi o'rtasidagi bog'liqlik ancha zich bo'lib, korrelyatsiya koeffitsienti 0,98, determinatsiya koeffitsienti 0,97 ga teng bo'lmoqda (3.3.3-jadval)

3.3.3-jadval

Regression statistika va dispersion tahlil natijalari

Regressiya statistikasi	
Ko‘p miqdorli R	0,987007
R-kvadrat	0,974184
Normal R-kvadrat	0,956973
Standart xato	0,419548
Kuzatishlar soni	11

Dispersion tahlil					
	Df	SS	MS	F	F qiymati
Regressiya	4	39,85297	9,963242	56,60267	6,75E-05
Qoldiq	6	1,056124	0,176021		
Jami	10	40,90909			

Regressiya tenglamasini tuzishda quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz:

3.3.4-jadval

Hosildorlik hajmi hamda omilli belgilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik modelining parametrlari

	Koeffi-sientlar	Standart xato	t-statistika	P-qiymati	Pastki 95%	Yuqori 95%
Ozod had (a)	18,37493	2,714805	6,768416	0,000508	11,73204	25,01782
X 1	0,000124	4,19E-05	2,956275	0,025405	2,13E-05	0,000226
X 2	0,00029	0,000115	-2,49809	0,046649	-0,00057	-5,9E-06
X 3	0,000771	0,000202	3,81415	0,008821	0,000276	0,001266
X 4	0,031606	0,010212	3,095068	0,02125	0,006619	0,056593

Regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y=18,374+0,000124x_1+0,00029x_2+0,000771x_3+0,031606x_4 \quad (2)$$

Olingan natijalarni multikollinearlikka tekshirib ko'ramiz. Buning uchun juft korrelyatsiyalarni aniqlanadi. Aga $r_{ij}>0,7$ bo'lsa, u holda $x_i x_j$ multikollinear hisoblanadi. Juft korrelyatsiya koeffisientlarini olish uchun korrelyatsiya matrisasini hisoblash lozim. Buning uchun yana Microsoft Excel dasturiga murojaat qilamiz (3.2.5-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, juft korrelyatsiya koeffisientlari o'rtasida multikolleniarlik kuzatilmaydi. Shu sababli (2) tenglamani mohiyatli deb qabul qilish mumkin.


3.3.5-jadval

Korrelyatsiya matrisasi

	Y	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄
Y	1				
X ₁	0,67	1			
X ₂	0,69	0,41	1		
X ₃	0,61	0,45	0,62	1	
X ₄	0,62	0,45	0,69	0,68	1

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda klasterga a'zo fermer xo'jaliklari hosildorligining resurslar ta'minoti omillari – mineral o'g'itlar va suv ta'minoti ta'sirida 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi hamda 2021-2030-yillardagi o'zgarishi qiymatlari 3.2.2-rasmda ifodalandi. Tuzilgan trend modellaridan foydalanishda klaster asosida faoliyat yuritayotan fermer xo'jaligida kiritilayotgan resurslar hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan

resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash va resurs samaradorligini optimal ta'minlashga imkoniyat yaratadi.



2.3.2-rasm. “Sardor Sherdor Abdinazarov” fermer xo‘jaligida 2021-2030 yillarda hosildorlik ko‘rsatkichining o‘zgarishi, s/ga


2.3.2-rasm ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, 2030-yilga borib fermer xo‘jaligida hosildorlik ko‘rsatkichi bir gektardan 39,2 sentnerga yetadi. Hosildorlik va sof foyda ko‘rsatkichlari orasida kuchli korrelyatsion bog‘lanish borligini hisobga olsak ($r_{xy}=0,94$), 2030-yilda fermer xo‘jaligining sof foydasi ham sezilarli darajada oshadi. Bu esa fermer xo‘jaligining moddiy texnika bazasini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko‘rsatish bilan birga doimiy va mavsumiy ishchilar yillik o‘rtacha ish haqining oshishiga ham olib keladi.

Umuman olganda aytish mumkinki, O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi klasterning boshqa a‘zolari singari fermer xo‘jaliklariga ko‘plab iqtisodiy manfaat olib keladi. Shu sababli, bugungu kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini klasterlashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, 2020-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga binoan 2020-2025-yillarda O‘zbekistonning turli mintaqalarida 30 dan ortiq agroklasterlar, asosan paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish rejalashtirilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda Oltiariqda 7 ta uzum va vinochilik klasteri, Quvada

anorchilik klasteri va Farg‘ona viloyatining Quvasoy tumanlarida olchachilik klasterlari tashkil etilish ishlari olib borilmoqda³⁰⁹.

O‘zbekistonning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holda xorijiy tajribani o‘rganib, bizning fikrimizcha kelajakda vinochilik, sut mahsulotlari ishlab chiqarish, meva-sabzavotchilik, oziq-ovqat va don sanoati, ziravorchilikda qishloq xo‘jaligi klasterlarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, ushbu klasterlarning raqobatbardoshligi, ularning ekologik jihatdan qulayligini ta’kidlash mumkin va bu global iqtisodiyotda juda qadrlanadi. Shuningdek, ushbu klasterlash tadbirlarini uzoq muddatda amalga oshirish qishloq xo‘jaligining samarali rivojlanishini ta’minlaydi, mahsulot tannarxini pasaytiradi. Bundan tashqari, bu respublika aholisini oziq-ovqat bilan barqaror ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xom va qayta ishlangan shakllarda eksport qilish imkoniyatini beradi.

Bu o‘rinda, O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning 3 bosqichli modeli (dastur)ni taklif etish mumkindir. 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan mazkur dasturning I bosqichi 2021-2024-yillarni qamrab olib, klasterlarni shakllantirish bosqichi, II bosqich 2025-2027-yillarga mo‘ljallanib, agrosanoat klasterlarining innovativligini oshirish davri, III bosqich esa 2028-2030-yillarni qamrab olib, klasterlarning xalqarolashuv bosqichi sanaladi. 10-yillik mazkur dastur O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va faoliyatini jadallashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakat va islohotlarni qamrab oladi.



3.3.3-rasm. O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish dasturi

1-bosqichdan ko‘zlangan asosiy maqsad klasterlarning tabiiy ravishda

³⁰⁹ <https://daryo.uz/2019/05/07/fargonaning-oltiariq-tumani-toliq-uzumchilikka-ixtisoslashadi/>

shakllanishi uchun hududlarda zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat hisoblanadi.




3.3.2-rasm. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va faoliyatini jadallashtirish dasturining I bosqichi (2021-2024)³¹⁰

Ta'kidlash kerakki, bu jarayonda davlat muhim rol o'ynab,

³¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirildi.

raqobatbardosh klasterlarni vujudga kelishida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkolikni qo'llab-quvvatlash kabi instrumentlardan foydalanadi.



3.3.5-rasm. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va faoliyatini jadallashtirish dasturining II bosqichi (2025-2027)³¹¹


Klasterlarni rivojlantirish bo'yicha "dirijist" siyosatga tayangan holda mazkur bosqichda agrosanoat klasterlarini shakllantirish mumkin bo'lgan ustuvor tarmoqlarning aniqlanishi va raqobatbardosh klasterlar vujudga

³¹¹ Muallif tomonidan shakllantirildi.

kelishini ta'minlaydi. Bu o'rinda klasterlar davlatning qo'llab-quvvatlashi natijasida uzoq yillik tajriba va salohiyat mavjud hududlarda xususiy sektor tomonidan shakllantirilishi muhimligini alohida ta'kidlash lozimdir.

2025-2027-yillarni qamrab oluvchi II bosqichning maqsadi klasterlar doirasida ilm-fanni keng joriy etish va natijada klasterlarning innovativligini oshirish sanaladi. Buning uchun albatta, avvalo agrar sohada oliy ta'lim tizimini isloh qilish, agrosanoat tarmog'i bilan bog'liq ta'lim yo'nalishlarida ta'lim sifatini oshirish, bu sohada ITTKIning moliyalashtirish hajmini ko'paytirish lozimdir.


Klasterlar doirasida ilm-fan rivojini ta'minlash uchun OTMlarning texnik bazasini mustahkamlash va ularning qoshida ilmiy laboratoriyalar, texnologik parklar yaratish kerak. Bu parklarda agrosanoat tarmog'ini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yangi va sifatli turlari, nasllarini yaratish, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan o'g'itlar, turli xil kimyoviy moddalarning xususiyatlarini o'rganish, agrar sohada qo'llaniladigan raqamli texnologiyalarni yaratish kabi ishlar, loyihalar amalga oshirilishi kerak. Bu klasterlarni rivojlantirish jarayonidagi eng muhim bosqich bo'lib, konstruktiv, ijodkor va innovatsion fikrlovchi inson kapitalini agrosanoat klasteri faoliyatini samarali tashkil etishda eng muhim omil deyish mumkindir.



3.3.6-rasm. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va faoliyatini jadallashtirish dasturining III bosqichi (2028-2030)³¹²

³¹² Muallif tomonidan shakllantirildi.

So‘nggi 3-bosqich agrosanoat klasterlarini xalqarolashuv bosqichi bo‘lib, bu davrga kelib, klasterlar nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamizda ham raqobatbarosh bo‘lishi hamda qo‘shni mamlakatlarning agrosanoat klasterlari bilan raqobatlasha olishi lozimdir. Buning uchun avvalo 1 va 2 bosqichlarda keltirib o‘tilgan qadamlarni amalga oshirish va klasterlarning xalqaro savdo operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash lozim. Xalqarolashuvning mazmuni klasterlarning faqatgina tashqi savdosida emas, balki xorijiy klasterlar bilan ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqotchilik sohalaridagi hamkorligi, tajriba almashishida yotadi. Albatta, klasterlarning tashqi savdo faoliyatini uni tashkil topgan vaqtdan birdaniga qo‘llab-quvvatlash mumkindir, ammo fikrimizcha avvalo bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat yurituvchi raqobatbardosh klasterlarni shakllantirib, so‘ngra uning ilm-fan bilan hamkorligini rivojlantirsak va keyin xalqaro maydondagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlasak, xalqaro maydonda ham raqobatbardosh bo‘lgan klasterlarga erishamiz.



3.3.7-rasm. O‘zbekiston agrosanoat klasterlarining istiqboldagi sxematik ko‘rinishi³¹³

Taklif etilayotgan dasturda belgilangan qadamlar, harakatlar bir qarashda oddiy, umumiy ko‘rungani bilan, ularni amalga oshirmay turib

³¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

samarali faoliyat olib boruvchi klasterlarni shakllantirish murakkab deb hisoblaymiz. Bundan oldingi faslda mamlakatimizdagi agrosanoat klasterlarining hozirgi sxematik ko'rinishini tasvirlanib, unda klaster bir firma ko'rinishida ifodalanib, fermerlar bilan mahalliy hokimiyat orqali muloqot yo'lga qo'yilgani ko'rsatib berilgan edi. Fikrimizcha, taklif etilgan dasturda belgilangan vazifalar amalga oshirilganda mamlakatimiz agrosanoat klasterlari sxemasi 3.3.7-rasmdagi kabi ko'rinish kasb etadi. Ya'ni agrosanoat klasteri bir firma sifatida emas, balki bir tizim sifatida o'z ichiga kiruvchi iqtisodiy subyektlarni birlashtirib, o'zaro raqobat va hamkorlik natijasida faoliyat olib boradi. Alohida ta'kidlash lozimki, mazkur jarayonda tegishli davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar faqatgina klasterning sog'lom raqobat muhitida faoliyat olib borishi uchun shart-sharoit yaratishda ko'maklashish vazifasini o'taydi.

Demak, aytish mumkinki, O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish kompleks yondoshuvni talab qilib, nafaqat qishloq xo'jaligi, sanoat, balki ta'lim tizimi, transport, boshqaruv, tashqi savdo masalalarini ham qamrab oladi.

XULOSA

Milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasini tadqiq etish natijasida xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotda, xususan agrosanoat tarmog'ida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda klasterlarning asosini tashkil etuvchi 5 ta omil (geografik yaqinlik, kooperatsiya, ixtisoslashuv, kritik massaning shakllanganligi, innovatsiya) hamda hududda uzoq yillar davomida shakllangan va to'plangan tajriba muhim o'rin egallashini, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning universal modeli yo'qligi, klasterlashtirish modeli har bir mamlakatning o'z potensialidan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozimligini inobatga olish, klasterlarni yoppasiga hamma sohalarda emas, balki raqobatbardosh tarmoqlarda shakllantirish kerakligi va klasterlar faoliyatiga ortiqcha byurokratik yo'llar bilan aralashmaslik, klasterning bozor qonuniyatlari asosida tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, klasterlarning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq anglash uchun xorij tajribasini o'rganish, ularning boshqa aglomeratsiya turlaridan farqlarini aniqlash belgilash lozimdir.

Klaster iqtisodiy aglomeratsiyaning bir turi sifatida ixtisoslashgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, ma'lum sohada faoliyat yurituvchi firmalar (xom-ashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar), ilm-fan tarmog'i (ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, laboratoriyalar), mahalliy hokimiyat organlari hamda to'ldiruvchi tarmoqlar (marketing, sug'urtalash, bank xizmatlari)ning o'zaro kooperatsiya (hamkorlikdagi raqobat) asosidagi konsentratsiyasini anglatadi. Ham hududiy ham milliy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim sanaluvchi klasterlarning asosida geografik yaqinlik va konsentratsiya, o'zaro hamkorlik, raqobat, innovatsiyalar, ilm-fan, muqobil klaster siyosati hamda tarixan shakllangan tajriba yotadi. Klasterlarni shakllantirishda hududning tabiiy imkoniyatlari (xom-ashyo salohiyati, bozor infratuzilmasining shakllanish darajasi, tajribali kadrlarning mavjudligi)ni inobatga olish hamda klasterlarni yoppasiga hamma sohalarda emas, balki raqobatbardosh tarmoqlarda shakllantirishga e'tibor qaratish lozimdir.

Agrosanoat klasterlari iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligi va meliorativ holati, davlat tomonidan moliyalashtirish hajmi hamda hududdagi mahalliy aholining uzoq yillik ishlab chiqarish tajribasiga asoslanishi bilan boshqa turdagi klasterlardan farq qilishini inobatga olib, ularni BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturining muhim dastaki sifatida milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini yumshatish instrumenti sifatida

mamlakatimizda keng rivojlantirish kerakdir. Jahon tajribasiga asoslangan holda hamda mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan klasterlashtirish siyosatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda agrosanoat tarmog'i va umuman milliy iqtisodiyotni klasterlar orqali rivojlantirishda "dirijist" boshqaruv shaklini qo'llash tavsiya etiladi.

O'zbekistonda iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribalaridan foydalanish klasterlar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mamlakatimizda AQShning klasterlarni xaritalash va klassifikatsiyalash, OTM va ilmiy-tadqiqot institutlarining klasterlarning innovativligini oshirishdagi tajribasini, Yevropa mamlakatlarining agrosanoat klasterlarini atrof-muhit va iqlim o'zgarishlariga moslashish instrumenti sifatida rivojlantirish, xalqaro hamkorlik qilish, klasterlashtirishda davlat-xususiy sektor sherikchiligi tajribasini, Xitoyning klasterlarni rivojlantirishda hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining qo'llab-quvvatlash siyosati, "ajdar boshli korxonalar" orqali agrosanoat klasterlarining eksport salohiyatini oshirish tajribalarini qo'llash mumkindir.

O'zbekistonda hozirgi kunda tashkil etilayotgan agrosanoat klasterlari faoliyatini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilayotgan ayrim salbiy tendensiyalar (innovatsion sohaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududlarda ishlab chiqarish vositalarining yetishmasligi, universitetlar va biznes hamkorligining rivojlanmaganligi, klasterlarning bitta korxona asosida shakllanishi, klasterlar faoliyatiga mahalliy hokimliklarning aralashuvi, klaster mohiyatining noto'g'ri talqin qilinishi, fermer xo'jaliklarining klasterlarga a'zoligi hokimliklar tomonidan belgilanishi kabilar)ni davlat va xususiy sektor sherikchiligining optimal darajasini ta'minlash orqali bartaraf etish mumkin hisoblanadi.

O'zbekistonda raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllantirishda viloyatlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha joylashuv koeffitsienti (Location quotient)ni inobatga olish va klasterlarni raqobat ustunliklari mavjud tarmoqlarda hamda hududlarda rivojlantirish kerakligini ta'kidlash lozimdir. O'zbekiston agrosanoat klasterini shakllantirish va rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan to'liq va to'g'ri foydalanish dolzarb sanalib, agroklasterlarni rivojlantirish uchun ularning huquqiy maqomini belgilash, qishloq xo'jaligi sohasida ITTKI xarajatlarini ko'paytirish, ilm-fan tarmog'ini agroklasterlarga jalb qilish, ta'lim tizimini isloh qilish, konstruktiv inson kapitalini shakllantirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, davlat-xususiy sektor kooperatsiyasi tashabbuslarini

qo'llab-quvvatlash, fermer xo'jaliklariga klasterlarga a'zolikni erkin belgilash huquqi berilganini inobatga olib, mahalliy hokimiyat organlarining klasterlar faoliyatiga ortiqcha aralashish amaliyotini keskin kamaytirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqilishi kerakdir. Bunda, fikrimizcha O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha 10-yilga mo'ljallangan hamda klasterlarni shakllantirish bosqichidan to innovativ jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va klasterlarning xalqarolashuv bosqichigacha bo'lgan muhim qadamlarni o'z ichiga olgan dastur muhim o'rin tutishi mumkindir. Zero, unda 1-bosqichda klasterlarni klasterlar nazariyasi va jahon amaliyotiga asoslangan holda shakllantirish, 2-bosqichda OTMLar hamkorligi va ITTKI xarajatlarini oshirish orqali ularning innovativligini oshirish va 3-bosqichda ularning xalqaro darajada hamkorlik va raqobatbardoshligini ta'minlash taklif etilib, dasturdan mamkakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini yanada rivojlantirishda foydalanish mumkindir. Shuningdek, O'zbekistonda samarali faoliyat yuritadigan va raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllantirish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xususan YeIning "European Cluster Partnership for Going International" kabi xalqaro dasturlarda ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1.1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
[/https://lex.uz/docs/6445145](https://lex.uz/docs/6445145)

1.2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>

1.3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3279-sonli "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <http://lex.uz/docs/3352681?twolang=true>

1.4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/acts/-3459667>

1.5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF53-88-sonli "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3604601>

1.6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-sonli "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5457613>

1.7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilning 28-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasi. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisiga-murozhaatnomasi>

1.8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi PQ-4549-sonli "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4641164>

1.9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

1.10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>

1.11 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 53-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3527470>

1.12 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3527470>

1.13 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-martdagi «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 397-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4865905>

1.14 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentabrda “Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop tumanlarida agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4500423>

1.15 Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №794 от 21 сентября 2019 года “О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Бухарской области в период 2019 — 2023 годов”. <https://lex.uz/ru/docs/4525526>

1.16 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrda “Boshoqli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 806-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4529920>

II. Monografiyalar, ilmiy maqolalar, patentlar, ilmiy to‘plamlar

2.1 Ablaev I. Innovation clusters in the Russian economy: economic essence, concepts, approaches // Procedia Economics and Finance, 2015. Vol. 24. – P. 3-12.

2.2 Alimov A.M. Innovatsion rivojlanish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda klaster mexanizmining ahamiyati // Milliy innovatsiya tizimi shakllanishining ilmiy-konseptual va amaliy jihatlari: xorijiy tajriba va undan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari.–Toshkent, 2016. – B. 38-41;

2.3 Andersson T., Schwaag-Serger S., Sorvik J., Hansson E. The Cluster Policies Whitebook. – Malmö: IKED, 2004. – 252 p.

2.4 Andriushchenko K., Kovtun V., Shergina L., Rozhko O., Yefimenko L. Agro-based Clusters: A Tool for Effective Management of Regional Development in the ERA of Globalisation // TEM Journal, 2020. – № 9. –P. 198-204.

2.5 Bergman E., Feser E. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – Morgantown: “Regional Research Institute, West Virginia University”, 1999. – 92 p.

2.6 Broeckaert L. Digital transformation in Japan. – Tokyo, 2022. – 119 p.

2.7 Cao Q., Yan Z., Chu F., Tang Y. The current situation and countermeasure of development of agricultural clusters in China // Jiangsu Agricultural Sciences, 2010. – No.6. – P. 608-610.

2.8 Catalin B. Clusters Models, Factors and Characteristics // International Journal of Economic Practices and Theories. – Vol.1, No.1, 2011. – P.34-43

2.9 Christensen J., Rama R., von Tunzelmann N. Study on innovation in the European Food Products and Beverages industry. – Luxembourg: European Innovation Monitoring System, EIMS Publication, 35. European Commission, Directorate General XIII, 1996.

2.10 Combes P., Mayer T., Thissie, J. Economic geography, the integration of Regions and Nations. – Princeton: Princeton University Press, 2008. – 399 p.

2.11 Comin D. Technology Diffusion and Postwar Growth / D. Comin, B. Hobijn // Federal Reserve Bank of San Francisco. – 2010. – № 16. – Electronic text data (<http://www.frbsf.org/publications/economics/papers/2010/wp10-16bk.pdf>)

2.12 Competitive Regional Clusters: National Policy Approaches. OECD reviews of regional innovation. – OECD, 2007. – 354 p.

2.13 Davis H. Regional impact analysis and project evaluation. – Vancouver: UBC Press, 1990. – Chapter 2. – 192 p.

2.14 Delgado M., Porter M. Clusters and the great recession. –2021. – 40 p. (available on https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3819293)

2.15 Demurger S., Sachs J., Woo W., Bao S., Chang G. The relative contributions of location and preferential policies in China’s regional development: Being in the right place and having the right incentives // China Economic Review, 2002. – Vol. 13, No. 4. – P. 444–465.

2.16 Doronina et al. Agro-industrial Clusters as a Factor of Increasing Competitiveness of the Region // International Journal of Economics and Financial Issues. – Yenice, 2016. – Vol 6. – P. 295-299

2.17 Enright M., Hung S., Prof. Kai. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper. – Hong Kong: University of Hong Kong, 2000. –P. 15. (<http://www.paca->

online.org/cop/docs/Michael_Enright__

Survey_on_the_characterization_of_regional_clusters.pdf)

2.18 Etzkowitz H. The Triple Helix of University-Industry-Government: Implications for Policy and Evaluation. Working Paper. – Stockholm: Science Policy Institute, 2002. – 18 p.

2.19 European Cluster Collaboration Platform. European Cluster Panorama 2021: Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. – Brussels, 2021. – 116 p.

2.20 European Commission, Directorate-General for Research and Innovation. *Horizon Europe, pillar II - Global challenges and european industrial competitiveness*. – Publications Office, 2021 (<https://data.europa.eu/doi/10.2777/886065>)

2.21 Felzensztein C., Huemer L., Gimmon E. The effects of co-location on marketing externalities in the salmon-farming industry // *Journal of Business & Industrial Marketing*. – Bingley: “Emerald Publishing Limited”, 2009. – Vol. 25(1). – P. 73-82.

2.22 Feser E., Steiner M. (ed.). Old and new theories of industry clusters. In *Clusters and Regional Specialisation*. – London: “Pion”, 1998. – P.18-40

2.23 Giuliani E., Pietrobelli C., Rabellotti R. Upgrading in global value chains: lessons from Latin American clusters // *World development*. – Amsterdam: “Elsevier”, 2005. – Vol. 33, Issue 4. –P. 549-573

2.24 Hasanov et al. An establishment of agroclusters as a key for the development of agro-processing industry in Uzbekistan // *ReCCA-Conference 2014*. – Leibnitz: Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO), 2004. – 8 p. (<http://EconPapers.repec.org/RePEc:ags:iamc14:212556>)

2.25 Humphrey J., Schmitz H. Governance and upgrading: linking industrial clusters and global value chain research. IDS Working Paper 120. – Sussex: Institute of Development Studies, 2000. – 37 p.

2.26 Industrial Cluster Project. – Regional Technology Division, Regional Economic and Industrial Policy Group, Ministry of Economy, Trade and Industry, 2009. – 64 p. (<http://www.meti.go.jp/>, <http://www.cluster.gr.jp/en>)

2.27 Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // *Research papers of Wrocław University of Economics*. – Wrocław: Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu, 2017. – No. 486. – P. 71-79.

2.28 Jolanta S., Patrocinio S.Z, Bartolome M. Clusters into Poland and Spain: comparative case study of two clusters from the agricultural industry // Экономика: реалии времени, 2016. – №2 (24). – P.6-16. (<https://cyberleninka.ru/article/n/clusters-into-poland-and-spain-comparative-case-study-of-two-clusters-from-the-agricultural-industry>)

2.29 Ketels C. Clusters, Cluster Policy, and Swedish Competitiveness in the Global Economy. –Stolckholm, 2009. – 66 p;

2.30 Ketels C., Lindqvist G., Sölvell Ö. Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe: The Role of Cluster Organization. – Stockholm: The Cluster Observatory, 2012. – 50 p.

2.31 Ketels Ch., Protsiv S. European Cluster Panorama 2016. European Cluster Observatory REPORT. – Stockholm: Stockholm School of Economics, 2016. – 73 p.

2.32 Kiminami L., Kiminami A. Agricultural Clusters in China // International Association of Agricultural Economists Conference. – Beijing, 2009. – 22 p.

2.33 Kiminami L., Kiminami A. Agricultural Industry Clusters in China. // Food Security and Industrial Clustering in Northeast Asia. New Frontiers in Regional Science: Asian Perspectives. – Tokyo, 2016. – Vol 6. –129-142. (https://doi.org/10.1007/978-4-431-55282-6_10)

2.34 Kominers S. Measuring agglomeration. 2007 – 11 p. (http://www.scottkom.com/articles/measure_agglomeration.pdf)

2.35 Konstantynova A. Basque Country cluster policy: the road of 25 years // Regional Studies, Regional Science, 2017. –No. 4. – P.109-116.

2.36 Krugman P. Geography and trade. – Cambridge, Massachusetts: “MIT Press”, 1991. – 156 p.

2.37 Kundius V., Kovaleva I., Semina L., Voronkova O. Sannikova I., Bobrovska T. Functioning of the Agro-Industrial Cluster in Terms of Development of Innovative-Investment Activity // International Business Management, 2017. – №11 (12). – P. 2097-2103

2.38 Li E. The Formation, Evolution and Innovative Development of Agricultural Clusters in China: Case of the Cluster Nature of “Shouguang Mode” // SCIENTIA GEOGRAPHICA SINICA. – Cahngchung, 2020. – №. 40(4). – P. 617-627. (<http://geosciencenigae.ac.cn/EN/10.13249/j.cnki.sgs.2020.04.014>).

2.39 Li E., Coates K., Li X., Ye X., Leipnik M. Analyzing Agricultural Agglomeration in China //Sustainability. – Basel, 2017. – №9(2), 313. – 19 p.; <https://doi.org/10.3390/su9020313>

2.40 Lopez-Medina F. Cluster policies in two emerging economies: Mexico and China, Korea // Review of International Studies, 2010. –Vol. 13, No.2.

2.41 Malmberg A. et al. Spatial Clustering, Local Accumulation of Knowledge and Firm Competitiveness // Geografiska Annaler. Series B, Human Geography, 1996. – Vol.78, №2. – P.85-97. www.jstor.org/stable/490807.

2.42 Marijn M., Yves S., Erwin K. Introduction: Agribusiness Clusters in Europe, 19th and 20th Centuries. Tijdschrift voor Sociale en Economische Geschiedenis // The Low Countries Journal of Social and Economic History. – Amsterdam, 2016. – VOL. 13. – No. 4. – 16 p.

2.43 Marshall A. Principles of Economics. – London: “Palgrave Macmillan UK”, 1890. – 731 p.

2.44 Martin R., Sunley P. Deconstructing Clusters: Chaotic Concept or Policy Panacea? // Journal of Economic Geography. – Oxford: “Oxford university press”, 2003. – Vol. 3. – P. 5-35.

2.45 Mueller R., Sumner D., Lapsley J. Clusters of grapes and wine // International Wine Business Research Conference. – Montpellier, 2006. – 19 p. (https://www.researchgate.net/publication/241283432_CLUSTERS_OF_GRAPES_AND_WINE)

2.46 Nogales E. Agro based clusters in developing countries: staying competitive in globalised economy // Agricultural management, marketing and finance. Occasional Papers No. 25, FAO-Agricultural Management, Marketing and Finance. – Rome, 2010. – 118 p.;

2.47 Pérez-Mesa J.C., Galdeano-Gómez E. Agrifood cluster and transfer of technology in the the Spanish vegetables exporting sector: the role of multinational enterprises // Agric. Econ. – czech, 2010. – 56, (10). – P. 478–488.

2.48 Ping L., Waldemar K. The Experience of International Agricultural Clusters and Enlightens for China. Technical Report · – 24 p.

2.49 Piore M., Sabel C. The second industrial divide – Possibilities for prosperity. – New York: “Basic Books”, 1984. – 354 p.

2.50 Porter M. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. – Boston, MA, 1998. – Nov/Dec. – Vol.76, Issue 6. – P. 77-90;

2.51 Porter M. Location, Competition, and Economic Development; Local Clusters in a Global Economy // Economic Development Quarterly. – Vol 14, Issue 1, 2000. – P. 15-34.

(https://econpapers.repec.org/article/saeecdequ/v_3a14_3ay_3a2000_3ai_3a1_3ap_3a15-34.htm)

2.52 Porter M. On Competition. – Boston, MA: Harvard Business School Press, 1998. – 485 p.

2.53 Porter M. The Competitive Advantage of Nations. // Harvard Business Review. – Boston, MA, 1990. – March/April. – P. 73-91

2.54 Porter M., Ketels C. Clusters and Industrial Districts: Common Roots, Different Perspectives // A Handbook of Industrial Districts. – Northampton: “Edward Elgar Publishing”, 2009

2.55 Porter M., Ramirez-Vallejo J., Eenennaam F. The Dutch Flower Cluster // Harvard Business School Case 711-507, 2011. – 32 p. (https://www.researchgate.net/publication/256015121_The_Dutch_Flower_Cluster)

2.56 Rama R. Innovation in the food industry // IV congreso internacional de horticultura mediterránea. – Almería: Universidad de Almería, 2005. – P. 139–145.

2.57 Ramon M. The growth of an agribusiness cluster in Catalonia: Evidence from the olive oil industry // Tijdschrift voor Sociale en Economische Geschiedenis. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2016. – Vol. 13(4). – P. 41-66.

2.58 Ricart J., Enright M., Ghemawat P., Hart S., Khanna T. New Frontiers in International Strategy // Journal of International Business Studies. – Palgrave, 2004. 35. – P. 175-200

2.59 Schmiedeberg C. Evaluation of cluster policy: a methodological overview // Evaluation, 2010. – № 16(4). – P. 389-412. (<https://danube-inco.net/object/document/10551/attach/Evaluation-2010-Schmiedeberg-389-412.pdf>)

2.60 Sector study on covered horticulture in France. – Commissioned by The Agricultural Counsellor at the Embassy of the Netherlands in France on behalf of The Netherlands Enterprise Agency, 2021. – 135 p.

2.61 Sharma S., Anupam. Agro-based Clusters: A Tool for Competitiveness of Indian Agriculture in the ERA of Globalisation // Global Journal of Finance and Management. – Delhi, 2014. – V.6, No.8. – P. 713-718 (<http://www.ripublication.com>)

2.62 Shi Y., Li E., Li X. Innovation efficiency and influencing factors: analysis of 32 enterprises in the Shouguang vegetable industrial cluster of Shandong Province // PROGRESS IN GEOGRAPHY, 2014. – No. 33(7). – P. 1000-1008 (<http://www.progressingeography.com/EN/10.11820/dlkxjz.2014.07.015>)

- 2.63 Sölvell Ö. Clusters, Balancing Evolutionary and Constructive Forces. – Stockholm: “Ivory Tower Publishers”, 2008. – 137 p.
- 2.64 Sölvell Ö., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative Greenbook. – Stockholm: “Ivory Tower”, 2003. – 92 p.
- 2.65 Strong Clusters in Innovative Regions. – Stockholm: Center for Strategy and Competitiveness, CSC. Stockholm School of Economics, May 2011 (available at: www.clusterobservatory.eu.)
- 2.66 Teng Z., Wang H. Review of the study on Sino-foreign agricultural industrial clusters // Ludong University Journal (Natural Science Edition). – Yantai, 2012. – Vol. 28. – P.81-87.
- 2.67 Theus F., Zeng D. Agricultural clusters // Agricultural Innovation Systems: An Investment Sourcebook. – Washington DC: World Bank, 2012 (<http://siteresources.worldbank.org/INTARD/Resources/335807-1330620492317/8478371-1330712171692/Module5-TN4.pdf>)
- 2.68 Tsiligiris V. An adapted Porter Diamond Model for the evaluation of transnational education host countries // International Journal of Educational Management. – Bingley: “Emerald Publishing Limited”, 2018. – 21 p.
- 2.69 Wandel C. Industry Agglomerations and Regional Development in Hungary: Economic Processes During European Integration. – Frankfurt am Main: “Peter Lang”, 2010. – 278 p.
- 2.70 Wang J., Mei L. Dynamics of labour-intensive clusters in China: Relying on low labour costs or cultivating innovation? Working paper // Discussion Paper Series, International Office for Labour Studies. – Geneva: International Labour Organization, 2009. – Vol. 195.
- 2.71 Wang Y. The development modes of agricultural clusters // Journal of Anhui Agricultural University (Sci. Sci.). – Hefei, 2009. – No.18. – P.23-26.
- 2.72 Xin L. The role of local government in agricultural clusters // Commercial Research, 2009. – No.3. – P. 71-75.
- 2.73 Yamashita T. The Agriculture-Food-Tourism Industry Cluster in Japan: Case Studies of Tourism Industry Clustering in Okinawa and Aichi. In: Kuchiki A., Mizobe T., Gokan T. (eds) A Multi-Industrial Linkages Approach to Cluster Building in East Asia. – London: “Palgrave Macmillan”, 2017. Chapter 4 (https://doi.org/10.1057/978-1-137-57128-1_4)
- 2.74 Ying C. Growth of agricultural clusters in the new stage of development // Issues in Agricultural Economy, 2006. – No.3. – P.5-7.

2.75 Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –Р.33-39;

2.76 Абдиев М., Токторов К. Роль и значение агропромышленного кластера в экономике страны // Экономика и бизнес: теория и практика. – Новосибирск, 2017. – №4-1. – 4 с. (<https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-znachenie-agropromyshlennogo-klastera-v-ekonomike-strany>)

2.77 Абдувалиев А.А. Кластер – миллий иқтисодиётнинг инновацион ривожланишидаги ўрни ва роли. Рисола. – Т.: “LessonPress”, 2017 й. – 68 б.

2.78 Акабиров Д.Н. Инновационная стратегия (учебное пособие) – Т.: “Иқтисодиёт”, 2011. – 352 с;

2.79 Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. Теория и практика. – Т.: “Patent-press”, 2005. – 53 с.;

2.80 Алимов Р., Курбанова Д., Расулов А. Развитие хлопкового комплекса – важное направление кластерной экономической политики в Узбекистане // Общество и Экономика. – Москва, 2005. – № 7-8.

2.81 Асаул Л. Строительный кластер – новая региональная производственная система [Электронный ресурс] // Экономика строительства. – Москва, 2004. – № 6. (<http://www.mbrk.ru>)

2.82 Ахматова Л.С., Алиев Ш.Х. кластерный подход в развитии региональной экономики // Фундаментальные исследования. – Москва, 2013. – № 1-1. – С. 196-199; URL: <https://www.fundamental-research.ru/ru/article/view?id=30926> (дата обращения: 05.02.2017)

2.83 Богославец Д. Эволюция понятия «кластер» различных научных школ // Transport business in Russia. – Москва, 2015. – №2. – С.34-36

2.84 Бородина М.А. Формирование экономических кластеров в регионе // Вестник Пермского университета. – Пермь, 2010. – №2 (5). – С.37-44.

2.85 Брутуан М.М. Проблема формирования инновационных кластеров как инструментов институционального и промышленного развития региональной экономики // Вестник Евразийской науки, 2020 №1, <https://esj.today/PDF/11ECVN120.pdf> (доступ свободный).

2.86 Буянова М., Дмитриева Л. Оценка эффективности создания региональных инновационных кластеров // Вестник ВолГУ, 2012.–

№2. – С. 54-62 (<https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-sozdaniya-regional-nyh-innovatsionnyh-klastero>)

2.87 Бэ Ўа.С. Управление развитием текстильной промышленности на основе стратегии формирования кластеров (на материалах Республики Корея и Республики Узбекистан). Дис. ... канд. экон. наук:08.00.13/ Бэ Ўанг Сонг – Ташкент, 2008. – 139 с.

2.88 Виноградов Н., Денисова Н. Агропромышленный комплекс страны: структура и проблемы функционирования в современных условиях // Вестник НГИЭИ. – Княгинино, 2015. – №9 (52). – С.39-42. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agropromyshlennyy-kompleks-strany-struktur-i-problemy-funktsionirovaniya-v-sovremennyh-usloviyah>

2.89 Гордеев А. В. Актуальные проблемы развития сельского хозяйства России // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – Москва, 2005. – № 8. – С. 3–7.

2.90 Горетов И.Н. Финансовый механизм управления региональными птицеводческими кластерами: автореф. дис. ... докт.экон.наук: 08.00.05, 08.00.10. Горетов Игорь Николаевич. Йошкар-Ола, 2010. – 44 с.

2.91 Грановеттер М. Успех инновационного кластера основан на открытости, гибкости и свободе // The New Times, 2010, 6 апреля.

2.92 Доржиева Е. Формирование агропромышленных кластеров как условие инновационного развития региональных систем // Известия ИГЭА, – 2011. – № 4(78). –С. 64-69.

2.93 Доржиева Е. Формирование и развитие конкурентоспособных агропромышленных кластеров на мезоуровне экономики. – СПб.: “Изд-во Санкт-Петербург. ун-та управления и экономики”, 2012. - 168 с.

2.94 Еременко, И. А. Логистизация кластерного подхода развития региональной экономики / И. А. Еременко, Т. И. Еременко. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 12 (116). – С. 1239-1249. — URL: <https://moluch.ru/archive/116/31510/>

2.95 Жўраев Т., Ҳамидов М. Ўзбекистонда агросаноат кластерларини ривожлантириш ва уларнинг қишлоқ хўжалиги тараққиётида тутган ўрни // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. – Тошкент, 2019. – № 2, Апрель. – 9 б.

2.96 Захидов Г. Факторы формирования кластерного производства //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. – Тошкент, 2015. – № 3, май-июнь. – 6 с.

2.97 Захидов Г.Э. Ўзбекистон енгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги. Иқтисодиёт фан. фалсафа докт... дис.: 08.00.13/ Захидов Гафурджан Эркинович. – Т., 2017. –162 б.

2.98 Ионис А. Проблемы реализации инновационной кластерной политики с точки зрения государственного управления // Кластер. Исследования и разработки. – Москва, 2015. – №1 (1). – С.6-16.

2.99 Камилова М. Кластеры в эволюции // Экономическое обозрение, 2022. – № 1 (265). – С. 2-10.

2.100 Камилова М., Мусаева Р. Кластерная концепция экономического развития // Экономическое обозрение, 2021. – № 12 (264). – С. 78-84.

2.101 Ковалева И. Инвестиционная привлекательность молочнопродуктового подкомплекса АПК (теория, методология, практика) : диссертация ... доктора экономических наук: 08.00.05 / Ковалева Ирина Валериевна; – Москва, 2008. – 37 с.

2.102 Курбанова Д., Каримов С. Формирование кластера в легкой промышленности Узбекистана // Рынок, деньги и кредит. – Ташкент, 2016. – №1

2.103 Куценко Е. Кластеры и технопарки. Инновационный коктейль или трезвый расчет? Семинар «Кластерные политики и кластерные инициативы». – Москва, 2013. (<https://www.slideshare.net/evgenykutsenko/27112013-28698374>)

2.104 Куценко Е., Артемов С. Абашкин В., Исланкина Е. Агропромышленные кластеры: зарубежный опыт и российские практики. – Москва: Российская кластерная обсерватория. ИСИЭЗ НИУ ВШЭ. – 18 с. <https://cluster.hse.ru/mirror/pubs/share/216098004>

2.105 Леметти Ю., Келебай Р. Кластерная политика как инструмент государственного регулирования агропродовольственного сектора экономики // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – №2.2 (<https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=21481>)

2.106 Марков Л. Экономические кластеры: понятия и характерные черты // Актуальные проблемы социально-экономического развития: взгляд молодых ученых. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2005. – Разд. 1. – С. 105-108

2.107 Марков, Л. Кластеры: формализация взаимосвязей в неформализованных производственных структурах / Л. С. Марков, М. А. Ягольницер. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2006. – 195 с.

2.108 Международные экономические отношения: Учебник / Под ред. И.П. Фаминского. — М.: Юристъ, 2001. — 847 с.

2.109 Мирзахалилова Д. Повышение конкурентоспособности текстильной промышленности Узбекистана на основе кластеризации. Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.03/Мирзахалилова Дамира Миннисалиховна. — Ташкент, 2012. — 150 с.

2.110 Муродов Ч. Перспективы развития агрокластеров в Узбекистане. — Ташкент: ИМПИ., 2014. — 13 с.
http://ifc.uz/upload/iblock/2e5/2e57b3324b4_aa6094652ec6f78094640.pdf

2.111 Настин А.А. Зарубежный опыт развития аграрных кластеров // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. — Москва, 2010. (<http://naukarus.com/zarubezhnyy-opyt-razvitiya-agrarnyh-klasterov>)

2.112 Наука и инновации: выбор приоритетов / Отв. ред. Н.И. Иванова. — М.: ИМЭМО РАН, 2012. — 235 с.

2.113 Оборина Е.Д. Зарубежный подход к оценке эффективности кластерной политики // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. — 2016. — № 4(48). — С. 615-622.

2.114 Рузиев Р. Кластер в концепции инновационной системы // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. — Тошкент, 2014. — № 6, ноябрь-декабрь. — 6 с.

2.115 Сердобинцев Д., Матвеева О., Сорокина Л. Мировой, европейский и российский опыт развития кластерной политики в агропромышленном комплексе // Фундаментальные исследования. — Москва, 2014. — № 9-8. — С. 1825-1830 (<http://www.fundamental-research.ru/ru/article/view?id=35149>)

2.116 Сижажева С., Мирзоева Ж., Кумышева М., Абанокова Э. Агропромышленные кластеры как условие инновационного развития однотипных региональных экономик // Региональная экономика. — УЭКС, 2018. — №11. (<http://uecs.ru/uecs-117-112018/item/5186-2018-11-08-06-43-13>)

2.117 Суворова С. Агропромышленный комплекс: понятие, становление, развитие // Международный научно-исследовательский журнал. — Екатеринбург, 2016. — №4(46), Часть 1. — С. 116-120. (<https://research-journal.org/economical/agropromyshlennyj-kompleks-ponyatie-stanovlenie-razvitie/> (дата обращения: 22.10.2019.))

2.118 Суханова П. Модели эффективных кластеров в условиях становления экономики инновационного типа: обзор зарубежных и

отечественных подходов // ARS ADMINISTRANDI. – Пермь, 2016. – №3. – С.17-28.

2.119 Фатеев В.С. Кластеры, кластерный подход и его использование как инструмента регулирования развития национальной и региональной экономики // Веснік ГрДУ імуа Үанкі Купалі. – Гродно, 2012. – № 2(131). – С.40-50.

2.120 Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.125-136

2.121 Холматов Н. Европа итифоқида кластерлашнинг саноатлашув жараёнини жадаллаштиришдаги аҳамияти. // “Biznes-Эксперт” журнали. – Тошкент, 2019. – № 8. – Б. 43-52.

2.122 Холматов Н. Иқтисодийни кластерлаш саноатлашув жараёнини жадаллаштириш йўналишларидан бири сифатида (Хитой модели) // “Бизнес-эксперт” илмий-амалий журнали. – Тошкент, 2020 й. – №4. – Б. 44-54.

2.123 Холматов Н. Саноатлашув жараёнида агросаноат кластерлари институционал ривожланишининг тенденциялари // “Агроиқтисодий” илмий-амалий иқтисодий журнал. – Тошкент, 2020. – №1. – Б.87-90;

2.124 Хусаинов М., Солиев И. Возможности использования кластерной модели развития бизнеса в Узбекистане // Молодой ученый. – Казань: «Издательство Молодой ученый», 2015. – № 17 (97). – С. 472-475.

2.125 Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития //Теория и практика управления. – Киев, 2003. – № 5. (http://www.subcontract.ru/docum/documshow_documid_168.html)

2.126 Черненко А.А. Формирование зернового кластера как условие повышения эффективности региональной экономики. Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Черненко А.А. – Краснодар, 2014. – 194 с.

2.127 Четырбок Н. Кластерная политика как метод активизации инновационных процессов в регионах // Белорус. ин-т систем. анализа и информ. обеспечения научной сферы. – Мн.: ГУ «БелИСА», 2005. – 100 с.

2.128 Шарф А. Кластерная политика как элемент инновационной экономики // Экономика и менеджмент инновационных технологий. – Москва, 2015. – № 1. (<http://ekonomika.snauka.ru/2015/01/7226>)

2.129 Щукина Л. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Экономика и управление народным хозяйством, 2014. – С.1-8.

III. Boshqa foydalanilgan adabiyotlar

3.1 Business France. France is innovative. January 2015. (www.sayouitofrance.com)

3.2 Cornell University, INSEAD, and WIPO. The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World. Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2017. – 433 p.

